

O. KARIMOVA, N. ISMATOVA, SH. SARIQOV, O. AMANOVA

O'ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI ASOSLARI

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
umumi o'rta ta'lim maktablarining 8- sinfi uchun darslik
sifatida tavsiya etgan

"Huquq va Jamiyat" nashriyoti
Toshkent – 2019

UO'K 372.83(075)
BBK 67.0(5O')
O'-21

Mualliflar jamoasi:

O. Karimova
N. Ismatova
Sh. Sariqov
O. Amanova

E. Sariqovning uslubiy tahriri ostida.

Mas'ul muharrir:

X. Odilqoriyev – yuridik fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

- A. A. Dadasheva** – JIDU kafedra mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent;
N. Z. Hakimov – Respublika ta'lrim markazi metodisti;
O. I. Orziyev – Toshkent shahar Yunusobod tumani 265-maktab huquq fani o'qituvchisi;
Q.U.Exsonov – Toshkent shahar Yashnobod tumani 231-maktab huquq fani o'qituvchisi.

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan
chop etildi.**

ISBN 978-9943-5874-2-7

© «Huquq va Jamiyat» MCHJ shaklidagi
nashriyot, 2019

DARSLIKDAN FOYDALANISH BO‘YICHA UMUMIY KO‘RSATMALAR

Har bir mavzuga oid materiallar quyidagi bandlarga bo‘lingan va ma’lum tartib asosida darslik sahifalarida joylashtirilgan.

1. Darsning tartib raqami va mavzu nomi.
2. Mavzuga oid, asosan, uyda mutolaa qilishga mo‘ljallangan asosiy matn.
-  3. O‘quvchilarni faollashtiruvchi hamda munozaraga chorlovchi ko‘rgazmali materiallar, savol va topshiriqlar.
-  4. Mavzu bo‘yicha tayanch atamalarning ta’rifi.
-  5. O‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, takrorlash va o‘z-o‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar.
-  6. Mavzu bo‘yicha mantiqiy fikrlashga tayangan holda guruhlarga bo‘linib ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun topshiriqlar.
-  7. Mavzuga oid tarixiy ma’lumotlar.
-  8. Amaliyotga oid topshiriqlar.
-  9. Sharhlash uchun matnlar, iqtiboslar, huquqiy hujjatlardan moddalar.
-  10. Mavzuga oid qo‘sishma ma’lumotlar va iqtiboslar.



O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi dan keltirilgan moddalar.



O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksidan keltirilgan moddalar.



O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksidan keltirilgan moddalar.

1- mavzu

O‘zbekiston Respublikasi – mustaqil davlat



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Yuqorida rasmlardan foydalanib "so‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan olamshumul islohotlar inson, xalq manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilmoqda" degan fikrni izohlab bering.
2. Mamlakatimiz mustaqil davlat bo‘lmasdan boshqa davlatlarga qaram bo‘lganida xalqimizning, har bir insonning, siz va bizning

manfaatlarimiz, huquq va erkinliklarimiz, milliy qadriyatlarimiz shu qadar qadrlanarmidi? Mustaqillik xalqimizga nima berdi?

3. *Yurtimizning barcha hududlarida so'nggi yillarda ko'plab Xalq qabulxonalar ochilganligining sababi nimada? Ularning faoliyati haqida nimalarni bilasiz? Ular kimga xizmat ko'rsatadi? U yerga kim, nima sababdan murojaat qiladi?*
4. *"Huquqiy savodsizlik" deganda nimani tushunasiz?*
5. *Qonunlarni bilmasligingiz uchun afsuslangan paytlaringiz bo'lganmi?*
6. *O'z huquqlaringizni bilishingiz qo'l kelgan vaziyatga misol keltiring.*

Yurtimizda so'nggi yillarda shunday o'zgarishlar, yangilanishlar yuz bermoqdaki, bu o'zgarishlar shiddatidan, ko'lamidan, olamshumulligidan aql shoshib qoladi. Qisqa davr ichida qad ko'tarayotgan bino va inshootlar, ishga tushirilayotgan zavod va fabrikalar, foydalanishga topshirilayotgan ta'lim va sog'lijni saqlash maskanlari, oromgohlar, sport, san'at, madaniyat maskanlarining barchasi xalq uchun, siz va biz uchun bunyod qilinmoqda.

So'nggi yillarda, mustaqillikka erishgan davrimizdan keyingi davrda ilk bora mustaqillikning tub mohiyatini anglatuvchi g'oya — inson manfaatlarini davlatimiz faoliyatining markaziga olib chiqish g'oyasi ilgari surildi.

Har bir inson erkin, mustaqil hayot kechiruvchi, o'zining imkoniyatlarini, qobiliyatini to'la namoyon qila olishiga barcha sharoitlar muhayyo qilingan joyda yashash, umrguzaronlik qilish insoniyatning azaliy orzusi bo'lib kelgan. Insonning bu orzusi ushalishi, u yashaydigan mamlakat haqiqiy erkin, baxtli hayotni ta'minlab bera olishi uchun ushbu mamlakatda muayyan iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy-huquqiy sharoit mavjud bo'lishi lozim. Bu joyda inson huquq va erkinliklariga bo'lgan e'tibor eng oliy darajada bo'lmog'i lozim. Chunki inson o'zini mustaqil va baxtli his qila olishi uchun, avvalambor, uning huquq va erkinliklari ta'minlangan bo'lishi shartdir.

Har bir jamiyatning asosiy mezoni hisoblangan inson huquqlari xalqaro huquqning obyekti sifatida 1948- yilda "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" ning qabul qilinishi bilan rasman tan olindi. BMT Bosh Assambleyasini tomonidan qabul qilingan ushbu hujjatning tarixiy ahamiyati shundaki,

unda ilk marotaba dunyo hamjamiyati inson va uning huquqlarini himoya qilishni xalqaro muammo darajasida e'tirof etdi. Mustaqil mamlakatlar qatori O'zbekiston Respublikasi ham muayyan huquq va majburiyatlarga egadir. Bularning ichida eng muhimi va ustuvori mamlakatimiz hududida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, mamlakatimiz fuqarosini tom ma'nodagi erkin va mustaqil shaxsga aylantirishdir.

Yurtimizning barcha hududlarida faoliyat yurita boshlagan Xalq qabulxonalar, davlat idoralarining xalqning muammo va arizalari bo'yicha joylarda ish olib bora boshlagani, kam ta'minlangan oilalarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatila boshlangani, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga, ularni ish bilan ta'minlashga berilayotgan e'tibor, bularning barchasi yurtimizda xalq manfaatlari ustuvorligining yaqqol isbotidir. Eng asosiysi, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash mamlakatimizdagi olamshumul islohotlarning bosh g'oyasi, maqsadi qilib belgilandi.

Inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan mamlakat mustaqilligi o'rtasida bevosita va uzviy bog'liqlik bor.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida quyidagi huquqlarga ega:

- daxlsizlik, o'z hududiga va chegarasiga egalik huquqi;
- shaxslarni fuqarolikka qabul qilish va fuqarolikdan mahrum etish huquqi;
- o'z Konstitusiyasi, kodekslari va qonunlarini qabul qilish huquqi;
- qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining faoliyatini yo'lga qo'yish huquqi;
- o'z Qurolli Kuchlarini tashkil qilish huquqi;
- xalqaro huquq subyekti sifatida xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil ravishda aloqalar o'rnatish huquqi;
- o'z mulkiga egalik, budget, soliq va moliya tizimlarini tashkil qilish huquqi;
- o'z xazinasi va pul birligi – milliy valutasini joriy qilish huquqi;
- o'z sud tizimini tashkil qilish va sud ishlarini mustaqil yuritish huquqi;
- o'z gerbi, bayrog'i, madhiyasi va poytaxtiga ega bo'lish huquqi;
- davlat tiliga egalik huquqi;
- o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini, o'z ma'muriy tuzilishini o'zi belgilash huquqi;

— referendum o'tkazish hamda hokimiyat va boshqaruv organlari tarkibini belgilash huquqi.

Ko'rib turganingizdek, O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida bir qator ajralmas huquqlarga ega bo'ldi. Bu huquqlar mamlakat miqyosidagi huquqlardir.

Mustaqillik O'zbekiston Respublikasi va uning har bir fuqarosi o'rta-sidagi munosabatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Mustaqil inson deganda biz o'z yurtida erkin va baxtiyor hayot kechirish uchun barcha zarur huquqlarga ega bo'lgan, ulardan bemalol foydalana oladigan shaxsni tushunamiz. Barcha insonlarga, mamlakatning barcha fuqarolariga teng huquq va erkinliklarni esa davlat ta'minlaydi. Lekin o'z fuqarolariga huquq va erkinliklarni ta'minlash, ularni tom ma'nodagi mustaqil qilish uchun davlatning o'zi mustaqil bo'lishi shart. Chunki haqiqiy mustaqil davlatgina o'z fuqarolari manfaatlardidan kelib chiqib, ularning tinch, osoyishta va baxtiyor hayot kechirishlarini ta'minlaydigan ijtimoiy-huquqiy shart-sharoitlarni tuza oladi. Haqiqiy mustaqil davlatgina shaxs huquq va erkinliklari ustuvor qilib qo'yilgan qonunchilikni yarata oladi. Haqiqiy mustaqil davlatgina o'z fuqarolarining ushbu qonunchilik asosida ertangi kunga ishonch bilan yashashlarini ta'minlay oladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017 - 2021- yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatar strategiyasining qabul qilinishi yurtimizda siz va biz, har bir fuqaro, butun O'zbekiston xalqi uchun, farovon turmush, hamda huquq va erkinliklarning ta'minlanishi borasidagi tub islohotlarni amalga oshirishga turtki berdi. Harakatlar strategiyasining "Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish" deb nomlangan 2- yo'naliishida "fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash" alohida belgilab qo'yilgani ham davlatimizning inson manfaatlari, uning huquq va erkinliklariga berayotgan yuksak e'tiborining isbotidir.

Mustaqil davlatimiz boshqa davlatlarga qaram bo'lmadan o'z siyosatini yurgizish, o'z taqdirini o'zi hal qilish huquqiga ega bo'lsa, biz, har bir fuqaro, ushbu mustaqillik tufayli berilgan huquqlarimizdan foydalanib, erkin va farovon yashash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Mustaqillik sharofati bilan sizning ta'lim olishingiz, dam olishingiz, ijodiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lishingiz, sport bilan shug'ullanishingiz, malakali tibbiy xizmatdan foydalanishingiz uchun imkoniyatlar mavjud.

Ya’ni, siz o’z mustaqil vataningizda farovon turmush kechirish va o’z huquqlaringizdan foydalanish imkoniyatiga egasiz. Davlat esa ushbu imkoniyatlarni yaratib bermoqda va kafolatlamoqda.

Sharhlang!



Fuqarolar o’z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

20- modda.

Ijodiy faoliyat

1. O’z huquqlaringiz ro‘yxatini tuzing.
2. O’z burchlaringiz ro‘yxatini tuzing.
3. “Mustaqillik” so‘ziga berilgan ta’rifni daftaringizga yozing va uni izohlab bering.
4. Sizning huquqiy savodxonligingiz darajasi o‘zingizni qoniqtiradimi?
5. Nima uchun inson huquqlarini ta’minalash davlat uchun asosiy vazifa hisoblanadi? Bu vazifani bajarish uchun davlatimiz qanday tadbirlarni amalga oshirmoqda?

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Yurtimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh g‘oyasi — maqsadi nimada?
2. Davlat tomonidan inson manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilayotgan ishlarga o‘zingiz yashaydigan hududdan misollar keltiring.
3. Inson huquq va erkinliklariga e’tibor ortib borayotganligining sababi nima?
4. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” qabul qilinishing ahamiyati haqida gapirib bering.
5. Mustaqillik O‘zbekiston Respublikasiga qanday huquqlarni berdi?
6. “Mustaqil inson” deganda siz qanday insonni tushunasiz?
7. Mamalakat mustaqil bo‘lishi uning har bir fuqarosi uchun qanday ahamiyatga ega?
8. Inson huquq va erkinliklarini kafolatlash haqida Konstitutsiyamizda nimalar deyilgan?


Bizning faoliyatimiz eng muhim konstitutsiyaviy qoidaga – ijtimoiy adolat tamoyilini ta'minlashga qaratilishi shart.

Ijtimoiy adolat – bu siyosiy qarashlari, jinsi, millati, tili va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashdir.

Shavkat Mirziyoyev

I BOB

SHAXS, JAMIYAT VA DAVLAT




*Shaxs. Jamiat. Davlat
Davlat funksiyalari
Davlatning boshqaruv shakli
Davlatning tuzilish shakli
Siyosiy tartibot (rejim)
Davlat organlari. Davlat mexanizmi*



2- mavzu

Shaxs



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Rasmlarda tasvirlangan odamlar jismoniy, moddiy, aqliy, ma'naviy jihatlari bilan bir-birlaridan qanchalik farq qiladilar deb o'ylaysiz?
2. Sizning fikringizcha rasmlardagi odamlarning qanday umumiy jihatlari bor?

3. Nima uchun odamlar tug'ilganida bir xil imkoniyat va sifatlarga ega bo'ladilar, lekin ulg'aygan sari bir-biridan farqlana boradilar?
4. Inson o'z oilasida, maktab, oliyoh yoki ishxonasida qay darajada nufuz, obro'-e'tiborga ega bo'lishi nimalarga bog'liq deb o'ylaysiz?
5. Har qanday inson uchun eng qadrli bo'lgan narsalarni sanab bering.
6. Alohidat toifadagi insonlar uchun qadrli bo'lgan, lekin boshqalar uchun uncha ahamiyatli hisoblanmagan narsalarga misol keltiring.
7. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga misollar keltiring. Mazkur qadriyatlarning inson uchun ahamiyati yuqori bo'lishi bu inson haqida qanday tasavvur uyg'otadi?

Odam har qanday tirik organizm kabi jonli tabiatning bitta a'zosi, elementidir. Lekin odam tabiatdagi boshqa mavjudotlardan o'zining ko'plab jihatlari bilan farqlanadi. Inson – tabiatdagi eng rivojlangan, ongli mavjudotdir. U xuddi boshqa jonzotlar kabi tirik tanaga ega. Uning xuddi hayvonlarda bo'lganidek, tabiiy ehtiyojlari, mana shu ehtiyojlarini qondirishga intilishi chog'ida namoyon bo'ladigan, instinct deb atalmish sifati bor. Lekin insonning hayvonlar bilan umumiyligi jihatlari shu bilan tugaydi. Ya'ni, odam ongli, aqlli mavjudot sifatidagi jihatlarini namoyon qila boshlaydiki, bu jihatlar faqatgina tabiatning odamzot deb atalmish qismining vakili bo'lgan insongagina xosdir.

Har bir alohida odam – bu individ. U ayol yoki erkak, yosh yoki qari, baland yoki past bo'yli, oriq yoki semiz deb tavsiflanadigan umumiyligi xususiyatlarga, ovqat, suv, boshpana, kiyim kabi umumiyligi ehtiyojlarga, ota-onaga, o'z uyiga bog'liqlik, sog'inch, muhabbat kabi tuyg'ularda namoyon bo'ladigan his-hayajonga ega. Odamning bu jihatlari barcha odamlarga birdek xosdir. Ya'ni odam tug'ilishi va ulg'ayishi davomida bu jihatlar o'z-o'zidan ozmi-ko'pmi shakllana boradi. Mana shu individ, odam, inson qanday qilib shaxsga aylanishi, ya'ni insonning shaxs sifatida shakllanish jarayoni insoniyatni qadim zamonlardan buyon qiziqtirib kelgan.

Xo'sh, inson qanday qilib shaxsga aylanadi? Qanday insonni biz shaxs deb atashimiz mumkin?

Shaxs ham, albatta odam, inson, individ. Lekin unda tabiiy xususiyatlar, ehtiyojlar, his-hayajon, tuyg‘ulardan tashqari bir qadar ahamiyatliroq bo‘lgan jihatlar mavjud. Masalan, shaxs uchun qator qadriyatlar muhim. Bu qadriyatlarga misol qilib o‘z uyi – oilasi, mamlakati – vatani, mahallasi – qo‘ni-qo‘snilari, o‘quv dargohi – sinfdoshlari yoki kursdoshlari, ishxonasi – hamkasblari kabilarni keltirish mumkin. Bu qadriyatlarga erishish, ularni saqlash va e’zozlash uning hayotining maqsadi, mazmuni bo‘lib xizmat qiladi. Shaxsga yashash prinsiplari, atrofdagilar bilan munosabat qonun-qoidalari, o‘zi yashayotgan, faoliyat yuritayotgan muhitda obro‘-e’tiborga, nufuzga ega bo‘lish istagi kabilar xosdir.

Shaxs o‘z his-hayajon va ehtiyojlarini jilovlay oladi. Unda ong va iroda kuchli. Shaxs o‘z ichki dunyosini biladi, tushunadi va ma’lum tizimga sola oladi.

Shaxs o‘z-o‘zini va o‘z hayotini quradi. Bunda u o‘zini va o‘z atrofidagi shart-sharoitlarni o‘zgartiradi, shakllantiradi. Shaxs faqat o‘z-o‘zi bilan ovora emas. U atrofdagilar, hayot, mahalla, mamlakat, vatan haqida doimo o‘ylaydi, qayg‘uradi, g‘amxo‘rlik qiladi. Inson qay darajada shaxs sifatida shakllanganligining o‘lchovi, me’yori sifatida uning o‘z shaxsiyati bilan qay darajada atrofdagi boshqa odamlarga, vataniga va hayotga ta’sir o‘tkaza olayotganligini keltirish mumkin.

Biz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajodolarimizni tilga olganimizda ularni buyuk shaxslar deb ulug‘lashimiz ham shaxs tushunchasining naqadar salobatli ekanligini bildiradi.

Insonning shaxs sifatida shakllanishida oila, maktab, qo‘ni-qo‘snilar, mahalla va do‘srlarning ta’siri katta. Oila bola uchun eng dastlabki asoslarni yaratса, bolalar bog‘chasi, maktab yoki boshqa ta’lim muassasalari zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni beradi. Qo‘ni-qo‘snilar va mahalla an‘analar, urf-odatlar bilan tanishtiradi, atrofdagilar bilan munosabatga kirishishga o‘rgatadi. Insonning qanday shaxsga aylanishi ko‘p jihatdan davlatning yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga qaratilgan siyosatiga bog‘liq. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biri aynan yosh avlodning ta’lim-tarbiyasiga, kelajakda

farovon turmush va taraqqiy etgan mamlakatning quruvchilari bo'lgan shaxslarni voyaga yetkazishga qaratilgan. Islohotlarning markaziga aynan shaxs, uning erkinligi, manfaatlari, orzu-istiklari, intilishlari qo'yilgan.



Shaxs deganda o'ziga xos xususiyatlar, xohish-istiklari, orzu va intilishlar, bilim, ko'nikma, malakalarga ega, ma'naviy dunyosi boy bo'lgan inson tushuniladi.

Shaxs sifatida shakllangan kishi yetarli darajadagi aql-idrok, bilim, zakovat, kuch-quvvat, tajriba, kasbiy mahorat, ilmiy salohiyat, jismoniy va ma'naviy salomatlikka, ya'ni inson kapitali deb atalmish boylikka ega bo'lishi lozim.

Insonning ma'naviy boyligi - uning dunyoqarashi, xulqi, odobi, madaniyati kabi ruhiy dunyosi bilan bog'liq fazilatlari inson kapitalining asosiy tashkil etuvchilaridan hisoblanadi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi qilib aynan inson kapitalini rivojlantirish belgilanganligi ham bejiz emas. Chunki, inson kapitali – mamlakatimizning jahon arenasidagi raqobatbardoshligini ta'minlab beradigan omildir. Bu so'nggi yillarda davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan yangi qonunchilik hujjatlarida ham o'z aksini topmoqda.

Siz o'sib, ulg'ayib shaxs sifatida shakllanib borar ekansiz o'zingizda vatanga bo'lgan muhabbatni tarbiyalab borishingiz kerak. Sizdagi vatanparvarlik ruhi va davlatning sizning shaxsiy kamolotingiz bo'yicha g'amxo'rliги siz va vatan o'rtasidagi maqsadlar, intilishlar mushtarakligidan darak beradi. Mana shu mushtaraklik sizning shaxsligingizning ravnaqi, siz kabi yosh avlodning kamol topishi, bular esa o'z navbatida vatanning kelajakdagi taraqqiyoti kafolatidir. Chunki Vatan kelajagi siz yosh avlodning qo'lingizda.

Ijodiy faoliyat

O'zingizning bosib o'tgan umr yo'lingizni tahsil qiling. Bunda:

1. O'tgan umringizni davrlarga bo'lib oling: a)chaqaloqlik davringiz; b)maktabgacha bo'lgan davringiz; d)boshlang'ich sinflardagi davringiz; e)yuqori sinflardagi davringiz.


2. *Har bir davrdagi o‘zingizning imkoniyatlaringizni baholab yozib chiqing. Har bir davrda siz shaxs deb atalishga qay darajada loyiq bo‘lgansiz?*
3. *Sizning barkamol shaxs deb atalishingiz uchun sizga nimalar yetishmayapti?*
4. *Kelajak hayotingizni davrlarga bo‘lib chiqing: a) maktab davringiz; b) mактабдан keyingi ta’lim davringiz (kollej, Oliy o‘quv yurti va h.k.); d) mehnat davringiz; e) qarilik davringiz.*
5. *Bu davrlar bo‘yicha ham xuddi yuqoridagidek tahlil va baholashni yozma ravishda amalga oshiring.*
6. *Siz qachon o‘zingizni yetuk shaxs deb hisoblay olasiz?*
7. *Bu yetuklikka erishishingiz uchun qaysi davrda nimalar qilishingiz lozim bo‘ladi?*
8. *Faoliyat natijasini sinfdoshlariningizni bilan solishtiring.*

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Odamning uni boshqa tirik mavjudotlardan farqlantirib turuvchi jihatlarini sanab bering.
2. His-hayajon va ehtiyojlar inson hayotida qanday o‘rin tutadi?
3. Inson shaxs sifatida shakllanishiga qanday omillar ta’sir qiladi?
4. Shaxs uchun qadriyatlarning qanday ahamiyati bor?
5. Shaxs uchun e’tiborli bo‘lgan qadriyatlarga misollar keltiring.
6. Shaxsnинг shakllanishida davlatning qanday ahamiyati bor?
7. Davlatimiz yosh avlodning yetuk shaxslar bo‘lib kamol topishi uchun qanday imkoniyatlar yaratmoqda? Bu imkoniyatlarga misollar keltiring.
8. O‘zbekistonda Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan olamshumul islohotlarning markazida inson, uning manfaatlari, yosh avlodni yetuk shaxslar qilib kamolga yetkazish qo‘yilganligi sizni, sizning tengdoshlariningizni nimaga undaydi?
9. Inson kapitalining insonning shaxsga aylanishidagi ahamiyatini tushuntiring.
10. Qanday tarixiy zotlarni "buyuk shaxslar" deb atashimiz mumkin? Siz bunday zotlardan kimlarning nomlarini aytib bera olasiz?

3- mavzu

Jamiyat



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Siz jamiyat deganda nimani tushunasisz?
2. O'zingizni jamiyat a'zosi deb hisoblaysizmi?
3. "Jamiyat" va "jamo'a" tushunchalari orasidagi farqni qanday izohlaysiz?
4. Rasmlarda tasvirlangan odamlarning barchasini jamiyat a'zolari deb atashimiz mumkinmi? Bunda ayrim odamlarning chet el fu-qarolari bo'lishi mumkinligini ham e'tiborga oling.
5. Rasmlarga qarab, ularda tasvirlangan har bir shaxsni tavsiflab berishga harakat qiling. Bunda ular orasidagi umumiyliliklar va farqlarni alohida ko'rsating.
6. Chaqaloq tug'ilganida biz odatda, "jamiyatning yangi a'zosi dunyoga keldi", – deb aytamiz. Bu e'tirof qanchalik to'g'ri? Fikrin-gizni asoslang.

7. “Jamiyat” va “aholi” atamalarining qaysi hollarda ishlatalishini bilasizmi? Bilsangiz bunday hollarga misollar keltiring.
8. Rasmlardagi har xil toifadagi insonlarni nima va qanday vosita orqali birlashtirib turadi deb o‘ylaysiz?

Siz “jamiyat” so‘zini hayotda ko‘p bora eshitgansiz. Masalan, ko‘pgina firmalarning nomi yoniga “mas’uliyati cheklangan jamiyat” deb yozib qo‘yilgan bo‘ladi. Bunday firmalarni bir necha kishi birgalikda tadbirkorlik faoliyati yuritish maqsadida tashkil qiladi. Ya’ni ular birgalikda faoliyat yuritish maqsadida kichik jamiyat tuzadilar. “Iste’molchilar jamiyat”, “Ko‘zi ojizlar jamiyat”, “Faylasuflar jamiyat” kabi atamalar ham qulog‘ingizga chalingan bo‘lishi ehtimol. Bu jamiyatlarga o‘z navbatida iste’molchilar o‘z huquqlarini birgalikda himoya qilish maqsadida, ko‘zi ojizlar birgalikda ishlab chiqarish yoki ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish maqsadida, faylasuf olimlar falsafa sohasidagi murakkab savollarga birgalikda javob topish, hamkorlikda ilmiy izlanish olib borish maqsadida birlashadilar.

Mana shu atalgan jamiyatlarning qay birini olmang muayyan odamlar jamoasi muayyan maqsadlarni amalga oshirish maqsadida o‘zaro birlashganligini ko‘ramiz. Lekin bu jamiyatlarning har biri tor ma’nodagi jamiyatga misol bo‘la oladi.

“Jamiyat” atamasining keng, to‘la ma’nosini o‘rganish uchun yana sizning hayotingizdan misol keltiramiz. Kattalar sizga yoki o‘rtoqlaringizga “o‘sib, ulg‘ayib tinch farovon jamiyatimizning munosib a’zosi bo‘lib kamolga yetgin” degan tilaklar bildirganligining ko‘p marta guvohi bo‘lgansiz. Xo‘sish, bu holda qanday jamiyat haqida so‘z bormoqda? Siz bilan biz aynan mana shu siz-u biz, katta-yu kichik barchamiz a’zosi bo‘lgan keng ma’nodagi jamiyat bilan tanishamiz.

Eng qadimgi zamonlarda — ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odamlar orasida o‘ziga xos qoidalalar mavjud bo‘lgan. Odamlar ilk bora to‘da, urug‘ jamoalari va qabilalarga birlashganlarida o‘zlariga yo‘lboshchi, urug‘ boshlig‘i va qabila boshliqlarini tayinlaganlar. Mehnat quollarining takomillashuvni jarayoni mehnat taqsimotini keltirib chiqargan va odamlar orasidagi tabaqlashuvga olib kelgan. Shuning uchun ham asosiy maqsadi va

mashg'uloti xususiy mulkchilik munosabatlari va mulkdorlar manfaatini muhofaza qilishdan iborat bo'lgan kishilarning maxsus guruhlari vujudga kelgan.

Mana shu vujudga kelgan guruhlar yoki kishilar jamoasi keng ma'nodagi jamiyatning ilk, eng sodda ko'rinishidir.

Jamiyat birgalikdagi hayotiy faoliyatlari jarayonida birlashgan odamlarning muayyan murakkab tuzilmasidir. Bu tuzilma unga kirgan a'zolar, ya'ni odamlarning oddiy guruhi yoki to'plami emas, balki muayyan qoidalarga asosan birlashgan jamoasidir. Odamlar o'z iste'moli uchun kerakli ashyolarni tayyorlab, ishlab chiqarib oladilar va o'zlarini yashashlari uchun zarur bo'lgan ijtimoiy shart-sharoitlarni ham o'zlarini yaratadilar. Inson jamiyat a'zosi bo'lar ekan shu ijtimoiy shart-sharoit og'ushida yashaydi.



Jamiyat – muayyan hududda yashovchi, o'z ehtiyoj va manfaatlari ko'ra birlashgan kishilardan iborat jamoa.

Jamiyat turli odamlarning oddiy guruhi yoki jamoasi emas. Jamiyat – murakkab ijtimoiy tuzilma. U – odamlarning o'zaro munosabatlari, aloqalari mahsuli. Odamlarning hayotini, eng avvalo, ishlab chiqarishni, turmush farovonligini ta'minlovchi iste'mol buyumlari yaratish va ularni o'zaro ayriboshlash bilan bog'liq muayyan mushtarak faoliyat zaminida kechadi.

Boshqacha aytganda, jamiyat biologik qonunlar emas, balki odamlarning ijtimoiy qonunlari ustuvor bo'lgan, muayyan shakllangan mushtarak birligidir.



Jamiyat – arabcha so'z bo'lib, jamoa, jamlangan, birlashgan degan ma'nolarni bildiradi.

Har qanday jamoa ham jamiyat bo'lavermaydi. Lekin istalgan jamiyat jamoa hisoblanadi. Jamiyat murakkab jonli tuzilma bo'lib, muttasil o'zgarib, rivojlanib turadi.

Jamiyatni tashkil qiluvchi odamlar ko'p yoki kam, boy yoki kambag'al, teng huquqli yoki teng huquqli bo'lmagan, o'xshash yoki har xil bo'lishlari dan qat'i nazar muayyan jamiyatning a'zolari hisoblanadilar. Ya'ni jamiyat insonsiz, inson esa jamiyatsiz mavjud bo'la olmaydi.



1. Jamiyatga berilgan quyidagi uchta ta'rifni o'qing va:
 - 1) ular o'rtasidagi farqlarni toping;
 - 2) ulardagi umumiy jihatlarni ifodalang;
 - 3) nima uchun jamiyatga uch xil tarzda ta'rif berilgan deb o'ylaysiz?
- A) Jamiyat — ma'lum hududda yashovchi o'z manfaatlarini birqalikda himoya qilish va ehtiyojlarini birqalikda qondirish uchun birlashgan kishilarning jamoasi.
- B) Jamiyat — mavqeい, ijtimoiy kelib chiqishi va qiziqishlariga ko'ra birlashgan kishilar doirasi.
- D) Jamiyat — biror bir maqsad yo'lida doimiy harakatdagi tashkilot.

2. Quyida qayd etilgan elementlardan qaysilari qatnashmasa ham, jamiyat tashkil topishi mumkin?

– Xalq, iqtisod, madaniyat, davlat, g'oya, huquq, qonun.

Javobingizni asoslang. Bunda jamiyatga berilgan har xil ta'riflarga murojaat qiling.

Rasmdagi odamlar guruhini jamiyat deb atasak bo'ladimi? Nima uchun?



**Abu Ali ibn Sino
(980 - 1037)**

Abu Ali ibn Sino mashhur qomusiy olim, tabib, tibbiyotshunos, tabiatshunos, faylasuf, agronom, tilshunos, matematik, musiqashunos, huquqshunos, yozuvchi va shoirdir.

Ibn Sino jahonga "Shayx-ur-rais" ("Olimlar rahbari") nomi bilan ham tanilgan. Ibn Sino huquqshunoslikka oid bir qancha g'oyalar va fikrlar muallifidir. Uning jamiyat, fuqarolik, davlat boshqaruviiga oid g'oyalari, ayniqsa, qimmatlidir.

Ibn Sino ilmiy-adabiy merosini 450 dan ortiq asarlar tashkil etadi. Shulardan 160 taga yaqini bizgacha yetib kelgan.

Sharhlang!



Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega.

Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.

63-modda.

Ijodiy faoliyat

5-6 kishidan bo‘lib guruhlarga bo‘lining.



1. Shaklni har bir guruh alohida tahlil qilsin.
2. Har ikki doiraning bir-biri bilan kesishishi nimani anglatadi?
3. Uchchala doiraning bir-biri bilan birdaniga kesishishi-chi?
4. Har bir guruh chizmadan foydalanib “jamiyat” atamasiga ta’rif berishga harakat qilsin.

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odamlar qanday kun kechirganlar?
2. “Har qanday jamiyat jamoadir” degan fikrni asoslab bering.
3. “Har qanday jamoa ham jamiyat bo‘la olmaydi” degan fikrni asoslab bering.
4. Jamiat uchun iqtisodiy munosabatlarning qanday ahamiyati bor?
5. O‘zingizning jamiyatdagi rolingizni kuchaytirish uchun kelajakda nimalarga erishishni istar edingiz?
6. “Jamiyatni boshqaruvsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi” degan mulohazaga siz qanday qaraysiz? Fikringizni asoslang.
7. “Jamiyat – ijtimoiy munosabatlar majmui, yig‘indisi”, – degan e’tirof zamirida nimalar yotibdi deb o‘ylaysiz?

4- mavzu

Davlat



1



2



3



4



5



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Rasmlarda O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasini ijro etayotgan yoshlar, O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i va gerbi tasvirlangan. Nima sababdan madhiya, bayroq, gerb atamalari oldida davlat so'zi qo'shib ishlataladi. Bu haqidagi fikringizni sinfdoshlarinigiz bilan o'rtoqlashing.
2. Siz yashayotgan hududda qanday iqtisodiy yoki ijtimoiy muammolar bo'lmasin ularning yechimi o'sha joydagi hokimiyatga borib taqaladi. Buning sababi nimada deb o'ylaysiz? Javob berishda hokimiyat davlat mahalliy boshqaruvin organi ekanligini e'tiborga oling.
3. Mamlakatimizdagi qonunlar kim tomonidan yaratiladi va ularning bajarilishi kim tomonidan nazorat qilinadi? Mana shu qonunlarning mavjudligi va ularga itoat qilinishi qay darajada zarur? Ushbu qonunlarsiz yashasa bo'ladimi? Javobingizni asoslang.

4. Pul kim tomonidan muomalaga kiritiladi va pulning aylanishi kim tomonidan nazorat qilib turiladi? Bunday nazorat qay darajada zarur deb o'ylaysiz?
5. Siz kundalik hayotingizda davlatning ta'sirini qay tariqa sezasiz?
6. Davlatsiz hayot qanday kechishi mumkinligini tasavvur qilib ko'ring. Bu holda siz qanday burch va mas'uliyatlardan holi bo'lar edingiz va qanday muammolarga duch kelar edingiz?
7. "Davlat" bilan "jamiyat" tushunchalari bir xil ma'noga egami yoki turli? Bu tushunchalardan qaysi biri kengroq deb o'ylaysiz?
8. Nima uchun "bizning davlatimiz" degan iborani ishlatalimiz?

Huquqshunoslik fanida "davlat" va "jamiyat" tushunchalari mavjud. Ammo davlat bilan jamiyat tushunchalari bir xil emas. Davlat – jamiyatning shakllangan siyosiy instituti. Jamiyat taraqqiyotining yetuklashgan muayyan davrida paydo bo'lган. Shunday ekan, jamiyat qanday bo'lsa, davlat ham shunday bo'ladi va aksincha. Jamiyat o'z rivojida qanday bosqichlardan o'tsa, davlat ham shunga mutanosib tarzda o'zgarib, takomillashib boraveradi. Bu – qonuniyat.

Davlatlarning tashkil topishi bu — insoniyatning ibtidoiy jamoa tuzumidan sivilizatsiya tomon burilishi edi. Dunyoda birinchi sivilizatsiyalashgan davlatlarning paydo bo'lishi Qadimgi Sharqda miloddan avvalgi IV—III ming yilliklar davriga to'g'ri keladi. Markaziy Osiyo hududida miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida ilk davlat uyushmalari paydo bo'la boshlagan.



Miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida, miloddan avvalgi VII-VI asrlarda O'zbekiston hududida ilk davlatlar Qadimgi Xorazm, Qadimgi Baqtriya paydo bo'lган davrdanoq mamlakatimizda davlatchilik asoslari uzil-kesil tashkil topdi.

Qadimgi Xorazm va Baqtriya davlatlari uyushmasi-ittifoqi hududiga Sirdaryodan O'rta Afg'onistongacha bo'lган yerlar kirgan. Xorazm davlatining markazi Ko'zaliqir (Xorazm) shahri bo'lган.

Jamiyat dastlab ijtimoiy hokimiyat, ya'ni hamma odamlarning hokimiyati kuchi bilan boshqarilgan. Odamlar turli qabilalarga birlashib,

o'sha qabilada yuzaga kelgan muhim masalalarni birgalikda hal qilgan. Qabila ishlarini boshqarishda hamma ishtirok etgan. Bu demokratiya, ya'ni xalq hokimiyatining ilk sodda ko'rinishi edi. Ishlab chiqarishning o'sishi, taraqqiyot natijasida asta-sekin jamiyatda siyosiy munosabatlar paydo bo'ldi.

Jamoa hokimiyati (ibridoiy demokratiya) o'rniiga alohida odamlar hokimiyati paydo bo'ldi. Jamiyat boylar va kambag'allar, keyinroq esa boshqaruvchilar va boshqariluvchilarga bo'lindi.

Shunday qilib, boshqaruvchilarning siyosiy hokimiyati sifatida davlat paydo bo'ldi. Bunga qadar insoniyat juda uzoq tarixiy davrni bosib o'tdi. Davlat yuzaga kelgach esa odamlar hayoti butunlay o'zgarib ketdi.

Davlat jamiyat rivojining muayyan bosqichida yuzaga kelgan bo'lib, u o'zining shakllanishi va rivojlanishida uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tgan. Dastlabki bosqichda davlat boshqaruvi eng avvalo majburlash usuliga asoslangan.

Lekin asta-sekin umumiy manfaatlar atrofida birikkan odamlar ittifoqi ushbu manfaatlarga erishish uchun, birgalikda faoliyat ko'rsatish uchun muayyan qoida-talablarga ehtiyoj sezal boshladi. Mana shu ehtiyoj sabab ushbu ittifoqning barcha a'zolari uchun majburiy bo'lgan huquq-tartibot qoidalari – qonunlar yuzaga kela boshladi. Bu esa yagona hududda birikkan odamlar ustidan adolatli tarzda hukmronlik qilish imkoniyatini yaratdi. Mana shu huquq-tartibot hokimiyatning takomillashuviga olib keldi. Natijada hozirgi zamонави ma'nodagi davlat ko'rinishi shakllana boshladi. Mana shu davlatni quyidagicha, sodda tarzda ta'riflash mumkin: Davlat muayyan huquq-tartibot asosida uyushgan, yagona hududda hukmronlik o'rnatgan va yagona hokimiyatga bo'ysunuvchi odamlar ittifoqidir.

Lekin bu ta'rif davlatning bugungi kundagi barcha belgilarini o'z ichiga olmaydi. Davlatga to'laqonli ta'rif berish uchun uning alohida belgilarini o'rganib chiqishimiz lozim bo'ladi.

Davlatning ibridoiy, urug'chilik jamiyatidan ajratib turadigan belgilari quyidagilar:

1. Davlat paydo bo'lgan jamiyatda fuqarolar ma'lum bir hududga birlashadilar.
2. Davlat o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun murakkab tizimdan tashkil topgan boshqaruv apparatiga ega bo'ladi va ana shu boshqaruv

tizimi yordamida o'zining barcha fuqarolari uchun majburiy bo'lgan davlat hokimiyatini amalga oshiradi.

3. Davlat hokimiyatni to'laqonli amalga oshirish uchun qonunlar va turli normativ hujjatlar qabul qiladi. Ya'ni, davlat mavjud bo'lgan joyda huquq ham mavjud bo'ladi.

4. O'z faoliyatini yuritishga kerak bo'ladigan zaruriy xarajatlar o'rnni qoplash uchun moliyaviy manbalarga ega bo'ladi. Soliqlar va boshqa to'lovlar joriy qiladi va ularni yig'adi. Ya'ni o'z budgetiga ega bo'ladi.

5. Davlat o'z faoliyatini to'laqonli tarzda amalga oshirishi uchun o'z suverenitetiga (mustaqilligiga) ega bo'lishi lozim.

Demak, davlat o'ziga xos belgilarga ega. Agar ularning birortasi mavjud bo'lmasa, biz bunday tashkilotni davlat deya olmaymiz.



Davlat – majbur qilish kuchiga, ya'ni hokimiyatga ega bo'lgan, o'z fuqarolari, shuningdek, hududida istiqomat qiluvchi barcha insonlarning manfaatlarini himoya qiladigan, boshqa davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarni amalga oshiradigan mustaqil siyosiy tashkilotdir.



**Amir Temur
(1336-1405)**

Bobokalonimiz Amir Temur tomonidan o'rta asrlarda barpo qilingan davlatda uni oddiy jamiyatdan ajratib turuvchi barcha belgilar mavjud bo'lgan.

Amir Temur Ko'rragon ibn Amir Tarag'ay Bahodir – yirik davlat arbobi, yengilmas sarkarda, o'rta asrlarda eng katta davlatlardan birining bunyodkori, tashqi munosabatlarda eng oqil yo'llarni topa bilgan rahbar, jang san'ati va qonunlarini ishlab chiqqan mashhur lashkarboshi.

Hikmatlar xazinasidan!

Davlatu sultanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan tikdir. Dono vazir bularning har uchalasini tadbirdorlik bilan yaxshi ahvolda saranjom tutadi.

(Amir Temur)



Xalq davlat idoralariiga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak.

Shavkat Mirziyoyev

Prezidentimizning yuqoridagi qisqa va lo‘nda fikrida davlatning mohiyati, uning mavjudligi sharti, davlat idoralarining maqomi va vazifalari mujassamlashgan. Siz mana shundan kelib chiqib:

1. Oilangizdagи kattalardan so‘nggi yillargacha oddiy fuqaro davlat idorasiga murojaat qilmoqchi bo‘lsa qanday qiyinchiliklarga duch kelganligini so‘rab biling.
2. Yurtimizning barcha hududlarida faoliyat yurita boshlagan “Xalq qabulxonalari”ning vazifalari xaqida ma'lumot to‘plang.
3. Davlat xizmatlari markazlarining faoliyati Prezidentimizning yuqoridagi fikrining amaldagi isboti ekanligini asoslang.

Ijodiy faoliyat

1. *Shartli davlat tuzing. Uni nomlang.*
2. *Davlatingizni yuqorida keltirilgan 5 ta belgi bo‘yicha tavsiflang.*
3. *Agarda ushbu belgilardan bittasi yoki ikkitasi mavjud bo‘lmasa qanday vaziyat yuzaga kelishi mumkinligini modellashtirib ko‘ring va buning oqibatlarini tasavvur qilishga harakat qiling.*

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Davlat va jamiyat tushunchalari qanday umumiyligi va farqli tomonlarga ega.
2. Jamiyat davlatsiz mavjud bo‘la oladimi? Jamiyatsiz davlat-chi?
3. Davlatning tashkil topishi insoniyatga nima berdi?
4. Mamlakatimiz hududida davlatchilik qachon paydo bo‘la boshlagan?
5. Dastlabki davlatchilikni tavsiflab bering.
6. Davlatchilikning rivojlanishiga nimalar ta’sir ko‘rsatadi?
7. Dastlabki bosqichda davlatlar o‘z faoliyatini nimaga asosan yuritgan?
8. Davlatning asosiy belgilarini sanab bering.

5- mavzu

Davlat funksiyalari



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Sizning oilangizda qarilik pensiyasi, stipendiyalar va davlat nafaqalarini oladiganlar bormi? Bu to'lovlarни kim amalga oshiradi?
2. Hozir joylarda Davlat xizmatlari markazlari faoliyat ko'r-satmoqda. Bu markazlar qanday xizmatlarni ko'rsatishini bilasizmi? Davlat tomonidan bu markazlar orqali aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarga bir nechta misol keltiring.
3. Shahringiz (qishlog'ingiz) ko'chalarida yurganingizda bu yo'l-larni qurish va ta'mirlashni kim bajarishi to'g'risida o'ylab ko'r-ganmisiz? Nima sababdan bunday ishlar amalga oshiriladi deb o'ylaysiz?
4. Ichki ishlar, sud, prokuratura organlari va mamlakatimiz Qurolli Kuchlari mayjud bo'lmasa qanday muammolar yuzaga kelishi mumkin? Siz bunday vaziyatda yashashni istarmidingiz?
5. Kundalik hayotingizdan davlat bilan bog'liq bo'lgan holat va vaziyatlarga misollar keltiring.
6. Davlatsiz yechish qiyin bo'lgan muammolarga misollar keltiring.

Har bir davlat o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. Bu yo‘nalishlar uning asosiy vazifalaridan kelib chiqadi.

Davlatning mavjudligi, uning zarurligi davlatning funksiyalarida o‘z aksini topadi. Davlat o‘z faoliyatida bir qancha funksiyalar (faoliyat yo‘nalishlari)ni amalga oshiradi.



Davlatning funksiyalari – davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘lib, ularda davlatning ijtimoiy jihatlari ro‘yobga chiqariladi.

Davlatning funksiyalarini o‘rganishda bu funksiyalarni tasniflash (guruhash) uslubi qulaydir. Tasniflashni quyidagi me’zonlar bo‘yicha amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Faoliyat ko‘rsatish makoni bo‘yicha:
– ichki;
– tashqi.
2. Faoliyat ko‘rsatish muddati bo‘yicha:
– doimiy;
– vaqtinchalik.
3. Ijtimoiy jihatdan muhimligi bo‘yicha:
– asosiy;
– asosiy bo‘lмаган.
4. Amalga oshirishning huquqiy shakli bo‘yicha:
– huquqni ijod qilish;
– huquqni ijro qilish;
– huquqni muhofaza qilish (qo‘riqlash).

Biz faoliyat ko‘rsatish makoni bo‘yicha tasniflashni batafsilroq o‘rganib chiqamiz. Chunki huquqshunoslik fanida aynan shu me’zonga ko‘ra tasniflash o‘ta muhim deb qaraladi.

Davlatning ichki funksiyalariga mamlakat ichida amalga oshiriladigan funksiyalar kiradi. Mamlakat tashqarisida amalga oshiriladigan funksiyalar esa davlatning tashqi funksiyalarini tashkil qiladi.

Davlat o‘z funksiyalarini ado etar ekan bu undan qator vazifalarni bajarishni taqozo qiladi. Mana shu vazifalarni bajarish o‘z navbatida davlatning o‘z funksiyalarini amalga oshirishiga olib keladi. Davlat bajara-digan vazifalarni ham sohalar bo‘yicha turlarga ajratish mumkin. Davlatning

ichki funksiyalarini amalga oshirish borasida bajariladigan vazifalarни turlarga ajratib, batafsilroq о‘рганамиз. Bunda biz davlat vazifalarini ijobiy, adolatli davlat misolida ko‘rib chiqamiz. Lekin aslida, barcha davrlardagi davlatlar ham shunday - adolatli, xalqparvar bo‘lavermaganligini ham e’tibordan qochirmaslik kerak. Davlatning ichki funksiyalariga oid vazifalar quyidagilardan iborat:

Iqtisodiy vazifalar:

- ◆ Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va iqtisodiyotga ta’sir o‘tkazish;
- ◆ Iqtisodiyotning davlat sektori (zavod-fabrikalar, elektrostansiyalar, konlar)ni boshqarish;
- ◆ Bozor munosabatlarining huquqiy asoslari va narx siyosatini yo‘lga qo‘yish.

Ijtimoiy vazifalar:

- ◆ Aholining yordamga muhtoj qismini himoyalash;
- ◆ Sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimini qo‘llab-quvvatlash;
- ◆ Aholini ijtimoiy ne’matlar bilan ta’minalash.

Siyosiy-huquqiy vazifalar:

- ◆ Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish;
- ◆ Qonuniylik va tartibni ta’minalash;
- ◆ Tinchlik va millatlararo totuvlikni saqlash.

Madaniy-ma’rifiy vazifalar:

- ◆ Ilm-fan, ta’limni rivojlantirish;
- ◆ Milliy madaniyatni va san’atni rivojlantirish.


Moliyaviy vazifalar:

- ◆ Soliq tizimi va bojxona nazorati;
- ◆ Pul aylanmasi ustidan nazorat;
- ◆ Moliya sohasidagi boshqa faoliyatlar.

Xavfsizlik va himoyalash borasidagi vazifalar:

- ◆ Aholining huquq va erkinliklarini ta’minalash;
- ◆ Tabiat muhofazasi;
- ◆ Mulk daxlsizligini ta’minalash;
- ◆ Huquqiy tartibotni o‘rnatish.

DAVLATNING FUNKSIYALARI



Boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlар оlib borish davlatning tashqi funksiyalarini belgilaydi.

Har qanday davlat jahondagi boshqa davlatlar bilan turli aloqalarni yo'lga qo'yishga majbur. Shundagina u jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi mumkin. Bu aloqalarga quyidagilarni kirlitsak bo'ladi:

1. Diplomatik aloqalar;
2. Savdo-sotiq aloqalari;
3. Madaniy aloqalar;
4. Harbiy aloqalar va boshqalar.

Davlat, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan ham o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yishi lozim. Xalqaro tashkilotlar sirasiga Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Umumjahon Savdo Tashkiloti va boshqalarni kiritish mumkin.

Bu xalqaro tashkilotlarning eng nufuzlilariga O'zbekiston Respublikasi to'laqonli a'zo bo'lib kirgan.

Sharhlang!

Davlatning mavjudligi, uning zarurligi davlatning funksiyalarida o'z aksini topadi.



1. Rasmlarda aks ettirilgan odamlarning qaysi toifaga mansub ekanligini aniqlashga harakat qiling.

2. Aynan shu toifadagi odamlarga nisbatan davlat qanday funksiyalarni amalga oshiradi?

3. Bu borada u qanday vazifalarni bajaradi?

Ijodiy faoliyat


1. O'zingiz tuzgan shartli davlatda fuqarolaringiz uchun qanday sharoitlar yaratgan bo'lar edingiz?
2. Bu sharoitlarni yaratish uchun sizning davlatingiz qanday vazifalarini bajarishi kerak bo'lar edi?
3. Bu vazifalarini bajarish davlatingizga qanday funksiyalarini bajarish imkonini berar edi?
4. Davlatingizni qanday xalqaro tashkilotlarga a'zo qilgan bo'lar edingiz? Nima uchun?

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. "Davlat funksiyasi" iborasining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Davlatning funksiyalari turlarini ajratib ko'rsating.
3. Davlatning asosiy vazifalarini sanab bering.
4. Davlatning vazifalarini "muhim" va "unchalik muhim emas" deb ajratish mumkinmi?
5. Siz hayotingizdan davlatning o'z vazifalarini bajarayotganligiga misol keltiring.
6. Davlat o'z funksiyalarini bajarishi uchun shaxsan siz qanday yordam bera olishingiz mumkin?

6- mavzu

Davlatning boshqaruvi shakli



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Rasmlardagi bayroqlar qaysi davlatlarga tegishli?
2. Ushbu davlatlardagi davlat rahbarlari qanday nomlanadi?
3. Bayroqlari chap guruhdagi mamlakatlarning davlat boshqaruv tizimida qanday umumiylig bor ekanligini bilasizmi? O'ng guruhdagi mamlakatlardagini-chi?
4. Monarxiya va respublika atamalari bilan tanishmisiz? Bu atamalar nimani anglatishini bilasizmi?
5. Bu atamalar siz bilgan qaysi mamlakatlarning nomlari bilan qo'shib ishlatiladi?
6. Tarix fanidan sizga ma'lum bo'lgan monarxiya va respublika davlatlarini eslab, ularni sanab berishga harakat qilib ko'ring.
7. O'zbekistondagi davlat boshqaruviga nisbatan yuqoridagi atamalarning qaysi biri qo'llaniladi? Nima uchun bundayligi haqidagi hech o'ylab ko'rghanmisiz? Agar o'ylab ko'rghan bo'lsangiz qanday xulosaga kelgansiz?

Davlat quyidagi asoslarga ko'ra turlarga bo'linadi: boshqaruvi shakli; hududiy tuzilishi; siyosiy tartib (rejim).

Boshqaruvi shakliga ko'ra davlatlar monarxiya va respublika turlariga bo'linadi.



Davlat shakllari deyilganda, davlatning boshqaruv, hududiy tuzilishi va siyosiy tartibi jihatidan qanday shakllarga bo'linishi tushuniladi.

Boshqaruv shakli deganda, davlat hokimiyati, uning idoralalarining aholi bilan o'zaro munosabatlari, aholining ushbu idoralarni shakllantirishda ishtirok etish darajasi tushuniladi.

Monarxiya – oliv hokimiyat yakka hokim – davlat boshlig'iining qo'liga bo'lgan davlat boshqaruv shakli. Bunda hokimiyat aksariyat hollarda yakka-hokim (monarx)ning farzandlariga, ayrim hollarda esa yakka-hokimning qaroriga ko'ra boshqa shaxsga meros bo'lib o'tadi.



Monarxiya – yunoncha so'z bo'lib, yakka hokimlik ma'nosini bildiradi.

O'zbekiston hududida tarixda mayjud bo'lgan monarxiya boshqaruviga misol qilib Temuriylar davri davlatchiligin keltirish mumkin.

Buyuk Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davri davlat boshqaruvi va huquqning rivojlanishida yangi davr bo'lgan. Amir Temur davlat boshqaruvi sohasida o'tmishda mavjud bo'lgan siyosiy boshqaruv tajribalaridan keng foydalana olgan. Uning tarixdagagi xizmati shundan iboratki, u davlatchilikning boshqaruv tizimi, ichki va tashqi siyosatining tartib-qoidalari, huquqiy asoslarini yangi tarixiy sharoitda takomillashtirdi. Davlat boshqaruvi tizimi islom qonun-qoidalalariga asoslangan. Qozilar shaxsan Amir Temurning o'ziga hisobot berib turgan. Temur qat'iy tartiblar va qonunlarni o'z tuzuklarida ifodalagan.

Monarxiyaning asosiy **belgilari** quyidagilardan iborat:

- 1) monarch davlatni shaxsiylashtiradi, tashqi va ichki siyosatda davlat boshlig'i sifatida maydonga chiqadi;
- 2) monarch davlatni yakka o'zi boshqaradi;
- 3) monarch hokimiyati muqaddas va ilohiy deb e'lon qilinadi;
- 4) monarch o'z faoliyatida mustaqildir;
- 5) hokimiyatni o'rnatish, qabul qilishning alohida tartibi mayjud;
- 6) umrbod boshqaruv;

7) monarx o‘z boshqaruving natijasi uchun yuridik jihatdan javobgar emas.

Monarxiya **mutlaq va cheklangan (yoki parlamentar)** shakllarda bo‘ladi.

Agar monarx o‘z davlatini boshqarishda uning boshqaruvi boshqa biron bir idora bilan cheklanmasa, bunday monarxiya **mutlaq monarxiya** deyiladi.

Agar monarxonning hukmronligi konstitutsiyaga tayanuvchi biron-bir idora bilan cheklangan bo‘lsa, bunday monarxiya **cheklangan, konstitutsiyaviy, parlament boshqaruvi shaklidagi monarxiya** bo‘ladi (masalan, Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, Shvetsiya).

Respublika davlat boshqaruving shunday shakliki, unda hokimiyat oliv idoralari ma’lum muddatga saylanadi.

Respublika shaklidagi boshqaruvga ega bo‘lgan davlatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- ◆ hokimiyat oliv idoralarining saylab qo‘yilishi;
- ◆ hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi;
- ◆ hokimiyat oliv idoralarining o‘z qarorlarini saylangan muddati davomida qabul qilishi;
- ◆ odil sudlovni amalga oshiruvchi idora bo‘lgan sudlar obro‘sining ortishi;
- ◆ fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok eta olishi.



“Respublika” so‘zi yunoncha “umumiyl ish” ma’nosini bildiradi.

Respublikalar **prezidentlik respublikasi** va **parlamentar respublika** turlariga bo‘linadi.

Prezidentlik respublikasida davlatni bevosita xalq saylaydigan va juda keng vakolatlarga ega bo‘lgan Prezident boshqaradi. U ijro hokimiyatining bevosita boshqaruvchisi hisoblanadi.

Prezidentlik respublikasiga yaqqol misol qilib AQSH, Braziliya, Argentina va Meksika davlatlarini keltirish mumkin.

Parlamentar respublikada davlat boshlig‘i – prezident saylanuvchi mansabdor shaxs bo‘lib, asosan, parlament tomonidan saylanadi.

Parlamentar respublikaga yaqqol misol qilib Italiya, Germaniya, Portugaliya, Gretsya, Irlandiya va Hindiston davlatlarini keltirish mumkin.



Fozil davlat uning aholisi o'zaro yordam berishiga, insonparvarlikka, insoniy mehr-oqibatga, uning eng oliv boylik ekanini payqab olishga, yaxshilashga asoslanish kerak.

Farobiy



Quyidagi jadvalni daftaringizga ko'chiring va to'ldiring.

Davlat nomlari	Monarxiya	Respublika
O'zbekiston		
Rossiya		
Meksika		
Fransiya		
Quvayt		
Polsha		
Nigeriya		
Eron		
Afg'oniston		
Belgiya		
Islandiya		
Daniya		
Saudiya Arabistoni		
Marokash		
Chili		
Kuba		

Sharhlang!

Davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim.

(Amir Temur)

Hikmatlar xazinasidan!

Agar hokimiyat atrofida adolat hukm surmasa, u inqirozga yuz tutadi.
 (Abu Bakr Xorazmiy)

Ijodiy faoliyat

Quyidagi jadvalni daftaringizga chizing va davlat boshqaruvin belgilari asosida to‘ldiring.

<i>Monarxiya boshqaruvi</i>	<i>Respublika boshqaruvi</i>
<p><i>Namuna:</i></p> <p>– monarx davlatni shaxsiylash-tiradi. Tashqi va ichki siyosatda davlat boshligi sifatida maydonga chiqadi.</p> <hr/> <hr/> <hr/>	<p><i>Namuna:</i></p> <p>– hokimiyat oliv idoralari saylab qo‘yiladi.</p> <hr/> <hr/> <hr/>

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Davlatning turlarga bo‘linishida nimalar asos qilib olinadi?
2. Boshqaruvin shakli deganda nimani tushunasiz? (Iboralarning lug‘aviy ma’nolariga e’tibor bering.)
3. “Monarxiya” so‘zining lug‘aviy ma’nosini, bu atamaning mohiyatiga mos keladimi?
4. Monarxiyaning asosiy belgilarini sanab bering.
5. “Mutlaq monarxiya” va “cheklangan monarxiya” iboralarining farqlarini va umumiylarini sanab bering.
6. Temuriylar davlatchiligidagi boshqaruvin qanday asosda yo‘lga qo‘yilgan edi?
7. “Respublika” so‘zining lug‘aviy ma’nosini bu atamaning mohiyatini qay darajada yoritib bera oladi?
8. Respublika shaklidagi boshqaruvgaga ega bo‘lgan davlatning asosiy belgilarini sanab bering.
9. Respublikaning qanday turlari mavjud?
10. Ularning farqlarini va umumiylarini sanab bering.

7- mavzu

Davlatning tuzilish shakli



Unitar



Federativ



Konfederativ



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Tasvirga qarab “unitar”, “federativ” va “konfederativ” atamalarini izohlashga harakat qiling.
2. Rossiya Federatsiyasining nima uchun bunday nomlanishi to‘g‘risida hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Bu savolga o‘zfikringizni bildirishga harakat qilib ko‘ring.
3. “Yevropa Ittifoqi” iborasi qulog ‘ingizga chalinganmi? Bu iborating taxminiy ma’nosini aytib berishga urinib ko‘ring.
4. Vengriya, Latviya, Polsha kabi davlatlar nomlari atalganda nima uchun federatsiya yoki konfederatsiya jumlesi qo‘silib aytilmashargining sababini aniqlashga harakat qiling.
5. O‘zbekiston Respublikasini siz qaysi davlatlar qatoriga qo‘sghan bo‘lar edingiz? Nima uchun?

Davlatlar tuzilish jihatidan oddiy (**unitar**) va murakkab (**federativ**, **konfederativ**) bo‘lishi mumkin.

Unitar davlatda butun bir mamlakat miqyosida umumiyliz tizimga ega bo‘lgan qonunchilik, ijroiya va sud idoralari bo‘ladi.

Unitar davlatning belgilari:

- ◆ yagona konstitutsiya, yagona qonunchilik tizimining mavjudligi;
- ◆ yagona armiyaga ega bo‘lish;
- ◆ yagona pul birligi amal qilishi;

- ◆ tarkibiy qismlar, ya’ni ma’muriy-hududiy tuzilmalarga bo‘linish;
- ◆ barcha ma’muriy-hududiy birliklar uchun umumiy bo‘lgan soliq va kredit siyosatining joriy qilinganligi;
- ◆ yagona fuqarolikning mavjudligi.



Davlatning tuzilish shakli uning ma’muriy-hududiy tashkil etilishidir.



Unitar — lotincha so‘z bo‘lib, oddiy, yagona degan ma’noni bildiradi.

Yagona konstitutsiya

Yagona qonunlar

Yagona fuqarolik

Yagona pul

Yagona soliq va kredit siyosati

Yagona armiya

Unitar davlatdan farqli o‘larоq **federativ davlat** murakkab davlat tuzilmasi hisoblanadi. Federativ davlat bir necha davlatlarning birlashuvidan hosil bo‘ladi. Ularning subyektlari shtat, o‘lka, respublika, amirliklar deb atalishi mumkin. Federatsiya subyektlari o‘z ma’muriy-hududiy bo‘linmalariga ega.

Ushbu davlatlar o‘zaro birlashganidan keyin federatsiya a’zolari hisoblanib, asosiy hokimiyat vakolatlari federatsiyaning markaziy organlariga beriladi.



Federativ davlat — bir necha davlatlarning birlashuvidan hosil bo‘lgan murakkab, ittifoqdosh davlat.

Federativ davlatning belgilari quyidagilar:

- ◆ federatsiya hududi uning subyektlari hududi yig‘indisidan iborat bo‘ladi;
- ◆ oliv qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati federal davlat idoralariga tegishli bo‘ladi;

- ◆ federatsiyaning umumiy konstitutsiyasi uning subyektlari va federatsiyaning o'zi o'rtaсидаги huquqiy munosabatlarni belgilaydi;
- ◆ federatsiya subyektlarining har biri alohida o'z konstitutsiyasi, o'zlarining oliv qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlariga ega bo'ladi;
- ◆ federatsiya oliv qonun chiqaruvchi idorasi odatda ikki palatali bo'ladi. Bunda yuqori palata federatsiya a'zolarining manfaatlarini ifoda etadi.



Hozirda jahonda 20 tadan ko'proq federativ davlatlar mavjud. Federatsiya va uning subyektlari o'rtaсидаги munosabatlар har doim ham ijobiy bo'lavermaydi. Buni tarqalib ketган Sovet Ittifoqi, Chexoslovakiya, Yugoslavia kabi federatsiyalar misolida ko'rishimiz mumkin.




Konfederatsiya (*lotincha – ittifoq, uyushma*) – suvereniteti va mustaqilligini saqlab qolgan holda biror-bir maqsadga erishish uchun birlashgan davlatlar ittifoqi.

Davlatlar u yoki bu maqsadni ko'zlab, o'z suvereniteti va mustaqilligini saqlagan holda birlashishlari ham mumkin. U holda bunday ittifoq **konfederatsiya** deyiladi. Konfederatsiyada yagona hudud, yagona fuqarolik bo'lmaydi. Har bir davlat xalqaro huquqning teng huquqli subyekti bo'ladi.

Konfederatsiya belgilari quyidagilardan iborat:

- ◆ mustaqil davlatlar muayyan maqsadlarga erishish uchun birlashadi;
- ◆ konfederatsiya mustahkam bo‘lmagan tuzilma;
- ◆ yagona hudud mavjud bo‘lmaydi (konfederatsiyaning hududi uning a’zolari bo‘lgan davlatlar hududidan tashkil topadi);
 - ◆ umumiy fuqarolik mavjud bo‘lmaydi;
 - ◆ konfederatsiya a’zolari undan erkin chiqish huquqiga ega bo‘ladilar;
 - ◆ konfederatsiya a’zolari ittifoq hokimiyati qonun hujjatlarini e’tirof etmaslik yoki qo‘llamaslik (nulifikasiya qilish) huquqiga ega bo‘ladilar.
 - ◆ konfederatsiya vakolatiga uncha ko‘p bo‘lmagan masalalarini hal etish kiradi;
 - ◆ konfederatsiya sarmoyasi uning a’zolarining ixtiyoriy badallaridan tashkil topadi.



Sharhang!

Davlatning tuzilish shakli uning ma’muriy-hududiy tashkil etilishi shadir.

Ijodiy faoliyat

- Tuzgan shartli mamlakatingizning tuzilish shaklini belgilang.*
- Sinfdoshlarining bilan har xil tuzilish shaklidagi davlatlar hosil qiling.*
- Tuzilish shakli jihatidan bir xil bo'lgan davlatlarga ega bo'lgan o'quvchilar birlashib, uchta guruh tashkil qiling.*
- Har bir guruh o'zi tanlagan tuzilish shaklining afzalliklarini aytib bersin.*
- Muqobil guruhlar, aksincha, ularning kamchiliklarini keltirsin.*

Ijodiy faoliyat

Quyidagi jadvalni daftaringizga chizing, ota-onangiz yoki kattalar yordamida uni to'ldiring.

Davlatlar	Boshqaruv shakli	Tuzilish shakli
O'zbekiston	respublika	unitar
Rossiya		
AQSH		
Eron		
Ispaniya		
Braziliya		
Qozog'iston		
Buyuk Britaniya		


Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

- Davlatlarning tuzilish shakllarini sanab bering.
- Davlatlarning har xil tuzilish shakliga ega bo'lishlariga sabab nima deb o'ylaysiz?
- Uchala shakldagi davlatlarning umumiy jihatlarini va farqli tomonlarini aytib bering.
- Unitar davlatlarga misollar keltiring.
- Federativ davlatlarga misollar keltiring.
- Konfederativ davlatlarga misollar keltiring.
- Federativ va konfederativ davlatlarning ayrim paytlarda parchalanib ketishiga nimalar sabab bo'ladi deb o'ylaysiz?

8- mavzu

Siyosiy tartibot (rejim). Davlat organlari. Davlat mexanizmi

Davlatning shakllari



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Demokratiya so‘zini ko‘p marta eshitgan bo‘lsangiz kerak. Bu so‘zning mohiyati haqida hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Fikringizni sinfdoshlarining bilan o‘rtoqlashing.
2. “Nodemokratik” atamasining mag‘zini chaqishga harakat qiling. Bunda so‘zning tarkibiga e’tibor bering.
3. Fashistlar to‘g‘risida ko‘p o‘qigansiz yoki filmlar tomosha qilgansiz. Fashistlarning xulq-atvoridan kelib chiqib “fashizm” to‘g‘risidagi fikringizni bayon qilib bering.
4. Sobiq ittifoqni ko‘pincha “totalitar davlat” deb nomlashgani qulog‘ingizga chalingandir. Bu nimani anglatishi to‘g‘risida o‘ylab ko‘rganmisiz? Fikringizni bayon qiling.
5. Yuqoridaagi chizmaga qarab nimalarni tushunganingizni ayting.
6. Chizmadagi atamalardan kelib chiqib, har bir davlat shaklini tavsiflashga harakat qiling.

Davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari va uslublari tizimiga **siyosiy tartibot** deyiladi. Mamlakatdagi siyosiy vaziyat, ya’ni jamiyatdagi siyosiy erkinlik darajasini aynan siyosiy tartibot belgilaydi. Biror bir mamlakatdagi siyosiy tartibot haqida gapirilganda, birinchi galda ushbu mamlakatda davlat hokimiysi qay yo‘sunda tashkil qilinganligi, inson huquq va erkinliklarining ta’minlanganligi, siyosiy fikrlar xilma-xilligining holati, aholining ijtimoiy faolligi e’tiborga olinadi. Mamlakatdagi qonuniylik, jinoyatchilikka qarshi

kurash va huquqiy tartibot borasidagi ishlarda qo'llaniladigan usullar ham siyosiy tartibotni aniqlovchi belgilardandir.



Hokimiyat ustida turgan siyosiy kuchlarning davlatni boshqarish-dagi qo'llaydigan usullari va uslublarining yaxlit tizimi siyosiy tartibot deb ataladi.

Siyosiy tartibot asosan ikki xil bo'ladi:

- 1. Demokratik;**
- 2. Nodemokratik.**

Demokratik tartibot sharoitida insonning siyosiy va fuqarolik huquqlari hurmat qilinadi. Fuqarolar davlat hokimiyat idoralarini tuzishda va ularning faoliyatida faol ishtirok etadilar. Demokratik hokimiyatning yagona manbai xalq hisoblanadi.



“Demokratiya” – yunoncha so‘z bo‘lib, “xalq hokimiyati” degan ma’noni anglatadi.

Agar davlatda demokratik tartibot hukmron bo‘lsa, bu davlatda fuqarolar umume’tirof etilgan huquq va erkinliklardan to‘la foydalanadilar, davlat esa ularni har tomonlama kafolatlaydi va himoya qiladi.



*Insonning siyosiy va fuqarolik huquqlari e’tirof etilib, hurmat qilinadigan, davlat boshqaruvi ozchilikning ko‘pchilikka bo‘ysunishi tamoyili asosida amalga oshiriladigan va ozchilikning manfaatlari himoya qilinadigan siyosiy tartibot – **demokratik** siyosiy tartibot deb ataladi.*

Demokratik tartibot belgilari:

- 1) shaxsning iqtisodiy jihatdan erkin bo‘lishi;
- 2) inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarining e’tirof qilinishi va kafolatlanishi;
- 3) davlat boshqaruvi ozchilikning ko‘pchilikka bo‘ysunishi tamoyili asosida amalga oshirilishi;
- 4) hokimiyat vakolatlarining bo‘linishi;
- 5) ijtimoiy hayotda fikrlar xilma-xilligi (pluralizm), ijtimoiy-siyosiy birlashmalarning ko‘pligi;
- 6) qonun ustuvorligi.

Demokratik davlatda g‘oyaviy va siyosiy xilma-xillik konstitutsiya tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, siyosiy partiyalarning faoliyatiga ruxsat etiladi. Siyosiy partiyalar esa oliv va mahalliy hokimiyat idoralariga deputatlarni saylashda ishtirok etish orqali o‘zlarini iloji boricha ko‘proq a’zolarini hokimiyat idoralariga kiritishga harakat qiladilar. Demokratik saylovda g‘alaba qilgan siyosiy partiyalar hukumatni tuzish va o‘z siyosatini o‘tkazish huquqiga ega bo‘ladilar.

Bevosita va vakillik demokratiyalar farqlanadi. Bevosita demokratiyada asosiy qarorlar barcha fuqarolar tomonidan bevosita referendumlar, saylovlar, yig‘ilishlarda qabul qilinadi. Vakillik demokratiyasida esa qarorlar saylov vositasida tarkib toptirilgan siyosiy organlar – qonun chiqaruvchi organlar (Senat, Qonunchilik palatasi), mahalliy kengashlar tomonidan qabul qilinadi.

Demokratiyaga zid tartibot – **nodebekratik tartibot** deb ataladi. Bunday tartibotda davlat idoralari demokratik tamoyillar va qoidalarga rioya etmaydilar. Aksincha, ularni doimo yoki tez-tez buzadilar. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bunday siyosiy tartibotda fuqarolarning huquq va erkinliklari poymol etiladi, qo‘pol ravishda buziladi, ba’zan juda shafqatsizlik bilan muxolifot bartaraf etiladi. Ba’zida esa parlament singari demokratik institutlar yo‘q qilinadi.



*Demokratiyaga zid tartibot – **nodebekratik tartibot** deb ataladi.*

Nodebekratik tartibotlar ichida fashistik va totalitar tartibotlarni alohida ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir.

Fashistik tartibotda hukmronlik qilgan har qanday muxolifot yo‘q qilinadi. Biron-bir irqning hukmronligi e’lon qilinadi. Va nihoyat, boshqa hududlarni bosib olishga harakat kuchayadi. 1933-1945 yillardagi fashistlar Germaniyasi va o‘scha davrdagi fashistlar Italiyasi fashistik tartibotli davlatlarga misol bo‘la oladi.

Yagona partyaning hukmronligi, huquq va erkinliklarning poymol etilishi kabi salbiy xususiyatlarga ega bo‘lgan tartibot – **totalitar tartibot** deyiladi. Totalitar tartibotda o‘zgacha fikrlarga qarshi kurashiladi, saylovchilarning saylovda muqobil deputatlarni saylash imkoniyatlari bo‘lmaydi. Totalitar davlat misoli sifatida sobiq Sovet Ittifoqini keltirish mumkin.

Davlat boshqarishini amalga oshirish maxsus idoralar tomonidan amalga oshiriladi va bu idoralar huquqshunoslik fanida **davlat organlari** deyiladi.



Davlat organi – qonunga muvofiq ravishda o‘z tizimiga, ijtimoiy hayotning muayyan sohasini boshqarish bo‘yicha aniq belgilangan vakolatiga ega bo‘lgan davlat idorasi yoki muassasasi.

Davlat organlari quyidagi turlarga bo‘linadi:

- a) Vakillik organlari: qonun chiqaruvchi, mahalliy xalq deputatlari kengashlari;
- b) Ijroiya organlari: davlat boshlig‘i (prezident, monarx), hukumat, vazirlik va davlat qo‘mitalari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar (prokuratura, ichki ishlar vazirligi va uning organlari, adliya vazirligi va boshqalar);
- c) Mahalliy ijroiya organlari (viloyat, tuman va shahar hokimliklari);
- d) Sud va konstitutsiyaviy nazorat idoraları: Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va uning viloyat (shahar bo‘g‘inlari).

Demokratik davlatda davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi barcha davlat organlari yaxlit tizimni hosil qiladi va bu tizim **davlat mexanizmi** deb yuritiladi.



Davlat mexanizmi – jamiyatni boshqarish va xalq manfaatlarini himoya qilishni amalga oshiradigan davlat organlarining yaxlit tizimi.

Demak, davlat organlari davlat mexanizmining tarkibiy qismlari bo‘lib, ular ijtimoiy hayotning muayyan sohasini boshqarish bo‘yicha zarur vakolatlarga ega. Har bir davlat organi boshqa davlat organlari bilan, ya’ni davlat mexanizmining boshqa tarkibiy qismlari bilan uzviy aloqadadir.



O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

13-modda

1. Konstitutsiyamizning yuqorida keltirilgan moddasining mazmunini hayotiy misollar yordamida yoritishga harakat qiling.

2. O‘zingiz yashayotgan hududdagi Xalq qabulxonalarining faoliyati, respublika va viloyat davlat organlarining “Sayyor qabul”larni tashkil qilishlarining mamlakatimizdagi demokratik islohotlarning namunasi ekanligini asoslashga harakat qiling.

Hikmatlar xazinasidan!

Podshoh o‘zlarini adolat bilan bezatishlari kerak, xalq bunday podshohga ehtirom ko‘rsatishi zarur.

(*Abdulloh Muqni’*)

Ijodiy faoliyat

1. *Tuzgan shartli davlatingizda qanday siyosiy tartibot mavjudligini aniqlang. Bunda sinfdoshlarining tuzgan shartli davlatlaridagi siyosiy tartibotlarning har xil bo‘lishini ta’minlashga harakat qiling.*
2. *Siyosiy tartibot jihatidan bir xil bo‘lgan shartli davlatlari bor guruh muqobil guruhga davlatidagi siyosiy tartibotni tavsiflab bersin.*
3. *Muqobil guruh bu davlatning kamchiliklarini topishga harakat qilsin.*
4. *Shartli davlatingiz davlat mexanizmi tarkibiga qanday davlat organlari kirishini yozib ko‘rsating.*

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Siyosiy tartibot nima?
2. Siyosiy tartibot turlarini aytib bering.
3. “Demokratiya” so‘zining lug‘aviy ma’nosi bilan “demokratiya” atamasining mohiyatini taqqoslang.
4. Demokratik tartibotning asosiy belgilarini sanab bering.
5. Demokratik tartibot hukm surayotgan davlatidagi fuqarolarning ahvolini tavsiflab bering. Shunday davlatlarga misol keltiring.
6. Nodemokratik tartibot nima?
7. Totalitar tartibot haqida nimalarni bilasiz?
8. Sobiq Sovet Ittifoqida fuqarolarning siyosiy erkinliklari qay ahvolda bo‘lgan? Huquqlari-chi?
9. Siz davlat organi deganda nimani tushunasiz?
10. Davlat organlari turlarini sanab bering.

Bob bo'yicha umumiylar uchun savollar va topshiriqlar

Atamalarga mos ta'riflarni belgilang.

1. Siyosiy tartibot 5. Davlat organi

2. Davlat

6. Davlatning shakllari

3. Jamiyat

7. Davlatning tuzilish shakli

4. Davlatning funksiyalari

8. Davlat mexanizmi

a) – uning ma'muriy-hududiy tashkil etilishidir.

b) – davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari va uslublari tizimi.

d) – muayyan hududda yashovchi, o'z ehtiyoji va manfaatlariga ko'ra birlashgan kishilarning ma'lum tarzda tashkil topgan jamoasi.

e) – ommaviy davlat hokimiyati, uning idoralari, aholining ushbu idoralarni shakllantirishda ishtirok etish darajasi.

f) – davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib, ularda davlatning ijtimoiy jihatlari ro'yobga chiqariladi.

g) – qonunga muvofiq ravishda o'z tizimiga, ijtimoiy hayotning muayyan sohasini boshqarish bo'yicha aniq belgilangan vakolatiga ega bo'lgan davlat idorasi yoki muassasasi.

h) – jamiyatni boshqarish va xalq manfaatlarini himoya qilishni amalga oshiradigan davlat organlarining yaxlit tizimi.

i) – hokimiyatga ega, o'z hududidagi insonlarning manfaatlarini himoya qiladigan, xalqaro munosabatlarni amalga oshiradigan mustaqil siyosiy tashkilot.

Bob yuzasidan namunaviy testlar

- 1. “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi” qachon qabul qilin-gan?**
a) 1948- yil 10- dekabrda; b) 1946- yil 10- dekabrda;
d) 1991- yil 18- noyabrda; e) 1945- yil 18- noyabrda.
- 2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining kirish qismi nima deb ataladi?**
a) Asosiy prinsiplar; b) Muqaddima;
d) I bo‘lim; e) Xotima.
- 3. Davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari va uslublari tizimi-ning yuridik atamasini ko‘rsating.**
a) Davlatning boshqaruv shakli; b) Davlatning tuzilish shakli;
d) Davlat funksiyasi; e) Siyosiy tartibot.
- 4. “Suverenitet” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?**
a) Davlatning o‘z ichki hayotida boshqa davlatlardan mustaqilligini;
b) Davlatning o‘z ichki hayotida va tashqi munosabatlarida boshqa davlatlardan mustaqilligini;
d) Davlatning o‘z ichki hayotida va boshqa davlatlar bilan munosaba-tida qaramligini;
e) Davlatning boshqa davlat tarkibida ekanligini.
- 5. O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi qachon e’lon qilingan?**
a) 1990- yil 20- iyunda; b) 1991- yil, 31- avgustda;
d) 1992- yil, 10- dekabrda; e) 1992- yil, 8- dekabrda.
- 6. “Demokratiya” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?**
a) Xalq hokimyatchilagini; b) Prezident boshqaruvini;
d) Yakka hokimlik; e) Mustaqillik.
- 7. Konstitutsiyada mustahkamlanganidek, O‘zbekiston bu – ...**
a) suveren demokratik respublika;
b) mustaqil demokratik respublika;
d) mustaqil xalq-demokratik respublikasi;
e) suveren, mustaqil demokratik respublika.
- 8. Boshqaruv shakliga ko‘ra davlatlarning qanday turlari mavjud?**
a) Monarxiya, Unitar; b) Respublika, Federatsiya;
d) Monarxiya, Respublika; e) Federatsiya, Konfederatsiya.

«Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak» degan prinsip barcha bo‘g‘indagi rahbarlar faoliyatida asosiy qoidaga aylanishi kerak.

Shavkat Mirziyoyev

II BOB FUQAROLIK JAMIYATI VA HUQUQIY DAVLAT



Fuqarolik jamiyat

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining asoslari

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish

Huquqiy davlat

Huquqiy davlatning asosi belgilari



9- mavzu

Fuqarolik jamiyati



Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida, “Talxis-u navomisi Aflatun” (“Aflatun qonunlari mohiyati”) nomli asarga asoslanib shunday deydi: “Aflatunning aytishicha, eng mushkul ish qonunni joriy qilishdir. Qonunga shubha bilan qarash hamda qonun ustidan arz qilish esa eng oson ishdir. Xalq qonunlarga ehtiyoj sezishi va ularni o‘rganishi zarur, chunki ular keyinchalik xalqning o‘ziga foyda keltiradi”.

Adolatli jamiyat asosiy yo‘llarini Forobiy quyidagicha bayon etib bergan:

- ♦ Fozil (12 xislatni o‘zida aks ettirgan) davlat rahbari va davlat a’zolarining bo‘lishi;
- ♦ Qonun-qoidalarning mavjudligi va ularga davlat rahbarlarining va barcha aholining bo‘ysunishi;
- ♦ Ilm-fanning taraqqiy etishi;
- ♦ Insonlarda yaxshi axloq va xulqning shakllanganligi;
- ♦ Davlat urush va bosqinchiliklarga qarshi bo‘lmog‘i, mamlakatda tinchlik, barqarorlikning o‘rnatalishi.

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. “Fozil odamlar shahri” asarida Abu Nasr Forobiyning adolatli jamiyatning asosiy belgilari hozirgi zamon jamiyatida mavjud bo‘lsa, bunday jamiyatda yashayotgan fuqarolarni baxtli fuqarolar deb atash mumkin bo‘larmidi?
2. “Fuqarolik jamiyati” atamasini ko‘p marta eshitgansiz. Mana shu atama nimani anglatishi haqida o‘ylab ko‘rganmisiz. O‘ylab ko‘rgan bo‘lsangiz ushbu atamaning mazmuni haqida o‘z taxminlaringizni bildiring.
3. “Fuqarolik jamiyati har qanday jamiyat a’zolarining azaliy orzusidir” degan fikr doimo aytildi. Mana shu fikrning haqiqatligini Abu Nasr Forobiyning yuqoridagi asaridan keltirilgan par chadan foydalanib isbotlab berishga harakat qiling.

Fuqaro va fuqarolik haqidagi tasavvurlar paydo bo'lgan davrlardan boshlab fuqarolarning umumiy uyushmasi sifatida jamiyat tushunchasi yuzaga keldi. Bu tushuncha avvalo, Sharqda, jumladan, qadimgi Bobilda "Hammurapi qonunlari", qadimgi Turonda "Avesto" siyosiy va huquqiy-axloqiy ta'limoti bilan bog'liq otashparastlik, ya'ni zardushtiylik davrida, keyinchalik qadim Ellada va Rimda paydo bo'ldi.

Fuqarolik jamiyatini tasavvur qilishni osonlashtirish uchun uning asosiy belgilarini sanab o'tish maqsadga muvofiqdir. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari quyidagilardan iboratdir:

- turli mulkchilik shakllarining mavjudligi;
- barcha mulkchilik shakllariga bir xilda munosabatda bo'linishi, ya'ni mulkchilik shakllarining qonun doirasida tengligi;
- erkin mehnat qilish va kasb tanlash imkoniyati;
- tadbirkorlikka keng imkoniyatlar yaratilganligi;
- siyosiy erkinliklarning mavjudligi;
- fikrlar xilma-xilligi va axborot erkinligining mavjudligi;
- inson huquq va erkinliklarining kafolatlanganligi;
- o'zini-o'zi boshqarish organlarining rivojlanganligi;
- adolatli huquqiy hokimiyatning mavjudligi;
- huquq ustuvorligining ta'minlanganligi.



Fuqarolik jamiyatı – komil fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lgan hamda axloqiy, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyat.

Fuqarolik jamiyatı uning a'zolari bo'lmish fuqarolarning o'zları tomonidan boshqarilib turiladigan va qat'iy qaror topgan jamiyat. Bunday jamiyat o'zini-o'zi yuksak darajada tashkil etishi bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyatiga davlat jamiyatning nazoratida bo'lishi kerak, chunki davlat fuqarolik jamiyatining "yollanma xizmatkori"dir. Bunday jamiyat nafaqat o'zining siyosiy, madaniy hayotini, balki iqtisodiy, ijtimoiy hayotini ham o'zi boshqarib turadi.

Hamma jamiyatlar ham fuqarolik jamiyatı emas. Fuqarolik jamiyatı yuksak darajadagi ijtimoiy rivojlanish belgisi desak to'g'ri bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatini to'laqonli ravishda tasavvur qilish uchun uning xususiyatlarini bilish katta ahamiyatga egadir. Fuqarolik jamiyatining

xususiyatlari iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy va ma’naviy sohalarda yaqqol o‘z ifodasini topadi.

Fuqarolik jamiyatining xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Iqtisodiy sohada: nodavlat notijorat tashkilotlarning, shirkatlarning, aksiyadorlik kompaniyalarining, korporatsiyalarning, firmalarning mavjudligi va ularning muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishlari uchun barcha sharoitlarning yaratilganligi.

Ijtimoiy-siyosiy sohada: fuqarolar, oilalar, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ijtimoiy harakatlar, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy qarama-qarshiliklarni qonun doirasida yechish imkoniyatlari, aholi fikrini o‘rganish, shakllantirish va ifoda etish uchun shart-sharoitlarning mavjudligi.

Ma’naviy sohada: so‘z va fikr erkinligi, vijdon erkinligi, ijodiy uyushmalarning mustaqilligi, ilmiy uyushmalarning mustaqilligi, ma’naviy tahdidlardan himoyalanganlikning ta’minlanganligi.

Hozirgi zamonda fuqarolik jamiyat sharoitidagi hayot huquqqa asoslangan hayot bo‘lmog‘i shartdir. Chunki, fuqarolik jamiyatida huquq yuksak darajada taraqqiy etgan bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyat sharoitida shaxsning boshqa shaxs bilan yoki davlat bilan o‘zar o‘sishlari huquqiy normalarga asoslangan bo‘lishi, ya’ni ushbu munosabatlar huquqiy maydonda amalga oshirilishi talab etiladi.

Fuqarolik jamiyat, davlatning tazyiqisiz, qonun doirasida vujudga kelgan muayyan kishilik jamiyatining ixtiyoriy o‘zini-o‘zi boshqarishi deb tushuniladi. Aynan fuqarolik jamiyatini rivojlantirish respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadidir.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining quyidagi belgilari mavjud:

1. Siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlar. 2. Jamoat tuzilmalari.
3. Nodavlat notijorat tashkilotlar. 4. Ta’lim-tarbiya muassasalari. 5. Diniy tashkilotlar. 6. Milliy-madaniy markazlar. 7. Jamoatchilik fikrini o‘rganish tashkilotlari. 8. Oila hamda uning manfaatlarini aks ettiruvchi maxsus tashkilotlar. 9. Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari. 10. Ommaviy axborot vositalari. 11. Demokratik saylov tizimi.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda **fuqarolik institutlarining** roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy

muammolarini hal etishga qaratilgan qonun hujjatlari qabul qilingani va qilinayotgani, minglab **nodavlat notijorat tashkilotlarning** faoliyat ko'rsatib kelayotgani, jumladan, siyosiy partiylar, kasaba uyushmalari, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi, "Sog'lom avlod uchun", "Nuroniy" jamg'armalari, "Ijod" fondi, O'zbekiston yoshlar ittifoqining faoliyati mamlakatimizda fuqarolik jamiyati rivojlanayotganligining yaqqol isbotidir. 2018- yil 1- iyul holatiga ko'ra, mamlakatimizda Adliya vazirligining ro'yxatidan o'tgan fuqarolik jamiyati institutlari soni 9.478 tani tashkil etadi.

O'zbekistonda fuqarolarining o'zini-o'zi boshqarish tuzilmalari mavjud bo'lib, bunda **mahalla** alohida ahamiyatga ega. Yashash joyidagi milliy o'zini-o'zi boshqarishning o'ziga xos modeli bo'lgan mahalla, xalqimizning asriy an'analari va urf-odatlariga tayanib, muhim tashkiliy-iqtisodiy va tarbiyaviy funksiyalarini bajaradi.

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan **inson huquqlari** bo'yicha tashkilotlar ham fuqarolik jamiyati institutlariga misol bo'la oladi. Ular quyidagilardir: Ombudsman; Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz; "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markaziva boshqalar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rollini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashining tuzilishi "uchinchchi sektor" deb nom olgan fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash va mamlakatimizda fuqarolik jamiyati rivojini yangi bosqichga olib chiqishda muhim qadam bo'ldi.

So'nggi yillarda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlanishga qaratilgan qator **qonunchilik hujjatlari** qabul qilindi. Bu qonunchilik hujjatlarining qabul qilinishi:

- fuqarolik jamiyati institutlarini tashkil qilish va rivojlantirish;
- ularning mustaqilligini va to'laqonli faoliyat ko'rsatishi uchun qonunchilik sharoitini yaratish; ularning moddiy-texnikaviy ta'minotini yo'lga qo'yish;
- ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish;
- ularning davlat va hokimiyyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan nazoratini amalga oshirishdagi rollini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Huquqning ustuvorligi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim elementidir.

Bag‘rikenglik va hamkorlikda ish olib borish o‘zbek xalqining mentalitetiga xosdir. Umid bildirish mumkinki, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ayni mana shu xususiyatlar yetakchilik qiladi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining taraqqiy topishini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

- 1) Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish;
- 2) Ko‘ppartiyaviylik tizimini rivojlantirish;
- 3) Ishlab chiqarishni yuksaltirish;
- 4) Maqbul ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish.

O‘zbekistonda yoshlar fuqarolik jamiyatni ijtimoiy negizining o‘zagini tashkil etishi lozim.

Fuqarolik jamiyatni sharoitida davlat va shaxs huquqning teng subyektlari sifatida faoliyat yuritadilar. Bu esa, o‘z navbatida huquqiy demokratik davlat sharoitidagina yuz berishi mumkin bo‘lgan holatdir.

Bundan xulosa qilish mumkinki, fuqarolik jamiyatida davlat tomonidan muayyan kafolatlar tizimi tashkil etilishi lozim. Hozirgi paytda O‘zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan qonun, farmon va farmoyishlar tizimi ana shunday tizimlarga misol bo‘la oladi.

Hikmatlar xazinasidan!

Adolat – oxiratda najot, dunyoda saodat boshi.

(Ali ibn Abu Tolib)

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Fuqarolik jamiyatini qanday ta’riflash mumkin?
2. Fuqarolik jamiyatni qanday belgilari bilan ajralib turadi?
3. Fuqarolik jamiyatining xususiyatlarini sanab bering.
4. Fuqarolik jamiyatni sharoitida davlatning roli qanday bo‘ladi?
5. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining qanday belgilari mavjud?
6. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining qanday institutlari mavjud?
7. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

10- mavzu**Huquqiy davlat**

Quyidagi uch xil davlat ta'riflarini o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

1- davlatda: Yagona siyosiy va iqtisodiy tizim mavjud. Bu davlatda boshqarish markazdan yetkaziladigan qat'iy qonun, farmon, qaror va rejalar asosida amalga oshiriladi. Bu hujjatlarda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda barcha fuqaro va tashkilotlarning qanday faoliyat bilan shug'ul-anishi kerakligi aniq belgilab berilgan. Ko'rsatmalarni buzganlik uchun qanday jazo choralar ko'riliши ham aniq ko'rsatilgan.

2- davlatda: Rivojlanish dastur rejalarini xalq tomonidan saylangan parlamentda ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Farmonlar va qarorlar bilan bir qatorda ana shu parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar ham mavjud. Lekin bu qonunlar ijrosi ustidan xalq nazorati o'rnatilmagan.

3- davlatda: Davlat hokimiysi uchga bo'linadi:

- 1) qonun chiqaruvchi;
- 2) ijro etuvchi;
- 3) sud hokimiysi.

Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonunchilik tamoyillari asosida amalga oshiradi.

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. *Siz uchala davlatning umumiy jihatlarini ko'rsata olasizmi? Farqlarinichi? Ularni ajratib yozing.*
2. *Bu davatlardagi hokimiyatning samarali va adolatli faoliyat ko'rsatishi uchun qanday asoslar mavjud deb o'ylaysiz?*
3. *Siz yashash uchun qaysi davlatni tanlar edingiz? Nima uchun?*
4. *Huquqiy davlat atamasining ma'nosi to'g'risida nima deya olasiz?*

5. Sizning huquqlaringiz buzilmasligi uchun siz qanday kafolatlarga ega bo‘lishingiz kerak deb o‘ylaysiz?
6. Saylovlar to‘g‘risida kattalardan eshitgansiz. Aytingchi, nima uchun saylovlarga bu qadar katta e’tibor beriladi va kattalar saylovlarga birov majbur qilmasa ham o‘zları ixtiyoriy ravishda boradilar?

Dunyoda mavjud davlatlar bir-biridan juda ko‘p jihatlari bilan farq qiladi. Bu farqlar bilan bir paytda ularning o‘xhash tomonlari ham ko‘p. Mana shu o‘xhash tomonlari, ya’ni umumiy xususiyatlariga asoslanib davlatlarni tasniflash mumkin.

Davlatning huquqqa bo‘lgan munosabatiga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin.

1. Etatik;
2. Huquqiy davlat.

Etatik davlatta:

- 1) Qonun o‘rnini ko‘pincha qat’iy buyruq va farmoyishlar egallaydi;
- 2) Davlat o‘z fuqarolari siyosiy birlashmalari va tashkilotlarining erkinliklarini qat’iy cheklab qo‘yadi;
- 3) Davlat iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni va hatto fuqarolarning shaxsiy hayotini ham o‘z boshqaruvi ta’siriga olishga intiladi;
- 4) Davlat organlari va mansabdar shaxslariga haddan tashqari ko‘p vakolatlar beriladi.

Etatik davlatga misol qilib Kuba, sobiq Sovet Ittifoqini keltirish mumkin. Shuningdek, barcha totalitar va avtoritar tuzumdagи davlatlar ham bunga misol bo‘la oladi.

Huquqiy davlatda davlat boshqaruvi huquqning ustuvorligiga asoslanadi. Bunda davlat boshqaruvi fuqarolar va ijtimoiy munosabatlar subyektlarining huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta’minlashni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.



Huquqiy davlat – huquqning ustuvorligi hamda sud mustaqilligi ta’milanadigan, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanadigan, davlat hokimiyati vakolatlar bo‘linishi tamoyili asosida amalga oshiriladigan demokratik davlatdir.

Huquqiy davlatning assosiy belgilari quyidagilar:

1. Huquqning ustuvorligi.

Mamlakatdagi barcha shaxslar – fuqarolar, chet el fuqarolari, fuqaro bo‘limgan shaxslar, mansabдорлар hammasi qonun talablariga bo‘ysunadilar. Bunda, Konstitutsiya huquqiy normalar tizimida oliy yuridik kuchga egadir.

2. Inson huquqlari va erkinliklarining ta’milanganishi va himoyalananishi.

Inson, uning hayoti, sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari hamda manfaatlari oliy qadriyat ekanligi.

3. Davlat va fuqaroning bir-birlari oldida o‘zaro mas’uliyati.**4. Hokimiyatning qonuniyiligi.**

Hokimiyat demokratik saylovlar yo‘li bilan shakllantiriladi. Davlat hokimiyat mamlakatning ichkarisida va xalqaro miqyosda tan olinadi.

5. Hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi.

Davlat hokimiyat: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiylariga bo‘linadi. Davlat hokimiyat vakolatlari mana shu uchala hokimiyat o‘rtasida taqsimlanadi.

6. Sudning mustaqilligi.

Sudning faoliyatiga hech kim aralasha olmaydi. Sudlar faqat qonun talablariga bo‘ysunadi.

7. Huquqni muhofaza qilish mexanizmining samarali ishlashi.

Ular inson huquq va erkinliklarini lozim darajada himoya qilishi kerak.

8. Yuqori darajadagi huquqiy madaniyat.

Huquqiy madaniyat amaldagi qonunlarni bilish, ularni hurmat qilish va ularga rioya qilishda namoyon bo‘ladi.

9. Demokratiyaning rivojlanganligi va takomillashganligi.

Xalq davlat boshqaruvida qatnashadi, siyosiy huquqlar va erkinliklar kafolatlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak:

- huquqning barcha subyektlari, shu jumladan, davlat organlari, mansabдор shaxslar va oddiy fuqarolar qonunlarga qat’iy rioya etishlari;
- fuqaro va davlatning qonunlar doirasida bir-birlari oldida o‘zaro mas’ullig;
- siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy ko‘p fikrlilik davlat tomonidan qonuniylashtirilganligi va kafolatlanganligi;
- fuqorolarning huquq va erkinliklarining ta’milanganligi huquqiy davlatning afzalliklaridandir.

Mana shuning uchun ham jahoning eng ilg‘or mamlakatlarida huquqiy davlat barpo qilish ustuvor vazifa qilib qo‘yilgandir.

Davlatning uchinchi oraliq turi ham mavjud bo‘lib, ular ushbu ikkala davlat xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradilar. Bu davlatlarning ba’zilari o‘z xususiyati, tabiati va yo‘nalishi bo‘yicha etatik davatlarga, ba’zilari esa huquqiy davlatga yaqin tursalarda, ayrim jihatlari bilan ulardan farqlanadilar.



O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirot etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirot etish o‘zini-o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat o‘rganlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

32- moddadan.

1. Konstitutsiyaning yuqoridagi moddasi davlatning qanday turiga xos deb o‘laysiz?
2. Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlari huquqiy davlatning qaysi xususiyatlariga mos keladi?



Bizning faoliyatimiz eng muhim konstitutsiyaviy qoidaga – ijtimoiy adolat tamoilining ta’milishiga qaratilishi shart.

Jamiyatda ijtimoiy adolat ta’milishini qaror topdirish borasidagi asosiy vazifamiz – bu adolatli qonunlar qabul qilishdan iborat.

Shavkat Mirziyoyev

1. Prezidentimizning yuqoridagi fikrida huquqiy davlatning asosiy belgilariidan qaysilari o‘z aksini topgan?
2. Huquqiy davlat sharoitida ijtimoiy adolatning ahamiyati haqida o‘z fikringizni bildiring.
3. Atrofimizdaga hayotdan Prezidentimizning yuqoridagi so‘zlarini tasdiqlovchi misollar keltiring.

Bob bo'yicha umumiylash uchun savollar va topshiriqlar

1. Huquqqa nisbatan munosabatiga qarab davlat qanday turlarga ajratilishi mumkin?
2. Etatik davlat qanday davlat ekanligini tasvirlab bering.
3. Qanday davlatga huquqiy davlat atamasini qo'llash mumkin?
4. Huquqiy davlatning asosiy belgilarini sanab bering.
5. Davlatning oraliq turiga kirgan davlatlarning qanday o'ziga xos tomonlari mavjud?
6. "Fuqarolik jamiyati" atamasining "jamiyat" atamasidan qanday farqlari bor?
7. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida adolatli jamiyatni qanday tavsiflaydi? Shu tavsifni fuqarolik jamiyati belgilari bilan taqqoslab ko'ring. Fikringizni bayon qiling.
8. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining qanday unsurlari (elementlari) shakllanib bormoqda?
9. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishining qanday o'ziga xos tomonlari mavjud?

Atamalarga mos ta'riflarni belgilang.

1. Huquqiy davlat

3. Davlatning oraliq turi

2. Etatik davlat

4. Fuqarolik jamiyati

a) – davlat boshqaruvi buyruq va farmoyishlarga asoslangan, fuqarolarning va tashkilotlarning erkinliklari cheklangan davlatdir.

b) – huquqning hukmronligi ta'minlangan, insonning huquqlari va erkinliklari kafolatlangan, hokimiyat vakolatlari bo'lingan davlatdir.

d) – ham huquqiy davlatning, ham etatik davlatning belgilarini ma'lum darajada o'zida mujassamlangan davlat turidir.

e) – komil fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lgan hamda axloqiy, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir.

Bob yuzasidan namunaviy testlar

- 1. Siyosiy partiylar tuzish va ularning ishida ishtirok etish fuqarolarning qanday huquqi hisoblanadi?**
a) Iqtisodiy huquqlari; b) Ijtimoiy huquqlari;
d) Siyosiy huquqlari; e) Shaxsiy huquqlari.
- 2. O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiylar to‘g‘risida”gi qonuni qachon qabul qilingan?**
a) 1991- yil 1- noyabrda;
b) 1994- yil 18- fevralda;
d) 1997- yil 26- dekabrda;
e) 1996- yil 26- dekabrda.
- 3. Mamlakatda mehnat qilayotgan aholining huquqlarini davlat tashkilotlari bilan bir qatorda himoya qiluvchi eng ommaviy jamoat birlashmasi nima deb ataladi?**
a) Siyosiy partiya;
b) Ijodiy uyushma;
d) Kasaba uyushmalari;
e) Faxriylar tashkilotlari.
- 4. Davlatning huquqqa bo‘lgan munosabatiga qarab quyidagi turlari mavjud:**
a) etatik, qonuniy va huquqiy; b) huquqiy, fuqarolik va etatik;
d) etatik, huquqiy va oraliq; e) fuqarolik, etatik va oraliq.
- 5. Davlatning tazyiqisiz, qonun doirasida vujudga kelgan muayyan kishilik hamjamiyatining ixtiyoriy o‘zini-o‘zi boshqarishi ... ni anglatadi?**
a) huquqiy davlat; b) jamiyat;
d) fuqarolik jamiyat; e) erkin mamlakat.
- 6. Huquqiy davlatda davlat boshqaruvi ... asoslanadi.**
a) qat’iy qonunlarga; b) parlament nazoratiga;
d) ijro etuvchi hokimiyat qarorlariga; e) huquqning ustuvorligiga.
- 7. Asosiy qonun nima?**
a) Konstitutsiya; b) Prezident farmoni;
d) Hukumat qarori; e) Oliy Majlis qonuni.

Bizning maqsadimiz – xalq hokimiyatini so'zda emas, amalda ta'minlashdan iborat. Bu – biz yashayotgan bugungi murakkab davrning asosiy talabidir.

Shavkat Mirziyoyev

III BOB

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOSHQARUVINING TASHKIL ETILISHI



*Mustaqil O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi
O'zbekiston Respublikasining Prezidenti
O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi organ
O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlari
O'zbekiston Respublikasi sud tizimi*



11- mavzu

O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi



4 Мурожаатчининг шахсий кабинети



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

- 1-3- rasmlardagi davlat idoralari qanday faoliyat bilan shug‘ullanadi deb o‘ylaysiz?
2. Bu idoralar kimning manfaatini ko‘zlab faoliyat yuritadilar?
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini va Virtual qabulxonasi to‘g‘risida nimalarni eshitgansiz? Ularga kimlar, qanday masalalar bilan murojaat qiladilar deb o‘ylaysiz?
4. Fuqaro ijtimoiy yoki huquqiy muammoga duch kelganida birinchi navbatda qaysi idoraga murojaat qilishi kerak? Bunday muammolarga misollar keltiring va har bir xususiy holda fuqaro qaysi idoraga murojaat qilishi lozimligini tahlil qilib ko‘ring.
5. Fuqarolarning muammolarini yechish bilan shug‘ullanadigan yana qanday davlat idoralarini bilasiz?

6. Agar mana shunday idoralar bo‘lmaganida fuqarolar va tashkilotlar qanday qiyinchiliklarga duch kelar edi?

O‘zbekiston Respublikasida “xalq – hokimiyatning birdan bir manbai” ekanligi konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan. Ushbu ta’kid davlat huquqiy faoliyatning mazmunini, uning asosini tashkil qiladi. Davlat hokimiyatining xalq manfaatlarini ko‘zlab o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yishi konstitutsiyada qat’iy belgilangan, davlat hokimiyati zimmasiga qo‘yilgan bosh vazifadir.

Davlat hokimiyatining faoliyati xalq hokimiyatini amalga oshirishning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Ushbu faoliyat, avvalambor, konstitutsiya va qonunlar bilan belgilangan tartibda davlatning Konstitutsiyada belgilangan organlari va mansabдор shaxslari tomonidan amalga oshiriladi. Ular ham o‘z navbatida vaqtı-vaqtı bilan o‘tkaziladigan saylovlar orqali tarkiban shakllanib yoki almashib turadi.

O‘zbekiston suverenitetining huquqiy asosi – Asosiy qonuni **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi** bo‘lib, ushbu hujjat O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n ikkinchi chaqiriq XI sessiyasida, 1992- yil 8- dekabrda qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson huquqlari va erkinliklariga oid xalqaro hujjatlar, jumladan, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”, rivojlangan demokratik davlatlarda mavjud bo‘lgan demokratik tamoyillar va qadriyatlar, vatanimiz tarixidagi bir necha ming yillik milliy va sharqona davlatni idora etish an’analarini o‘zida mujassamlashtirdi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasi suveren O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotining muhim tomonlarini konstitutsiyaviy jihatdan tartibga solishning umumiyligi prinsiplarini mustahkamladi, davlat boshqaruving mohiyatini belgilab berdi.

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o‘zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to‘xtatib qo‘yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

Davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi.


Konstitutsiya konstitutsiyaviy tuzumning asosiy shartlaridan biri bo‘lmish xalq hokimiyatichiligin mustahkamlab beradi.

Konstitutsiyada O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati oliy organlarining tuzilishi, hokimiyatlarning bo‘linish prinsipi asoslab berilgan.



**O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi
hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi.**

11- modda.



Hokimiyat vakolatlarini taqsimlash prinsipi – huquqiy davlatning eng muhim belgilaridandir. Bu prinsip barcha rivojlangan demokratik davlatlarda amal qiladigan asosiy konstitutsiyaviy qoidalardan biridir. Bu har xil mamlakatlar konstitutsiyalarida shunchaki belgilab qo‘yilgan oddiy demokratik qoida emas, balki hokimiyatning bir organda to‘planishining oldini olishga qaratilgan konstitutsiyaviy qoidadir. Chunki, ko‘p asrlik davlatchilik taraqqiyoti tajribalari shuni ko‘rsatdiki, hokimiyat bir organda to‘planganida jiddiy suiiste’ molliklar yuz berishiga sharoit tug‘iladi.

Hokimiyat bo‘linishida konstitutsiyaviy prinsip qo‘llanib, davlat boshqaruvi islohoti amalga oshirilar ekan, mamlakatimizda quyidagi qoidalarga amal qilindi:

1. Mamlakatimizda hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlari o‘zaro yagona davlat mexanizmi sifatida o‘zaro bog‘liqlikda faoliyat ko‘rsatishlari bilan bir paytda, ular nisbatan mustaqil hamdir;

2. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud funksiyalarini bajaruvchi respublika miqyosidagi davlat organlari o‘rtasida hokimiyat vakolatlarining muayyan nisbati mavjud. Ya’ni ularning vakolatlari muvoza-

natlashgandir. Mana shu muvozanatni saqlash uchun huquqiy islohotlar amalga oshirib turiladi.



O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

106- modda.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi... Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir ...

98- moddadan.

Davlat boshqaruvining yuqori respublika miqyosidagi organlari o'zlarining quyi – mahalliy organlari bilan ham chambarchas bog'liqlikda ish olib boradilar. Davlat boshqaruvining mahalliy organlari faoliyatining muhimligi, avvalambor, ularning fuqarolar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va tashkilotlar bilan bevosita ishlashlaridir. Shuning uchun ham davlat boshqaruvining mahalliy organlari faoliyatiga mamlakatimizda alohida e'tibor berilmoqda.

Konstitutsiyamizning yana bir demokratik jihatni, jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunlarda davlat va fuqaro o'rtaсидаги doimiy siyosiy-huquqiy aloqa belgilab qo'yilgan.

So'nggi yillarda mamlakatimiz davlat boshqaruvida misli ko'rilmagan islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakat hayotiga doir har bir qaror xalq bilan muhokama qilinganidan so'ng qabul qilinmoqda. Bunda muhokamalar bevosita muloqot tarzida o'tkazilayotgani diqqatga sazovordir.

Mamlakatimiz davlat boshqaruvida shunday amaliyot yo'lg'a qo'yildiki, unga ko'ra, davlat xodimlari, birinchi rahbarlardan tortib, o'z kabinetlarida o'tirmasdan, joylarga borib, aholining eng og'riqli va dolzarb muammolarining amaliy yechimi bilan shug'ullanmoqda.

Mamlakatimizda xalq bilan muloqot qilish, uning hayotiy muammolarini hal qilish bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratildiki, bu

tizim davlat boshqaruvining muhim bo‘g‘ini sanaladi. Bu tizimning asosi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi xizmat qiladi.

Hikmatlar xazinasidan!

Boshsiz mamlakat jonsiz tanaga o‘xshaydi. Bejon tanning ahvoli vayronalikka yaqindir. (Amir Temur)

Ijodiy faoliyat


O‘zingiz tuzgan shartli davlatingizning davlat boshqaruvi tizimini hokimiyatlar bo‘linishi prinsipiiga asoslangan holda sxematik ravishda tas-virlang. Bunda, davlat boshqaruvining yuqori organlari bilan bir qatorda, mahalliy organlarini ham o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rsating. O‘zingizning shartli davlatingizning boshqaruvi tizimini sinfdoshlarining shartli davlatlari boshqaruvi tizimlari bilan taqqoslang.

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Davlat boshqaruvi nima?
2. Davlat boshqaruvining mamlakat fuqarolari uchun qanday ahamiyati bor?
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat boshqaruvi haqida nimalar yozilgan?
4. Hokimiyatlar bo‘linishi konstitusiyaviy prinsipi haqida nimalarni bilasiz?
5. Mamlakatimizda davlat boshqaruv tizimi islohotlarida qanday qoidalarga amal qilinishi lozim?
6. Qonun chiqaruvchi hokimiyat tarkibini aytib bering. Ijro etuvchi hokimiyat-chi? Sud hokimiyati-chi?
7. Ularning asosiy vazifalarini aytib bering.
8. O‘zbekiston davlat hokimiyati jihatidan huquqiy davlat talablariga javob beradimi? Javobingizni asoslang.

12- mavzu

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Davlatga rahbar nima uchun zarur deb o'ylaysiz? Agar biror-bir mamlakatda davlat rahbari umuman bo'lmasa, bu mamlakatda qanday hol yuz berishi mumkinligini tasavvur qila olasizmi? Bunday holatni o'rtoqlaringiz bilan muhokama qiling va muhokama davomida aytilgan fikrlardan foydalanib "Mamlakat uchun davlat

rahbari nima uchun zarur?” degan savolga javob berishga harakat qiling.

2. *Yuqorida Prezidentimizning kitoblari tasvirlari berilgan. Kitoblarning nomlarini diqqat bilan o‘qing. Ushbu kitoblarning nomlaridanoq Prezidentimizning siz va bizga, butun xalqqa, Vatanga bo‘lgan munosabati, ezgu istaklari, intilishlarini payqab olish qiyin emas. Ayting-chi, Prezidentimizning sa'y-harakatlari, faoliyati bo‘yicha qanday ma'lumotlarga egasiz?*
3. *Prezidentimiz o‘z faoliyatini siz va bizning ko‘z o‘ngimizda, ochiq-ravshan amalga oshirmoqda. Mana shundan foydalanib uning faoliyati doirasi mamlakatimiz hayotining qaysi sohalarini qamrab olishini sanab bering. Bunda, ommaviy axborot vositalaridan olgan ma'lumotlaringizdan foydalaning.*
4. *Siz Prezident saylovi haqida nimalarni bilasiz? Bilganlaringizni sinfdoshlaringiz bilan o‘rtoqlashing.*
5. *Prezident o‘z faoliyatini qanday huquqiy hujjatlar asosida yuritadi deb o‘ylaysiz?*

Bizning mamlakatimizda **Prezident davlat boshlig‘i** hisoblanadi. Prezident xalqimiz tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylangani uchun davlat nomidan, xalq nomidan ish yuritish Prezidentimizning birlamchi vakolati hisoblanadi.



Prezident – so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosi “oldinda o‘tiruvchi” demakdir.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiyligi teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan besh yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi O‘zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat hokimiyyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi. Prezident O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig‘ilishida qasamyod qabul qilgan paytdan boshlab o‘z lavozimiga kirishgan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasiga binoan
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti lavozimiga nomzod
bo'lgan shaxslarga quyidagi
talablar qo'yilgan

o'ttiz besh yoshdan kichik
bo'lmasligi kerak

davlat tilini yaxshi bilishi zarur

saylovgacha kamida
10 yil O'zbekiston hududida muqim
yashayotgan bo'lishi kerak

O'zbekiston fuqarosi bo'lishi zarur



**President O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
yig'ilishida quyidagi qasamyodni qabul qilgan paytdan
bosholab o'z lavozimiga kirishgan hisoblanadi:**

**«O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga,
respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga,
fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan
vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman».**

92- modda.

Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga
asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida
majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari:

- fuqarolar huquq va erkinliklari ta'minlanishi hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining kafilidir;
- mamlakat mustaqilligi va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'radi;
- O'zbekiston Respublikasi nomidan mamlakat ichkarisida va xalqaro miqyosda muzokaralar yuritadi, shartnoma va kelishuvlar imzolaydi hamda ularning bajarilishini ta'minlaydi;

- Bosh vazir nomzodini Oliy Majlisga tasdiqlash uchun taqdim qiladi, Vazirlar Mahkamasi tarkibini tasdiqlaydi;
- Bosh prokuror va uning o‘rinbosarlarini lavozimga qo‘yadi va lavozimdan bo‘shatadi;
- Oliy Majlis Senatiga Konstitutsion, Oliy sudlar raislari, ularning o‘rinbosarlari, Markaziy bank raisi nomzodlarini taqdim qiladi;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va undan chiqarish masalalarini hal qiladi;
- Davlat mukofotlari va faxriy unvonlar bilan mukofotlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, shuningdek, Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan bir qator muhim vakolatlarni amalga oshiradi. Vakolati tugashi munosabati bilan iste’foga chiqqan Prezident umrbod Senat a’zosi lavozimini egallaydi.

Prezident O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo‘mondoni hisoblanadi. U Qurolli Kuchlarning oliv qo‘mondonlarini vazifasiga tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, harbiy unvonlar beradi.

Prezident zarur paytlarda butun mamlakat bo‘yicha yoki ayrim hududlarda favqulodda vaziyat yoki urush holatini joriy qilish huquqiga ham ega. Bunda uch kun muhlat ichida bunday yechim Oliy Majlisga tasdiqlash uchun taqdim qilinadi.

Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo‘lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yohud ular bir necha marta O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilishi mumkin.



Prezident o‘z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to‘lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo‘lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin emas.

91- modda.

Hikmatlar xazinasidan!

Qudratimizga shak-shubhangiz bo‘lsa, biz qurgan binolarga boqing.
 (Amir Temur)

Ijodiy faoliyat


O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan foydalanib quyidagi jadvalni to‘ldiring.

<i>O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti vakolatlari</i>	<i>O‘zbekiston Respublikasining Prezidentligiga qanday shaxslar saylanishi mumkin?</i>

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qachondan boshlab o‘z faoliyatini boshlashi mumkin?
2. O‘zbekiston Prezidenti lavozimiga qanday fuqarolar saylanishi mumkin?
3. Respublikamizda Prezidentlikka saylov qay tarzda o‘tkaziladi?
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlarini sanab bering.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qanday huquqiy hujjatlar chiqariladi?
6. Vakolati tugagan Prezident qanday faoliyat bilan shug‘ullanadi?
7. Prezident O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida qanday maqomga ega?
8. Favqulodda vaziyatlar tug‘ilganida Prezident qanday vakolatlaridan foydalanishi mumkin?
9. Qanday vaziyatlarda va qay tartibda Oliy Majlisning Qonunchilik palatsasi va Senati tarqatib yuborilishi mumkin?

13- mavzu

O‘zbekiston Respublikasida qonun
chiqaruvchi organ

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Parlament, parlamentarizm kabi iboralarni ko‘p marta eshitgansiz. Ular to‘g‘risida bilganlaringizni bayon qilishga harakat qiling.
2. AQSH Kongressi va Senati, Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasasi va Federatsiya Kengashi kabi atamalarning nimani bildirishi haqida o‘ylab ko‘rganmisiz? Bu atamalar bo‘yicha bilganlaringizni yoki farazlaringizni sinfdoshlaringiz bilan o‘rtoqlashing.
3. Sizning fikringizcha, zarur qonunlarni asosiy ishi qonunlar tayyorlash bo‘lgan professional deputatlar yozishi kerakmi, yoki, asosiy ish joyidan bir yilda bir necha marta qonun yozish uchun vaqt ajratib, vaqtinchalik qonunshunoslik bilan shug‘ullanuvchi deputatlarmi? Javobingizni asoslang.
4. Mamlakatimiz Oliy Majlisiga eng so‘nggi saylovlar qachon bo‘lib o‘tganligini eslay olasizmi? Unda oilangizdan kimlar qatnashgan? Ular kimni deputat qilib saylashgan?

Davlat va jamiyat boshqaruvi saylov orqali demokratik asosda tashkil topadi, xalqning saylov yo‘li bilan vakillik organlari tuzib, ularga o‘z vakillarini saylash, saylanadigan organlar faoliyatining yo‘nalishlarini belgilash imkoniyatida fuqarolik jamiyatining asl mazmun-mohiyati mujassamdir. O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi – davlat hokimiyatining oliy vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi Oliy Majlisni ikki palatali tarzda - Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat qilib tashkil toptirishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar quyidagilardir:

- Oliy Majlis faoliyati jarayonida manfaatlar muvozanati tizimini shakllantirish;
- qonun ijodkorligining sifatini ta'minlash;
- umum davlat va hududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishish.



O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan**
- **Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati – besh yil.

76- modda.

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘-risida”gi konstitutsiyaviy qonunda parlamentimiz Qonunchilik palatasining, “O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Senati to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunda esa Senatning maqomi, vakolatlari va faoliyat yo‘nalishlari aniq belgilab berilgan.

Bu palatalarning tarkibi ular oldiga qo‘ylgan maqsad va vazifalarga mos ravishda shakllantirilishi qonun yo‘li bilan belgilab qo‘ylgan.

Bunda **Senatning** hududlar manfaatlarini ifoda etishini inobatga olgan holda uning tarkibi asosan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari vakilla-ridan tashkil topadi. Senat boshqacha nom bilan **parlamentning yuqori palatasi** deb ham yuritiladi. **Qonunchilik palatasi** o‘z faoliyatini doimiy professional asosda amalga oshiradi va uning tarkibi asosan qonun va boshqa huquqiy hujjatlar yaratish uchun zarur bilim, tajriba va malakaga ega yuqori saviyadagi mutaxassislardan iborat bo‘ladi. Qonunchilik palatasi boshqa nom bilan **parlamentning quyi palatasi** deb ham yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senating vakolat muddati – besh yil.

Davlatimiz Konstitutsiyasining 77- moddasiga ko‘ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi qonunga muvofiq saylanadigan bir yuz ellik nafar deputatdan iborat. Shuningdek, Qonunchilik

palatasining deputatlari – hududiy bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo‘lib, 100 nafar Senat a’zolaridan (senatorlardan) iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zolari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti kishidan saylanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o‘n olti nafar a’zosi fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to‘lgan hamda kamida besh yil O‘zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zosi bo‘lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo‘yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Bitta shaxs bir paytning o‘zida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a’zosi bo‘lishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o‘z tarkibidan Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o‘rribosarlarini saylaydi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati o‘z tarkibidan Senat Raisi va uning o‘rribosarlarini saylaydi. Senat Raisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan saylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a’zosi daxlsizlik huquqidan foydalananadilar. Ular Qonunchilik palatasi yoki Senatning rozilgisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma’muriy jazo choralariga tortilishi mumkin emas.

Oliy Majlis ishini tashkiliy shakli - bu sessiyadir. Oliy Majlis sessiyasining asosini uning majlislari tashkil qiladi. Sessiya majlislari oralig'ida Oliy Majlis qo'mitalari, komissiyalari va boshqa organlari majlislari o'tkaziladi. Oliy Majlis sessiyasi bir yilda ikki martadan kam bo'Imagan tarzda chaqiriladi.

Oliy Majlis deputatlari qonunchilik asosida fraksiyalarga, bloklarga boshqa deputatlik guruhlariga birlashishlari, Oliy Majlisga taqdim qilinayotgan masalalarни oldindan muhokama qilishlari va takliflar kiritishlari mumkin.

Oliy Majlis quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarini tasdiqlash;
- Konstitutsion, Oliy sudlarni saylash;
- Markaziy bank raisini saylash;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlarini ko'rib chiqish va qabul qilish;
- O'zbekiston Respublikasi davlat budgetini va davlatning boshqa strategik dasturlarini qabul qilish.

Qonunlar Oliy Majlisga qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan organlar tomonidan taqdim qilinadi. Shundan so'ng Oliy Majlis bu qonunlarni ko'rib chiqadi, tuzatishlar kiritadi va qabul qiladi.



Qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

83- modda.

Oliy Majlis, shuningdek, davlat organlari va boshqa organlar, tashkilot, korxona, muassasalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

va qonunlarining, Oliy majlis qarorlarining bajarilishi bo‘yicha nazorat olib borish vakolatiga ega.

Sharhlang!

Oliy Majlis O‘zbekiston Respublikasining oliy vakillik va qonun chiqaruvchi organi hisoblanadi. Unda jamiyatning asosiy siyosiy partiyalari, barcha ijtimoiy qatlamlari va ijtimoiy-siyosiy kuchlarning manfaatlari ifodalanadi. Umuman olganda, Parlament O‘zbekiston xalqining manfaatlarini ifodalaydi.

Ijodiy faoliyat

Tuzgan shartli davlatingizning parlamentini tuzing. Parlamentning necha palatali bo‘lishi, saylanuvchi deputatlar soni (davlatingiz aholisi sonidan kelib chiqib), ularga yuklatilgan vazifalar va ularga berilgan vakolatlarni yozing.

Parlamentingiz tomonidan qabul qilinadigan eng muhim qonunlar ro‘yxatini tuzing.

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Oliy Majlis qanday hokimiyatni amalga oshiradi?
2. Nega Oliy Majlis ikki palatadan iborat qilib tashkil qilingan?
3. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘-risida”gi konstitutsiyaviy qonunda nimalar belgilab qo‘yilgan?
4. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunda-chi?
5. Qonunchilik palatasi tarkibiga kimlar kiradi?
6. Senat tarkibiga-chi?
7. Qonunchilik palatasi qay tartibda sayланади?
8. Oliy Majlisning faoliyati qanday tashkil qilinadi?
9. Sessiyalar majlislari oralig‘ida qanday faoliyat amalga oshiriladi?
10. Oliy Majlis qanday ishlarni amalga oshiradi?
11. Oliy Majlis nimalar ustidan nazorat yuritadi?

14- mavzu

O'zbekiston Respublikasining
ijro etuvchi hokimiyat organlari

1



2



3



4



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1-2- rasmlarda O'zbekiston Respublikasi ijro etuvchi hokimiyating markaziy (respublika miqyosidagi) organlari binolari, 3- rasm tuman hokimligi, 4- rasmida esa fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi tasvirlangan.

1. Siz bu organlarning faoliyati haqida nimalarni bilasiz? Bilganlar ringizni sinfdoshlarining bilan o'rtoqlashing.
2. Siz kattalarning "hukumat" atamasini tez-tez tilga olib turishlarni bilasiz. "Hukumat" so'zi sizga nimani anglatadi?
3. Chiqarilgan qonunlar, qabul qilingan qarorlarning ijro etilishini tashkil qilish zarurmi yoki shart emasmi?
4. Siz qanday vazirliklarning nomlarini bilasiz? Ularning qanday faoliyat bilan shug'ullanishlaridan xabardormisiz?

5. *Oila a'zolaringizning mahalla fuqarolari yig'iniga ishi tushganmi? Tushgan bo'lsa, bu organning faoliyati va vakolatlari bo'yicha qanday ma'lumotlarga egasiz?*
6. *Mahalliy hokimiyat organlari deganda nimani tushunasiz va ular qanday vazifalarni bajaradi deb o'ylaysiz?*

О'zbekiston Respublikasining hukumati boshchiligidagi ijro etuvchi hokimiyatning yagona tizimi amal qiladi. Mazkur tizimga:

- 1) Vazirlar Mahkamasi;
- 2) vazirliklar;
- 3) davlat qo'mitalari;
- 5) boshqaruv funksiyasini amalga oshiruvchi agentliklar, konsern va uyushmalar;
- 6) viloyat, tuman va shahar hokimliklari kiradi.

О'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekistonda ijro etuvchi hokimiyatni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi Bosh vazir taqdim etgan nomzodlar ichidan tanlab olinadi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining a'zolari O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga quyidagi mansabdar shaxslar kiradi: O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri; Bosh vazir o'rindbosarlari; vazirlar; davlat qo'mitalarining raislari; Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i .

Vazirlar Mahkamasi bir qator vazifalarni o'z zimmasiga oladi, ya'ni iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining ijrosini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar,

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgar hisoblanadi.

Oliy Majlis yangi saylanishi bilan Vazirlar Mahkamasi to'laligicha iste'foga chiqadi.

Vazirlar Mahkamasi qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda faoliyat yuritadi.



... O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri:

- 1) Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi;**
- 2) Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi;**
- 3) xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi.**
- 4) O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi ...**

98- moddadan.

Vazirlar Mahkamasi yana quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ◆ Davlat budgetini ishlab chiqadi va Oliy Majlisga taqdim etadi hamda uning bajarilishini ta'minlaydi;
- ◆ Oliy Majlisga davlat budgetining bajarilishi haqida hisobot beradi;
- ◆ yagona moliya, pul-kredit siyosati yuritilishini ta'minlaydi;
- ◆ madaniyat, fan, maorif, ijtimoiy ta'minot, ekologiya sohasida yagona davlat siyosati yuritilishini ta'minlaydi;
- ◆ mamlakatni mudofaa qilish, davlat xavfsizligi, tashqi siyosatni amalga oshirishni ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi;
- ◆ qonuniylik, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, xususiy mulk va jamoat tartibini muhofaza qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Hukumat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmonlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida va ularni

bajarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining butun hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi shart bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Prezident hukumat majlisida raislik qilish huquqiga ega.



Buyuk mutafakkir Ibn Sino har qanday jamiyat, davlat ma’lum adolatni himoya etuvchi, qonunlar asosida idora etiladigan, adolatsizlikka yo‘l qo‘yilmaydigan qonun ustuvor bo‘lgan adolatlari jamiyat ta’limotini yaratishga, uni rivojlantirishga katta hissa qo‘shti.

Markaziy ijro etuvchi hokimiyat vakolatlarini bozor tamoyillariga muvofiqlashtirish va iqtisodiyotni boshqarishda davlat boshqaruvining qatnashuvini kamaytirish Markaziy ijro etuvchi hokimiyat boshqaruv tuzilmalari va ma’muriy organlari vazifalarini jiddiy tarzda qayta ko‘rib chiqishni taqozo qildi.

Markaziy ijro etuvchi hokimiyatning boshqaruvin tuzilmalari va ma’muriy organlarning vazifalarini o‘zgartirish:

- ularning boshqarish borasidagi vakolatlarini qisqartirish;
- ularning tartibga solish borasidagi vakolatlarini qisqartirish;
- ularning taqsimlash borasidagi vakolatlarini qisqartirish;
- ularning xo‘jalik tuzilmalari faoliyatiga bevosita aralashuvini keskin qisqartirish.

Davlat boshqaruvida **vertikal boshqaruvin** organlarining vakolatlarini qisqartirish hisobiga **horizontal boshqaruvin** organlarining vakolatlarini kengaytirish davlat boshqaruvi sohasida markazlashtirishni cheklashga imkoniyat yaratadi. Bunda boshqaruvin borasidagi vazifalarning bir qismini **respublika** darajasidan **mahalliy (viloyat, tuman, shahar)** miqyosiga o‘tkazishning ahamiyati katta bo‘ldi. Ayniqsa, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarishning noyob shakli bo‘lgan **mahalla tizimi** faqatgina O‘zbekistonda amal qilgan o‘ziga xos yangilik bo‘lib davlat boshqaruvi fani va amaliyotiga kirdi.

Hikmatlar xazinasidan!

Hukumat – so‘zlovchi qonun, qonun esa gung hukumatdir.

(Sitseron Mark Tulliy)

Ijodiy faoliyat

O'zingiz tuzgan shartli davlatingizda ijro etuvchi organlar tizimini tuzing. Bunda siz hukumat a'zolarining lavozimlarini, ularning vakolatlarini va ularga yuklatilgan funksiyalarni yozma bayon qiling. Siz o'zingizni ushbu tuzilgan hukumat boshlig'i deb faraz qiling va o'z qo'l ostingizdagilarga beriladigan eng dastlabki va eng muhim ko'rsatmalarni yozing. Hukumatingizning bittadan qaror va farmoyishini yozing.

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyatni kim amalga oshiradi?
2. Vazirlar Mahkamasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Vazirlar Mahkamasi qay tartibda tuziladi?
4. Vazirlar Mahkamasining tarkibiga kimlar kiradi?
5. Vazirlar Mahkamasining asosiy vakolatlari nimalardan iborat?
6. Hukumat o'z faoliyatini amalga oshirish borasida qanday normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanadi?
7. Hukumatning qanday normativ-huquqiy hujjatlar chiqarish vakolatlari bor? Bu hujjatlarning qanday yuridik kuchi bor?
8. Hukumatsiz mamlakatni tasavvur qilib ko'ring. Bunda qanday ahvol ro'y berishi mumkin?
9. Markaziy ijro etuvchi hokimiyatning faoliyatlarini bozor tamoyillariga muvofiqlashtirish nima sababdan dolzarb bo'lib qoldi?
10. Konstitutsiyada ularning vazifalarini qay tarzda o'zgartirish taklif qilin-gan?
11. Davlat boshqaruvi vazifalarining bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman, shahar miqyosiga o'tkazilishining ijobiy ahamiyatga molik ekanligini asoslab berishga harakat qiling.
12. Mahallangiz boshqaruvi organining tuzilishi, uning qanday vazifalarni bajarishini o'r ganib chiqing. O'rganganlaringizni daftaringizga yozing. Mahalla fuqarolar yig'ini boshqaruvi bo'yicha fikrlaringizni sinfdosh-laringiz bilan muhokama qiling.

15- mavzu**O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi****O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan moddalar**

106- modda. O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

112- moddadan. Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo‘ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovnii amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi...

113- modda. Hamma sndlarda ishlar ochiq ko‘riladi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo‘l qo‘yiladi.

116- modda. Ayblanuvchi himoyalanish huquqi bilan ta’minlanadi. Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Fuqarolarga, korxona, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko‘rsatadi. Advokatura tashkil etish va uning ish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Davlat hokimiyatini sud tizimisiz tasavvur qilib ko‘ring. Qanday vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin?
2. Sud tizimi bilan bog‘liq vaziyatlarga siz yoki oila a’zolaringiz duch kelganmi? O‘z taassurotlaringiz bilan o‘rtoqlashing.
3. Fuqarolar o‘rtasidagi nizolarni har xil sndlар hal qiladi. Nima uchun sndlар har xil. Hamma nizolarni bir xil sud organlari hal qilsa bo‘lmaydimi? Fikringizni asoslang.
4. Konstitutsiyaning 106- va 112- moddalarida sndlarning mustaqilligi alohida ta’kidlanganligiga sabab nimada deb o‘ylaysiz? Bu shunchalar muhimmi? Aksincha nima bo‘ladi?

5. Konstitutsiyaning 113- moddasining ahamiyati nimada deb o'ylaysiz? Bunday qilinishi nimalarga ta'sir o'tkazishi mumkin?
6. Ayblanuvchilarning Konstitutsiyaning 116- moddasi orqali kafolatlangan huquqlari bo'lmaganida qanday holatlar bo'lar edi?

Sud hokimiyati — davlat hokimiyatining bir bog'ini.

O'zbekiston Respublikasining sud tizimi quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
- Harbiy sudlar;
- Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlari;
- Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari;
- Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasining, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy va ma'muriy sudlari.
- Tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari;
- Tuman, shahar ma'muriy sudlari.

Sud idoralaridan boshqa davlat idorasini fuqarolik, jinoyat va boshqa ishlarni ko'rish, hal etish huquqiga ega emas. Sud hokimiyati odil sudlovni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan yagona hokimiyatdir.

Davlat o'z zimmasiga sudlov organlari o'z vazifalarini samarali bajarishlari uchun zarur sharoitlarni yaratib berish majburiyatini olgan. Sud idoralarining mustaqilligi davlat tomonidan kafolatlanishi, Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilishi BMT tomonidan qabul qilingan "Sud idoralarining mustaqilligiga oid asosiy tamoyillar" nomli xalqaro huquqiy hujjatda ham o'z ifodasini topgan.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi.

108- moddadan.

Odil sudlovnning samarasi, albatta, sudlar tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning majburiyligi bilan bevosita bog‘liq.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, sudning qarorlari davlat majburlov kuchi bilan ta’minlanadi.

Oshkoraliq tamoyili odil sudlov faoliyatining huquqiy asosini belgilab beradigan muhim konstitutsiyaviy tamoyillardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi sud tizimiga kiruvchi barcha sndlarda ishlar ochiq ko‘riladi.

Odil sudlovnin amalga oshirishda til to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy tamoyil katta ahamiyatga ega. Konstitutsiyamizning 115- muddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasi sud tizimining xalqaro andozalarga mos ekanligini tasdiqlovchi jihatlaridan biri – bu aybsizlik prezumpsiysi qoidasining qonunda aks ettirilganligidadir. Bu milliy huquqiy tizimning jiddiy yutug‘i va fuqarolik jamiyatining muhim tamoyillaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda barcha sudyalar bir xil maqomga ega. Sudyalarning odil sudlovnin amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qonunda sudyalarning vakolat muddati besh yil qilib belgilangan.

Mamlakatimiz sud tizimini isloh qilish va uni takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ishlar, avvalambor, hokimiyatlar bo‘linishiga oid konstitutsiyaviy prinsipni izchil amalga oshirishga xizmat qildi. Natijada sud tizimining ijro etuvchi hokimiyatdan mustaqil ravishda faoliyat yuritishi imkoniyat yaratildi.

Sud-huquq tizimini izchil *demokratlashtirish* va *liberallashtirish* bo‘yicha so‘nggi yillarda olib borilgan ishlar:

- sud-tergov faoliyatida tergov jarayonida, jabrlanuvchi, guvoh, gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining ko‘rsatmasi bo‘yicha (agar aniq isbot bo‘lmasa) qaror qabul qilish taqiqlandi;
- Oliy sud va Oliy xo‘jalik sndlari birlashtirildi va ular asosida fuqarolik, jinoiy, ma’muriy va iqtisodiy sohalarda sud ishlarini yuritish bo‘yicha sud hokimiyatining birlashgan organi yaratildi;
- Oliy sud qoshida sndlар faoliyatini ta’minalash bo‘yicha departament tashkil qilindi;

- O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi tashkil qilindi va uning vazifasi qilib sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipiiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashish belgilandi;
- Konstitutsion sud vakolatlari kengaytirildi va uning doirasiga Prezident qaror va farmonlarining Konstitutsiyaga mosligini aniqlash vakolati ham kiritildi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Unda sud-huquq tizimini isloh qilish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi. Farmonda sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, odil sudlovga erishish imkoniyatini oshirish kabi masalalar sud-huquq tizimi islohotlarining asosiy maqsadi sifatida belgilab qo'yildi. Bu maqsadga erishish yo'lidagi sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga aniq vazifalar yuklatildi.

Hikmatlar xazinasidan!

Agar sud hokimiyati ijro hokimiyati bilan birlashsa, u holda sud hakami sitamarga aylanishiga imkoniyat tug'iladi. (Monteskiyo)



Amir Temur davlatida odil sudlovni amalga oshirish uchun mukammal tizimdagi sud tizimi mavjud bo'lib, ular quyidagi to'rt sohaga bo'lingan va qozilar tomonidan boshqarilgan:

1. Fuqarolik sudi (aholi qozisi);
2. Harbiy sud (lashkar qozisi);
3. Shariat sudi (islom qozisi);
4. Amaldorlar sudi (xizmatchilar qozisi).

Shahar, o'lka va viloyat aholisi jinoyat va fuqarolar ishi bo'yicha sud qilinardi. Bu ishda shariat, harbiy kishilarga nisbatan harbiy sud (*tribunal*) qo'llanilsa-da, tuzuklar asosida hukm chiqarilgan. Taxt vorislari uchun hukmni amirning o'zi chiqarardi.

Sharhlang!

Sud – odil sudlovni amalga oshirishga haqli bo‘lgan birdan-bir davlat hokimiyati organi. Sudyalar o‘zлari qabul qilgan qarorlar va hukmlarni davlat nomidan chiqaradilar. Bu qoida hal qiluv qarorlari va hukmlari hamma, shu jumladan, davlat organlari tomonidan so‘zsiz bajarilishi kerakligini anglatadi.

Ijodiy faoliyat

Tuzgan shartli davlatningizning sud tizimi tarxini chizing. Bunda har xil yo‘nalishlardagi sudlarning vakolatlari, ular oldiga qo‘yiladigan vazifalarni, ularning mas’uliyatlarini belgilab yozing. Ikkita fuqaro o‘rtasida va ikkita tashkilot o‘rtasidagi nizoli holatlarni keltiring va ularning sud tizimi orqali yechimini berishga harakat qiling.

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Sud hokimiyati deganda nimani tushunasiz?
2. Sud hokimiyati organlari qanday vazifalarni bajaradi?
3. Sudlarning mustaqilligi qay tariqa kafolatlanadi?
4. O‘zbekiston Respublikasi sud tizimiga qaysi organlar kiradi?
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qanday organ hisoblanadi? Uning qanday vakolatlari bor?
6. Sudlarning va sudyalarning mustaqilligi qay tariqa ta’minlanadi?
7. Sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va ta’siridan chiqarilishining ahamiyati haqida o‘z fikringizni bildiring.
8. Sud hokimiyatini isloh qilish va uni mustaqil davlat institutiga aylantirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar qanday natijalarni berdi?
9. Yangi tuzilgan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi qanday maqsadda tashkil qilindi?
10. Konstitutsion sudning vakolatlari qanday o‘zgartirildi?
11. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning sud-huquq tizimini isloh qilish bo‘yicha farmonining ahamiyati haqida so‘zlab bering.

Bob bo'yicha umumiylash uchun savollar va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka qay tariqa erishdi?
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishining ahamiyatini va uning o'ziga xos xususiyatlarini aytib bering.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan davlat boshqaruvi vakolatlari qay tariqa taqsimlanadi?
4. Qonun chiqaruvchi hokimiyatning tarkibini aytib bering.
5. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qanday vazifalarni bajaradi?
6. Senat nima? Uning qanday vakolatlari bor?
7. Ijro etuvchi hokimiyat tarkibi haqida gapirib bering.
8. O'zbekiston Respublikasi ijro etuvchi hokimiyati tarkibida qanday o'ziga xosliklar mavjud?
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qanday vakolatlari mavjud?
10. O'zbekiston Respublikasida Sud hokimiyatiga alohida hokimiyat sifatida qaralishiga sabab nimada deb o'ylaysiz?

Atamalarga mos ta'riflarni belgilang.

- | | |
|--|---------------------------------------|
| <u>1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi</u> | <u>5. Sud hokimiyati</u> |
| <u>2. Qonunchilik palatasi</u> | <u>6. Vazirlar Mahkamasi</u> |
| <u>3. Senat</u> | <u>7. Qonun chiqaruvchi hokimiyat</u> |
| <u>4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti</u> | |

a) davlat boshlig'i idir.

b) mustaqil mamlakatimizning asosiy qonuni.

d) Oliy Majlisning yuqori palatasi.

e) Oliy majlis: 1. Senat; 2. Qonunchilik palatalaridan iborat.

f) Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va boshqa sudlarni o'z ichiga oladi.

g) mamlakatimizda ijro etuvchi hokimiyatni amalgaga oshiradi.

h) Oliy Majlisning quyi palatasi.

Bob yuzasidan namunaviy testlar

- 1. Qaysi organ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini sharhlash huquqiga ega?**
 - a) Oliy sud;
 - b) Konstitutsiyaviy sud;
 - c) Ichki ishlar vazirligi;
 - d) Prokuratura.
- 2. O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati vakolatlarining taqsimlanishi quyidagicha amalga oshiriladi:**
 - a) Oliy Majlis deputatlari o‘rtasida;
 - b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar o‘rtasida;
 - c) Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o‘rtasida ;
 - d) Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati o‘rtasida.
- 3. Davlat hokimiyati vakolatlari quyidagi organlar orasida taqsimlanadi:**
 - a) prokuratura, ichki ishlar, tashqi munosabatlar, davlat xavfsizlik va mudofaa organlari;
 - b) qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tizimi;
 - c) huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari;
 - d) sud, prokuratura, qurolli kuchlar.
- 4. Kim O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi?**
 - a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti;
 - b) O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri;
 - c) O‘zbekiston Respublikasi Bosh sudyasi;
 - d) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
- 5. Ushbu konstitutsiyaviy qoidada yetishmayotgan so‘zlarni aniqlang.**
“O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar ... bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, qonun oldida tengdirlar”.

- a) bir xil huquqiy layoqatiga ega;
- b) bir xil burchlarga ega;
- c) bir xil huquq va erkinliklarga ega;
- d) bir xil huquq va majburiyatlarga ega.

6. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni kim?

- a) Prezident;
- b) Mudofaa vaziri;
- c) Bosh vazir;
- d) Prokuror.

7. Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniغا qo'ying. *Prezident o'z vazifasini bajarib turgan davrda mumkin emas.*

- a) boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi
- b) tadbirdorlik faoliyati bilan shug'ulanishi
- c) Senator bo'lishi,
- d) Deputat bo'lishi.

8. O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv shakliga ko'ra qanday davlat hisoblanadi?

- a) Prezidentlik respublikasi;
- b) Parlamentar respublika;
- c) Aralash shakldagi respublika;
- d) Monarxiya shaklidagi.

9. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishi kafili kim?

- a) Oliy Majlis;
- b) Davlat;
- c) Prezident;
- d) Prokuror.

10. Davlat hokimiyatining birdan-bir manbai – bu ...

- a) xalq;
- b) davlat organlari;
- c) fuqarolar;

e) qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati.

11. Kishilarning xulq-atvoriga, ularning xatti-harakatlariga va odatlariga ta'sir o'tkazish imkoniyati nima deyiladi?

- a) Jamiyat;
- b) Hokimiyat;
- d) Davlat;
- e) Jamoa.

12. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq qonunchilik tashabbusi huquqi kimlarga berilgan?

- a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, Oliy Majlis deputatiga;
- b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga;
- d) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga;
- e) Yuqoridagilarning barchasi to‘g‘ri.

13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekistonda ijro etuvchi hokimiyatni ... amalga oshiradi.

- a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti;
- b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- d) mahalliy hokimliklar;
- e) vazirliklar va qo‘mitalar.

14. Sud o‘rganlarining o‘z vazifalarini samarali bajarishlari uchun zarur sharoitlarni yaratib berish majburiyati ... ning zimmasidadir.

- a) Konstitutsiyon sud;
- b) Vazirlar Mahkamasi;
- d) davlat;
- e) xalqaro tashkilotlar.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Shavkat Mirziyoyev

IV BOB AXLOQ VA HUQUQ. HUQUQIY MUNOSABATLAR



*Axloq va huquq
Huquq normalari
Huquq sohalari
Huquqiy munosabatlar
O'zbekiston Respublikasining qonun manbalari
Huquqiy ong va huquqiy madaniyat*



16- mavzu

Axloq va huquq



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Maktabingizda siz rioya qilishingiz shart bo‘lgan qanday talab va qoidalari mavjud?
2. Bu talab va qoidalarning qaysilari o‘quvchilarga, qaysilari esa o‘qituvchilarga qaratilgan? Oilangizda siz qanday talab va qoidalarga bo‘ysunasiz?
3. Siz muktabda bepul ta’lim olasiz. Bu huquqni sizga kim ta’minlab bergen? Bu huqua qay tariqa va kim tomonidan o‘rnatilgan? Sizing bu huquqingiz qayerda yozib qo‘yilgan?
4. Siz ko‘chada ketayotganingizda “Yo‘l harakati qoidalari”ga qat’iy rioya qilishingiz shart. Xo‘s, siz muktabda yoki oilangizda rioya qiladigan qoidalarning “Yo‘l harakati qoidalari”dan qanday jiddiy farqi bor? Javob berishda bu qoidalarning kim tomonidan o‘rnatilganligini va ularga rioya qilinishi kim tomonidan nazorat qilinishini e’tiborga oling.

5. Yuqoridagi misollarning qaysi birida sizdan ko‘proq mas’uliyat talab qilinadi? Nima uchun?
6. Yuqorida atalgan qoidalarning bajarilishini nazorat qilish kimning zimmasida deb o‘ylaysiz?
7. Shu qoidalarni buzmagan holda maktabda, oilada va do‘stlarining orasida qanday huquqlarga ega ekanligingizni sanab bering.
8. Bu huquqlaringizning nima uchun aynan “**huquq**” deb atalishi to‘g‘risida o‘ylab ko‘rganmisiz? Fikringizni asoslab bering.

Kishining jamiyatdagi xulq-atvorini tartibga soluvchi qoidalari tizimi **axloq** hisoblanadi. O‘zbekiston hududida ming yillar davomida shakllangan milliy axloq normalari milliy huquq tizimimizning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.



Axloq – kishining jamiyatdagi xulq-atvorini tartibga soluvchi talab va qoidalari yig‘indisi.

Huquq tushunchasini tushuntirish oson bo‘lishi uchun huquqni biz xulq-atvor qoidalari deb ataydigan tushuncha bilan bog‘liqlikda o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Huquq xulq-atvor normalari yoki qoidalari yig‘indisidan iboratdir. Lekin bu normalar yoki qoidalari yaxlit, tartibli tizim holida namoyon bo‘ladi. Ana shu tizim davlat tomonidan belgilab qo‘yilgan va ijozat berilgan bo‘lishi shart.

Huquq albatta davlat irodasini ifodalaydi. Huquqiy davlatda davlatning irodasi jamiyat, xalq irodasi bilan mos tushganligi sababli bunday davlatda huquq jamiyat yoki xalq irodasini ifodalaydi deb ta’kidlash mumkin.

Huquqqa oid normalar va qoidalarda bayon etilgan talablar jamiyatning barcha a’zolari tomonidan bajarilishi majburiydir. Ya’ni huquqqa oid normalar va xulq-atvor qoidalari umummajburiydir.




***Huquq** – davlat tomonidan o‘rnatilgan va u tomonidan himoya qilinadigan barcha uchun majburiy bo‘lgan xulq-atvor qoidalalarining tizimi.*

Agarda huquqqa oid normalar va xulq-atvor qoidalari buzilsa, davlat huquqbuzarlarga jazo va majburlov choralarini ko‘radi. Ya’ni huquq davlat

tomonidan himoya qilinadi va davlat paydo bo‘lishi bilan bir vaqtida huquq ham paydo bo‘ladi. Huquq dastlab axloqiy qarashlar, qadriyatlar negizida vujudga kelgan. Keyinchalik esa *huquqiy davlat tomonidan* o‘rnatilgan yoki ma’qullangan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan barcha uchun majburiy xulq-atvor qoidalarining tizimiga aylangan.

“Huquq” atamasi ikki obyektiv hamda subyektiv huquq ma’nosida qo‘llaniladi. *Obyektiv huquq* – huquq normalarining yig‘indisi. *Subyektiv huquq* esa ma’lum bir shaxs yoki guruhga tegishli bo‘lgan huquq. Misol uchun kimningdir uy-joyga bo‘lgan yoki biror-bir mulkka nisbatan bo‘lgan huquqi. Subyektiv huquq obyektiv huquqsiz mavjud bo‘lmaydi. Huquqning o‘zi esa davlat bilan uzviy bog‘liqidir. Ular bir-birisiz mavjud bo‘lishi mumkin emas.

Huquq quyidagi vazifalarni bajaradi: tartibga solish, qo‘riqlash va tarbiyalash. Bu esa o‘z navbatida huquq funksiyalarida namoyon bo‘ladi.



Aholi aksariyat qismining qarashlari va tushunchalari ham, axloq ham huquqda aks etadi.

Axloq va huquq o‘rtasidagi asosiy farqlar quyidagilardir:

- 1) huquq davlat tomonidan belgilangan bo‘ladi, axloq (ezgulik va yovuzlik, adolat va nohaqlik kabilar) esa davlatning yordamisiz o‘z-o‘zidan shakllanadi;

- 2) huquq davlat irodasini, axloq esa jamiyat a'zolarining fikri, dunyo-qarashi hamda insoniy fazilat va tushunchalarini aks ettiradi;
- 3) huquq normalari, zarur hollarda, davlatning majburlov kuchi orqali, axloq normalari esa jamoat-chilik fikri orqali qaror topadi;
- 4) axloq normalari ijtimoiy munosabatlarning kengroq doirasini (do'stlik, o'rtoqlik va hatto muhabbatni ham) tartibga soladi. Huquq esa muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan;
- 5) huquqda xatti-harakat yoki harakatsizlik "qonuniy-noqonuniy", axloqda esa "yaxshi-yomon" deya baholanadi;
- 6) huquq hujjatlarda aniq ko'ri-nishga ega.

Huquq va axloq bir yo'nalishda harakat qiladi. Ba'zan huquq jamiyatning eskirgan axloq normalaridan xalos bo'l shiga ko'maklashadi (masalan, xun olish). Shu bilan birga, huquq axloq ("ezgulik" va "adolat" tushunchalari) asosida shakllanadi. Ko'pincha, sud "sha'n va qadr-qimmatni haqoratlash", "qo'pollik" va boshqa shu kabi tushunchalarni to'g'ri tushunish maqsadida axloq qoidalariga murojaat qiladi.

Axloq bilan huquq alohida tushunchalar bo'lsa-da, ular umumiy xususiyatlarga ham ega.

Sharhang!

Huquq va axloq bir yo'nalishda harakat qiladi.



Quyidagilardan axloq va huquqni ajrating hamda jadvalni to'ldiring.

- salom berish;
- kattalarga joy berish;
- malakali tibbiy xizmatdan foydalanish;
- ta'lim olish;
- tabiatni asrash;
- kichiklarni izzat qilish;
- kattalarga hurmatda bo'lish;
- saylovlarida qatnashish;
- soliqlarni o'z vaqtida to'lash;
- jamoat joylarida tartib saqlash;
- ota-onalarga g'amxo'rlik qilish;
- o'qituvchini hurmat qilish;
- maktab qoidalariga rioya qilish.

Axloq	Huquq

Ijodiy faoliyat

1. *Tuzgan shartli davlatning fuqarolarining "Axloq kodeksini" yozing.*
2. *Bu "kodeks"da keltirilgan qoidalarni buzganlik uchun qanday mas'uliyatlarni nazarda tutgan bo'lar edingiz?*
3. *Bu qoidalalar qay darajada "huquq" ta'rifiga mos keladi va ularda huquqning qanday belgilari mavjud?*
4. *O'tilgan mavzularda olgan bilimlaringizdan foydalanib quyidagi matnni sharhlang.*



O'z huquq va majburiyatlarini bilish mamlakatimizning har bir fuqarosi uchun juda muhimdir. Agar biz o'z huquqlarimizni bilsak, ulardan to'g'ri foydalana olsak va ularni himoya qila olsak, bu bizning huquqiy jihatdan madaniyatli bo'lishimizni ta'minlaydi. Shuningdek, bu boshqa fuqarolar huquqlarini buzmaslikka ham xizmat qiladi. Chunki ular ham biz kabi Konstitutsiyamiz va qonunlarga muvofiq bir xil huquq va erkinliklardan foydalananadilar.

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Axloq so'zini qanday tushunasiz?
2. Axloq tushunchasiga ta'rif bering.
3. Huquq qay tariqa paydo bo'lgan?
4. Obyektiv huquq nima? Misol keltiring.
5. Subyektiv huquq nima? Misol keltiring.
6. Huquqning belgilari va xususiyatlarini sanab bering.
7. Huquq funksiyalarini sanab bering.
8. Huquqning tartibga solish funksiyasining mohiyatini aytib bering.
9. Huquqning qo'riqlash funksiyasining mohiyatini aytib bering.
10. Huquqning tarbiyalash funksiyasining mohiyatini tushuntiring.
11. Axloq alohida inson uchun zarurroqmi yoki jamiyat uchunmi?
12. Axloq bilan huquq tushunchalarining bir-biri bilan qanday bog'liqligi bor, deb o'ylaysiz?
13. Agar bu ikki tushuncha o'rtasida ziddiyat paydo bo'lsa, unda nima o'zgartiriladi – huquqmi yoki axloqmi? Nima uchun?
14. Axloq va huquq o'rtasidagi farqlarni sanab bering.

17- mavzu

Huquq normalari



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Rasmlardagi huquqiy hujjatlarning qaysilari bilan tanishsiz? Bu huquqiy hujjatlarning ichida nimalar yozilganini bilasizmi?
2. Siz tanish bo'lmagan hujjatlarning ichida nimalar yozilgan bo'lishi mumkinligini ham taxmin qilib ko'ring. Bunda bu hujjatlarning nomlariga e'tibor bering.
3. Bu hujjatlarning davlat tomonidan chiqarilishidan ko'zlangan maqsad nima deb o'ylaysiz?
4. Atrofingizdagи hayotdan bitta huquqiy muammoli vaziyatni misol qilib keltiring. Bu vaziyatdagи muammoni yechish bo'yicha huquqiy qaror qabul qilishga harakat qiling. Qaroringizni yozma ravishda daftaringizga yozing. Bunda:
 - 1) ushbu huquqiy muammoning o'zini, ya'ni qonun-qoidalarni buzish holatini tavsiflang.
 - 2) ushbu qonun-qoidalarni buzish holati qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ifodalang.

3) ushbu qoidabuzarlikni sodir etgan shaxslarga nisbatan qanday chora ko‘rilganligini bayon qiling.

5. Siz misol qilib keltirgan huquqiy muammoni yechish uchun yuqorida tasvirlangan huquqiy hujjatlarning qaysi biri kerak bo‘ladi deb o‘ylaysiz?

Biz huquq bilan huquqbazarlikni, qonuniylik bilan qonunbazarlikni bir-biridan ajratib olishimiz uchun muayyan me’yorlar, usullar, vositalar va hujjatlar zarurdir.

Bunday imkoniyatni bizga huquq normalari beradi.

Huquq normasi – bu huquq tizimining eng asosiy, dastlabki elementi.

Huquqiy normalar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzilishi bilan belgilanadigan, davlat tomonidan o‘rnatalgan, bajarilishi jamiyatning barcha a’zolari uchun umummajburiy bo‘lgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalardir.



Davlat tomonidan belgilanadigan, kafolatlanadigan va muhofaza qilinadigan barcha uchun majburiy xulq-atvor qoidasi **huquq normasi** deyiladi.

Huquq normasining asosiy vazifasi – ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish. Huquq alohida normalar, xulq-atvor qoidalardan tashkil topgan.

Huquqiy norma tuzilishiga ko‘ra bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi uch tarkibiy qism (element)dan: gipoteza, dispozitsiya, sanksiyalardan tashkil topishi mumkin.

Gipotezada norma harakatga kelishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar bayon etiladi.

Dispozitsiyada xulq-atvor qoidalaring o‘zi ifodalanib, huquq subyektlarining huquq va majburiyatlari belgilab beriladi.

Sanksiyada huquq normalari bajarilmagani uchun davlat tomonidan qo‘llaniladigan majburlov chorasi bayon etiladi.

Jinoyat kodeksining 203- moddasini misol qilib olaylik: “Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa, eng kam oylik ish haqining ellik barobaridan yuz barobarigacha miqdorda

jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari, yoxud olti oygacha qamoq yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.



“Norma” so‘zi lotinchadan tarjima qilinganda “qoida”, “namuna” ma’nosini anglatadi.

Gipoteza – yunoncha so‘z bo‘lib, faraz qilish, fikr yuritish degan ma’noni anglatadi.

Dispozitsiya – lotin tilidan olingan bo‘lib, bayon qilish degan ma’noni anglatadi.

Sanksiya – lotin tilidan olingan bo‘lib, majburiy chora degan ma’noni anglatadi.

Yuqoridagi moddaning “*Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish*” qismi gipotezaga misol bo‘la oladi. “*Og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa*” qismi dispozitsiya, “*eng kam oylik ish haqining ellik barobaridan yuz barobarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari, yoxud olti oygacha qamoq yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi*” qismi esa sanksiyaga misol bo‘la oladi.

Ayrim qonun hujjatlarida huquq normasi bu uch tarkibiy elementdan emas, balki 2 ta tarkibiy elementdan tashkil topgan bo‘lishi ham mumkin. Massalan, har qanday mamlakat Konstitutsiyasidagi moddalar asosan gipoteza va dispozitsiyadan iborat bo‘lib, sanksiya elementi deyarli ko‘zda tutilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 6- moddasini oladigan bo‘lsak, u yerda, “O‘zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent shahri” deb e’tirof etilgan. Bu modda huquq normasiga misol bo‘la oladi va bu modda faqatgina dispozitsiyadan iborat.

Huquq normasining quyidagi belgilari mavjud:

- davlatning (xalqning) irodasini aks ettiradi;
- davlat tomonidan normativ hujjatlarda aks ettiriladi;
- davlat tomonidan muhofaza qilinadi, zarur bo‘lgan hollarda davlatning majburlov kuchi bilan ta’minlanadi;
- jamiyat va davlat nuqtai nazaridan eng muhim bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi.



Shunday huquq normalariga misol keltiring-ki, ular:

- 1) gipoteza, sanksiya qismlaridan iborat bo‘lsin;
- 2) faqatgina gipoteza va dispozitsiyadan iborat bo‘lsin;
- 3) har uchala rasmga taalluqli bo‘lsin;
- 4) faqatgina 1- va 3- rasmlarga taalluqli bo‘lsin;
- 5) faqatgina 2- rasmga taalluqli bo‘lsin.

Huquqiy normalarga misol qilib xalqaro huquqiy hujjatlarni ham keltirish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishganidan buyon ko‘pgina xalqaro huquqiy hujjatlarga qo‘sildi. Quyida, biz kundalik hayotimizga ta’sir ko‘rsatadigan ayrim muhim xalqaro huquqiy hujjatlar ro‘yxatini taqdim qilamiz:

- Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi;
- Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya;
- Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt;
- Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt;
- Texnik va kasb ta’limi bo‘yicha konvensiya;
- Rivojlanish huquqi to‘g‘risidagi deklaratсиya;
- Xalqaro madaniy hamkorlik tamoyillari to‘g‘risidagi deklaratсиya;
- Ishga qabul qilishning minimal yoshi to‘g‘risidagi konvensiya.

Hikmatlar xazinasidan!

Ozod bo‘lish uchun qonunlarning quliga aylanishga to‘g‘ri keladi.

(Sitseron Mark Tully)

Sharhlang!

Huquq normasining asosiy vazifasi – ijtimoiy munosabatlarni taribga solishdir.

Ijodiy faoliyat

1. "Baxt bank" mansabdorlari tadbirkor Gulbahor Xamroyeva bilan til biriktirib, "Chaqqon" fermer xo'jaligining "Baxt bank" dagi 20 million so'm mablag'ini 2019- yil 11- fevral kuni G. Xamroyevaning hisob raqamiga sohta hujjatlar asosida o'tkazib berishgan, boshqacha qilib aytganda kuppera-kunduz kuni talon-taraj qilishgan.

Hozir bu holat bo'yicha "Baxt bank"ning mansabdorlariga nisbatan JKning 167- moddasi 2- qismi "v", "g" bandlari bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov boshlab yuborilgan.


- 1) Yuqorida bayon qilingan holatga huquqiy baho bering.
- 2) Ushbu holatga nisbatan huquqiy normalarni qo'llang.
- 3) Qo'llagan huquqiy normalarning gipoteza, dispozitsiya va sanksiya qismlarini ajratib ko'rsating.
2. Shartli davlatingizda "ro'y bergan" yuqoridagi misolda berilganga o'xshash bitta shartli huquqbazarlik holatini bayon qiling. Bu huquqbazarlik holati bo'yicha ham yuqorida berilgan topshiriqlarni bajaring.

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Huquq normasi tushunchasini ta'riflab bering.
2. Huquq normasi zarurligini asoslab bering. Bunda, agar huquq normasi mavjud bo'lmasa, jamiyat qanday qiyinchiliklarga duch kelishi mumkinligiga e'tibor bering.
3. Huquq normasining asosiy vazifasi nimadan iborat?
4. Huquqiy normaning tarkibiy elementlarini sanab bering.
5. Gipoteza nima? Misol keltiring.
6. Dispozitsiya nima? Misol keltiring.
7. Sanksiya nima? Misol keltiring.
8. Har qanday huquqiy normada ham bu uch element mavjudmi? Javobingizni asoslang. Huquq normasining qanday belgilari mavjud?

18- mavzu

Huquq sohalari



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Rasmlarga qarang. Bu rasmlarda tasvirlangan insonlar har xil huquqiy ehtiyojlarga ega. Ularni aytib bering.
2. Bu huquqlarni ta'minlash uchun qabul qilingan qonunchilik hujjatlari to'g'risida eshitganmisiz?
3. 1- rasmdagi o'quvchi bilan 6- rasmdagi fermer huquqlari o'rta-sida qanday umumiylilik va qanday farqlar bor deb o'ylaysiz? 3- va 2- rasmdagilarning-chi? 4- va 2- rasmdagilarning-chi?
4. 5- rasmda tasvirlangan tabiatning ham huquqlari bormi? Bu huquqlar nimalarda ifodalanishi mumkin deb o'ylaysiz?

Har qanday jamiyatda shu jamiyat a'zolarining huquq va erkinliklarini ta'minlash uchun ma'lum bir **huquq tizimi** zarur. Bu tizim turli-tuman, lekin o'zaro mustahkam aloqada bo'lgan huquq normalari yig'indisidan iborat bo'ladi.




Huquq tizimi – bu jamiyatdagi mavjud huquq normalarining bir butun voqelik sifatida harakatlanishi, huquq normalari va sohalarini muayyan izchillikda, o'zaro uzviy aloqadorlikda joylanishi.

Qaysi huquq normasini qaysi obyektga nisbatan ishlatalish lozimligini aniqlashtirish uchun ularni turlarga ajratish lozim. Huquq tizimi, avvalambor, **huquq tarmoqlari (sohalari)** deb nomlanuvchi alohida tarmoqlarga ajratiladi. Bunda, davlatdagi ijtimoiy munosabatlarning xilma-xilligi e'tiborga olinadi. Aynan shu munosabatlar **huquqiy tartibga solish (boshqaruv)**ning predmetini tashkil qiladi. **Huquqiy tartibga solish (boshqarish)** usuli esa, huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatishga yordamlashadigan yo'llari, usullari, vositalarining yig'indisidir.

Ijtimoiy munosabatlarning mehnat munosabatlari, ijtimoiy ta'minot, moliya va hokazolar kabi turlari alohida huquqiy normalar orqali tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi huquq tizimini quyidagi jadval-sharhi orqali ifodalash mumkin:



Bu huquq tarmoqlaridan ayrimlarini tavsiflaylik:

– Konstitutsiyaviy huquq sohasi – bu huquq tarmog‘i huquq tizimidagi eng asosiy huquq sohasi. Chunki, unda huquqning bosh tamoyillari, davlatning huquqiy qiyofasi belgilab beriladi. Konstitutsiyaviy huquq tomonidan davlat, jamiyat va shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar tartibga solinadi. Unda davlat suvereniteti, davlatning siyosiy, boshqaruv shakli, ma’muriy-hududiy tuzilishi, davlat organlarining huquqiy maqomi, insonlarning asosiy huquq va erkinliklari, jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlari kabi muhim masalalar mustahkamlangan.

– Mehnat huquqi sohasi orqali – korxonalar, tashkilotlar va ularning xodimlari o‘rtasidagi mehnat munosabatlari tartibga solinadi.

– Fuqarolik huquqi sohasi orqali – mulk bilan aloqador hamda nomulkiy munosabatlar tartibga solinadi.

– Oila huquqi sohasi orqali – oiladagi, oila va nikoh bilan bog‘liq munosabatlar tartibga solinadi.

– Ekologiya huquqi sohasi orqali – tabiatni muhofaza qilish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinadi.

– Jinoyat huquqi sohasi orqali – qanday xatti-harakatlar jamiyat uchun xavfli ekanligi belgilanadi, ularni sodir etganlar qanday jazolanishi va bu borada yuzaga keladigan barcha munosabatlar tartibga solinadi.

Protsessual huquqlar sudsarning faoliyatini tartibga soladi va qaysi tarmoqqa oid huquqiy masalalarni ko‘rayotganligiga qarab yuqoridagi sharhda keltirilgan 3 ta turga bo‘linadi:

– Fuqarolik-protsessual huquq normalari sudsarning fuqarolik, oilaviy, mehnat, yer bilan bog‘liq va moliyaviy munosabatlar kabi bir qator sohalar-dagi faoliyatini tartibga soladi. Ya’ni, shu sohalarga oid ishlar ko‘rilayotgan bo‘lsa, sudlar fuqarolik-protsessual qonunchilikka asosan ish ko‘radilar.

– Iqtisodiy protsessual huquqida ham yer, agrar, moliyaviy, ekologiya sohalariga oid huquqiy munosabatlarni sudlar orqali yechish ko‘zda tutilgan. Agar fuqarolik-protsessual huquqida fuqarolar jismoniy shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar o‘z aksini topsa, iqtisodiy protsessual huquqda xo‘jaliklararo mulkiy nizolarni hal etish nazarda tutilgan.

– Jinoyat-protsessual huquq sudlov, tergov, prokuratura organlarining jino-yat ishlarini tergov qilish va sudda ko‘rib chiqish faoliyatini tartibga soladi.

Yuqorida atalgan tarmoqlar davlatning ichki **huquq tizimini** tashkil qiladi. Bundan tashqari **xalqaro huquq tizimi** ham mavjud bo'lib, bu huquq tizimi normalari davlatlar, xalqaro tashkilotlar va boshqa subyektlar o'rtaсидаги huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

Xalqaro huquq tizimi quyidagi tarmoqlarni o'z ichiga oladi: xalqaro ommaviy huquq, xalqaro xususiy huquq, xalqaro tashkilotlar huquqi, xalqaro xavfsizlik huquqi, diplomatiya va konsullik huquqi, xalqaro dengiz huquqi va boshqalar.

Huquq institatlari – bu o'zaro bog'langan, bir turdag'i ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar guruhidan iborat. Konstitutsiyaviy huquq sohasida prezidentlik, fuqarolarning huquq va erkinliklari instituti, jinoyat huquqi sohasida – javobgarlik instituti, oila huquqida – nikoh instituti va boshqalar. Bu huquq institatlari huquq sohasining ichki tarkibiy qismidir. Huquq institatlari birlashib, huquq sohasini tashkil etadi. Ya'ni huquq institatlari huquq sohalarining tarkibiy qismidir.

Sharhlang!

Huquq sohasi (tarmog'i) huquqiy normalar tomonidan tartibga solinadigan munosabatlarni majmuidir.

Ijodiy faoliyat

Tuzgan shartli davlatingizda ikkita jismoniy shaxs (fuqaro) va ikkita yuridik shaxs (tashkilot)larni misol tariqasida ajratib oling. Ularni nomlang.

1. *Jismoniy shaxslaringiz kirishishlari mumkin bo'lgan ijtimoiy munosabatlarda huquqning qaysi tarmoqlari asqotishi mumkinligini ajratib ko'rsating.*
2. *Agar ular o'rtaсидаги huquqiy munosabatlarni sud orqali yechishiga to'g'ri kelsa, qaysi protsessual huquq sohalariga murojaat qilishiga to'g'ri kelishini aytинг.*
3. *Agar yuqoridagi jismoniy shaxslar o'mida yuridik shaxslar (tashkilotlar) bo'lsa-chi?*



So‘zlarni to‘g‘ri joylashtirib, xalqaro huquqiy hujjatlarning nomlarini toping. Ushbu xalqaro huquqiy hujjat nima haqida ekanligini bilasizmi?

hamkorlik | Fuqarolik | minimal | deklaratsiya | konvensiya
 Ishga | huquqi | pakt | madaniy | qilishning
 ijtimoiy | kasb | umumjahon | to‘g‘risidagi | va
 to‘g‘risidagi | Bola | huquqlar | ta‘lim | Rivojlanish
 to‘g‘risidagi | va | konvensiyasi | madaniy | deklaratsiya
 Inson | bo‘yicha | Iqtisodiy | konvensiya | siyosiy
 xalqaro | huquqlari | yoshi | deklaratsiya | Texnik
 to‘g‘risidagi | Xalqaro | huquqlari | to‘g‘risidagi
 huquqlar | va | xalqaro | qabul | pakt
 tamoyillari | to‘g‘risidagi

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Huquq tizimini sohalarga ajratish nima uchun zarur?
2. Huquqiy tartibga solish predmeti nima?
3. Huquqiy tartibga solish usulini tushuntirib bering.
4. Huquqiy sohalarning asosiy turlarini sanab bering.
5. Eng asosiy huquqiy soha bo‘lmish Konstitutsiyaviy huquq sohasini tavsiflab bering.
6. Fuqarolik huquqi sohasini qisqacha tavsiflang.
7. Agarda jinoyat huquqi sohasi mavjud bo‘lmasa, jamiyatda qanday vaziyat yuz bergen bo‘lar edi?
8. Protsessual huquqiy sohalar orqali qanday faoliyat tartibga solinadi?
9. Fuqarolik va jinoiy protsessual huquqiy sohalarining asosiy farqlari nimada?
10. Jinoyat protsessual huquqiy sohasi qanday vazifalarni bajaradi?
11. Huquq institutlariga misollar keltiring.
12. Xalqaro huquqning tarkibiy qismlariga (sohalariga) misollar keltiring.

19- mavzu

Huquqiy munosabatlar



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

- 1- rasmdagi ichki ishlari xodimi bolalarga yo'l harakati qoidasini buzganligi uchun tanbeh bermoqda va ulardan qoida bo'yicha yurishni talab qilmoqda. O'ylab ko'ring, bu holda huquq normalari buzilayaptimi yoki yo'qmi? Ichki ishlari xodimi va bolalar o'rtaсидаги suhabatni huquqiy munozara deb atasa bo'ladimi?
- 2- rasmdagi sotuvchi va xaridor o'rtaсидаги oldi-sotdi munosabatlarining huquqqa aloqasi bormi yoki yo'qmi? Ular o'rtaсидаги munosabatni huquqiy munosabat deb atasa bo'ladimi? Savolga javob berishda huquq va huquq normalari haqida bilganlaringizni eslang va mantiqiy fikrlashga harakat qiling.
- 3- 4- rasmdagi holat bo'yicha ham xuddi shu savollarga javob berishga harakat qiling.
- 4- rasmdagi yosh bolalar o'z huquqlaridan mustaqil foydalanishlari mumkinmi? Javobingizni asoslang.

Huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar huquqiy munosabatlar deyiladi. Ularning vujudga kelishi uchun yuridik fakt – hodisa (masalan, insonning tug‘ilishi yoki o‘lishi, yong‘in) yoki harakat (masalan, huquqbazarlik) yuzaga kelishi lozim bo‘ladi.



*Ayrim shaxslar o‘rtasida vujudga keladigan va huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar **huquqiy munosabatlar** deyiladi.*

Ijtimoiy munosabatlar jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotida ro‘y beradigan munosabatlar bo‘lganligi tufayli mutanosib ushbu ijtimoiy munosabatlarni huquqiy mazmun bilan munosib ravishda to‘ldiradi. Masalan, jismoniy va yuridik shaxslarning tadbirkorlik faoliyati jarayonida tabiatiga bo‘lgan moddiy munosabatlari ekologik huquq tomonidan, iqtisodiy munosabatlar aksariyat hollarda yuridik mulk huquqi yoki tadbirkorlikka oid huquqiy normalar orqali, siyosiy munosabatlar esa Konstitutsiya orqali tartibga solinadi.

Milliy, diniy, oilaviy va davlatlararo munosabatlar kabi ijtimoiy munosabatlar ham huquq orqali tartibga solinadi.

Huquqiy munosabat, tuzilishiga ko‘ra **obyekt, subyekt** kabi elementlarni o‘z ichiga oladi.

Misol uchun, Ravshan do‘kondan umumiylarida daftar va rangli qalam sotib olmoqchi. Bu yerda umumiylarida daftar va rangli qalam huquqiy munosabatning obyekti hisoblanadi. Ravshan esa huquqiy munosabatning subyektidir.

Huquqiy munosabatning yana bir tarkibiy elementi bu huquqiy munosabat **mazmunidir**.

Mazmun o‘z navbatida subyektiv huquq va yuridik majburiyatni o‘z ichiga oladi. Huquqiy munosabatlar mazmuni bu huquqiy munosabat subyektlarining o‘z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish bo‘yicha aniq harakatlaridir. Masalan, do‘konda choy sotib olish paytidagi huquqiy munosabat mazmuni – bu sotuvchining choyni berishi va xaridorning pul to‘lashi bo‘lib, bu yerda sotuvchi choy berayotganida o‘z majburiyatini bajardi va pul olish huquqiga ega bo‘ldi. Va aksincha, xaridor choyni olar ekan o‘zining choy olishga bo‘lgan huquqidandan foydalandi va pul berish majburiyatiga ega bo‘ldi.

Demak, huquqiy munosabatlarning elementlari to'rtta ekan: **obyekt**, **subyekt**, **subyektiv huquq** va **yuridik majburiyat**.

Huquqiy munosabatlar subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning yuridik shakli bo'lib, uning yordamida davlat va qonun talablariga binoan ijtimoiy munosabat ishtirokchilari xulq-atvorini me'yorlab beradi.

Huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchilar, ya'ni subyektlar **huquq layoqatiga** hamda **muomala layoqatiga** ega bo'lishlari talab etiladi.



Huquqiy munosabat — uning ishtirokchilari o'rtasidagi huquqiy (yuridik) aloqalar bo'lib, ularning o'zaro huquq va majburiyatlarida namoyon bo'ladi.

Yangi tug'ilgan chaqaloq ham har xil huquqlarga, masalan, tibbiy yordam olish, turar joyga, o'z ismi, familiyasiga ega bo'lish huquqlariga ega. Aqli zaif va ruhiy kasallar ham huquqiy layoqatga ega. Ular ham yashash, davolanish, nafaqa olish, mulkdor bo'lish huquqiga egadirlar. Ayrim vaqtida hali tug'ilmagan bola ham huquqiy layoqatga ega. U merosxo'r bo'la oladi.



*Huquqiy munosabat ishtirokchilarining harakati nimaga qaratilgan bo'lsa, ushbu narsa **huquqiy munosabatlarning obyekti** hisoblanadi.*

*Huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari, ya'ni huquq va majburiyat egalari **huquqiy munosabatlarning subyektlari** hisoblanadilar.*

Huquq layoqati, asosan, kishining tug'ilishi bilan vujudga keladi va vafot etishi bilan tamom bo'ladi.

Muomala layoqati o'z harakatlari asosida huquqlarni amalga oshirish va yuridik majburiylarni bajara olish imkoniyatidir.

Muomala layoqati yosh va ruhiy salomatlik bilan bog'liq. O'zbekiston qonunlariga binoan, to'liq muomala layoqati fuqaro 18 yoshga to'lgandan so'ng boshlanadi. Lekin, ushbu qoidadan istisnolar ham mavjud. Masalan, shaxs jinoiy javobgarlikka 16 yoshdan, ayrim jinoyatlar uchun 14 yoshdan tortilishi mumkin. Boshqa bir misol: Oila kodeksi ayrim hollarda 18 yoshga to'lmasdan turib nikohdan o'tishga ruxsat beradi. Bunday fuqaro nikohdan o'tgan vaqtidan boshlab to'liq muomala layoqatiga ega bo'ladi.

Huquq manbai davlat irodasini muayyan huquqiy-normativ hujjatlar, qonun normalarida ifodalash, bayon qilish usuli va shaklidir. Huquqshunoslik fanida huquq manbalarining quyidagi to‘rt shakli e’tirof qilingan:

Huquqiy odat — bu jamiyat a’zolari tomonidan uzoq vaqt qo‘llanilishi, doimiy takrorlanishi natijasida jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq-atvor normasiga aylangan va keyinchalik davlat tomonidan tasdiqlangan qoidaga aytildi. Huquqiy odat qadimgi davrlarda asosiy huquq manbai hisoblangan. Hozirgi paytda ham ayrim davlatlarda, masalan, Buyuk Britaniyada mavjud.

Yuridik pretsedent sudning umummajburiy ahamiyatga ega bo‘lgan aniq bir ish bo‘yicha qaroridir. Yuridik pretsedentning o‘ziga xos jihatni shundaki, u qabul qilingach, o‘sha masala bo‘yicha umummajburiy qoidaga aylanadi. Huquqiy pretsedent ayrim mamlakatlarda, masalan Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada va Avstraliyada huquq manbai hisoblanadi. Ular anglo-sakson huquqiy tizimiga, huquq oilasiga kiradi. Lekin, O‘zbekiston Respublikasining huquq tizimida qo‘llanilmaydi. Sababi, O‘bekiston roman-german huquqiy tizimi (oilasi)ga mansub.

Normativ-huquqiy hujjat – huquqning asosiy manbaidir. Normativ-huquqiy hujjat vakolatli davlat organining belgilangan tartibda qabul qilgan yuridik huquqiy hujjati bo‘lib, umummajburiy xulq-atvor qoidalari o‘z ichiga oladi.



Qonunchilik – vakolatli davlat organlarining qonun chiqarish faoliyati hamda har bir vakolatli davlat organining qat’iy belgilangan huquqiy-normativ hujjatlarni chiqarish huquqiga egaligidir.

Normativ-huquqiy hujjatning belgilari:

- huquqiy normalarni mustahkamlaydi, rasmiylashtiradi;
- belgilangan qoidalarning mazmunini bayon etadi;
- belgilangan normalarga umummajburiy tus beradi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Qonun, shu jumladan, asosiy qonun hisoblangan – Konstitutsiya. Ular, umumxalq ovoz berish yo‘li bilan yoki parlament tomonidan qabul qilinadi;
2. Farmon – davlat boshlig‘ining normativ-huquqiy hujjati;
3. Hukumat qarorlari va farmoyishlari;

4. Vazirliklar va boshqa davlat idoralarining buyruq va qarorlari;
5. Mahalliy vakillik va ijroiya davlat organlarining qarorlari.

Xalqaro shartnoma xalqaro huquqning ikki yoki bir necha subyekti tomonidan qabul qilingan bitim bo'lib, huquq va majburiyatlarni belgilovchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi hujjatdir.

Xalqaro shartnoma va boshqa xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar bilan keyingi mavzuda batafsilroq tanishamiz.

Sharhlang!

Davlat qonun chiqaruvchi organining huquq ijodkorlik faoliyati natijasida bajarilishi majburiy bo'lgan muayyan huquqiy hujjat paydo bo'ladi.

Ijodiy faoliyat

Tuzgan shartli davlatlaringizda vujudga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy vaziyatlarga 4 ta misol keltiring. Bu vaziyatlarda:

- 1) Qanday shaxslar qanday huquqiy munosabatlarda ishtirok etayotganini ko'rsating.
- 2) Bu huquqiy munosabatlarning obyektlarini va subyektlarini ajratib bering.
- 3) Huquqiy munosabatlar subyektlarining huquqiy va muomala layoqatlari to'g'risida nima deya olasiz?
- 4) Yuqoridagi vaziyatlardan foydalanib, shunday normativ-huquqiy hujjatlar tuzing-ki, ular yuqoridagi vaziyatlarni hal qilsin.

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Huquqiy munosabatlar deganda nimani tushunasiz? Misollar keltitring.
2. Huquqiy munosabatlar obyekti nima? Subyekti-chi? Misollar keltiring.
3. Huquqiy layoqat va muomala layoqati o'rtaida qanday farqlar mavjud?
4. Huquqiy odad nima? Huquqiy pretsedent-chi?
5. Nima uchun oldingi savoldagi tushunchalar huquqiy manba sifatida qaralmaydi?
6. Umummajburiy xulq-atvor normalarini o'z ichiga oluvchi hujjatlar qanday nomlanadi? Ular nima uchun kerak?

20- mavzu**O‘zbekiston Respublikasining qonun manbalari**

1 O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun xujjalariiga iqtisodiy munosabatlar va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunidan: Qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi (25.05.2000y.), “Mikromoliyalash to‘g‘risida”gi (15.09.2006y.), “Mikrokredit tashkilotlari to‘g‘risida”gi (20.09.2006y.), qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga (20.01.2016y.) zarur o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritilgan.

Xalq so‘zi, 4.10.2018y.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroridan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 9- avgustdagи “Ijro intizomi idoralalararo yagona elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi F - 5017- son farmoyishiga muvofiq vazirliklar, idolar, mahalliy ijro hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarning “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralalararo yagona elektron tizimiga ulanishi ta’mindan.

Xalq so‘zi, 6.10.2018y.

3 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi huquqbazarliklarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Xalq so‘zi (Online), 23.05.2019y.

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Yuqoridagi parchalarda keltirilgan huquqiy-normativ hujjalarni ajratib ko‘rsating.
2. 1- parchadagi qonunlarga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish nima sababdan zarur bo‘lib qolgan deb o‘ylaysiz?
3. Keltirilgan huquqiy-normativ xujjalarning jamiyatimiz hayoti uchun zarurligini asoslab berishga harakat qiling.

4. Bu Qonun, Farmon va Qarorlarni bajarish joylarda amalga oshirilishini e'tiborga olgan holda, ularni bajarish uchun davlatning mahalliy organlari yana qanday hujjatlar tayyorlashlari lozimligini taxmin qilib ko'ring.

Ma'lumki, qonunlar va qonunosti hujjatlar, eng avvalo, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solib turuvchi asosiy vositalardir. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining huquq manbalarini o'rghanishni qonunlardan boshlash mantiqan to'g'ri bo'lar edi.

Ammo, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, qonunning mamlakat ichidagi va xalqaro qoidalari o'rtasida tafovut bo'lgan hollarda xalqaro shartnomaga yoki bitimlar ustuvor hisoblanadi.

Shuning uchun ham, O'zbekistonning huquqiy manbalarini o'rghanishni xalqaro huquq hujjatlaridan boshlashimiz tabiiy.

Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari O'zbekistonning eng birinchi huquq manbalaridir.

Xalqaro huquqning umume'tirof etgan prinsiplari va normalari – xalqaro huquqning asosiy qoidalari bo'lib, ularni xalqaro huquqning barcha subyektlari tan olgan va ularni bajarishga majburdirlar. Davlat suverenitetini hurmat qilish, zo'rlik ishlatmaslik, davlatning **hududiy yaxlitligini** tan olish, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, ichki ishlarga aralashmaslik, xalqlarning teng huquqligi, insonning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, davlatlar o'rtasidagi hamkorlik, xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlarni bajarish ana shular jumlasidandir.

1995- yilda "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risidagi qonuni" qabul qilingan.

Xalqaro shartnomaga xalqaro huquqning ikki yoki undan ortiq subyekti qabul qilgan bitimdir. U tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilaydigan, o'zgartiradigan yoki bekor qiladigan hujjatdir. O'zbekiston Respublikasi siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va maxsus masalalar bo'yicha bir necha ming shartnomaga tuzgan.

O'zbekiston Respublikasi qonunlarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- 1) Konstitutsiya – Asosiy qonun;
- 2) konstitutsiyaviy qonun;
- 3) qonun;
- 4) Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat hokimiyatining tashkil etilishini belgilaydi, konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, insonlar va fuqarolarning huquq va erkinliklarini mustahkamlaydi. Konstitutsiya amaldagi qonunlar uchun yuridik asosdir. Konstitutsiya qoidalari boshqa normativ hujjatlarda rivojlantiriladi va aniqlashtiriladi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibida o‘z Konstitutsiyasiga ega bo‘lib, uning qoidalari O‘zbekiston Konstitutsiyasiga zid kelmasligi kerak.

Konstitutsiyaviy qonunlar Konstitutsiyaga o‘zgartish va qo‘srimchalarni kirituvchi qonunlardir. Ushbu hujjat uchun Oliy Majlisda ularni qabul qilishning oddiy qonunlarga nisbatan murakkabroq tartib-qoidalari belgilangan. Ular, parlament a’zolari umumiyligi tarkibining uchdan ikki qismi ovozi bilan qabul qilinadi.

Qonunlar, o‘z navbatida, kodekslashtirilgan va joriy qonunlarga bo‘linadi. *Kodekslashtirilgan qonunlarga* kodekslar kiradi. *Kodeks* – mantiqiy tizimlashtirish xususiyatiga ega qonun bo‘lib, o‘zida ijtimoiy munosabatlarning ma’lum bir sohasini batafsil tartibga soluvchi normalarni birlashtiradi. Masalan, Fuqarolik kodeksi, Jinoyat kodeksi, Mehnat kodeksi, Soliq kodeksi, Bojxona kodeksi va h.k.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog‘istonning hududida ijro etilishi shart.

Qonun vaqt bo‘yicha quyidagi tartibda kuchga kiradi:

- 1) rasman e’lon qilinganidan ma’lum muddat o‘tgach;
- 2) qonunda yoki maxsus hujjatda ko‘rsatilgan vaqtdan boshlab.

Qonun vaqt bo‘yicha quyidagi tartibda kuchini yo‘qotadi:

- 1) qonunning o‘zida ko‘rsatilgan muddat tugagan bo‘lsa;
- 2) ushbu qonun bekor qilinishi natijasida.

Qonunning orqaga qaytish kuchi amalda kam qo‘llaniladi. O‘zbekistonda jinoyat yoki ma’muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi qonunlar ayrim hol-larda orqaga qaytish kuchiga ega bo‘lishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari uning hududidagina amal qiladi.

Qonun shaxslarga nisbatan amal qiladi, ya'ni qonunlar ushbu hududdagi barcha subyektlar, ya'ni fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun majburiydir.

Lekin, istisnolar ham mavjud. Masalan, Saylov kodeksining talablari faqat O'zbekiston fuqarolariga tegishlidir.



Qonun zamonda amal qiladi, ya'ni qonun muayyan muddat davomida amal qiladi. Bu muddat qonunda ko'rsatilgan sanadan boshlanadi.

Qonun makonda amal qiladi. Ya'ni, qonunlar mamlakatning barcha hududlarida amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat boshlig'i sifatida farmonlar, farmoyishlar va qarorlar chiqaradi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid kelmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari xo'jalik va ijtimoiy hayotning eng muhim masalalari bo'yicha qabul qilinadi. Ular, odatda, umumiylashtirishga va huquq normalariga ega bo'lib, huquq manbalari hisoblanadi.

Ayrim hollarda ijro etuvchi hokimiyat organlarining hujjatlari ushbu organlar tizimidan tashqarida vujudga keluvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Bunday vakolatlar Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Markaziy bank va boshqa tashkilotlar faoliyatida ko'rindi.



Qonun osti hujjatlari qonunlar asosida qabul qilinadi:

- 1) Prezident farmonlari;
- 2) Hukumat qarorlari;
- 3) Boshqa ijroiya organlarning normativ hujjatlari;

O'zbekistonda vazirliklar hamda tashkilotlarning, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor normativ hujjatlarni qayd etish davlat tizimi joriy etilgan. Ushbu vazifa O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

Sharhlang!

Qonunlar va boshqa normativ hujjatlar orasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosiy o‘rin tutadi. Konstitutsiya amaldagi qonunlar uchun yuridik asosdir.

Ijodiy faoliyat


Tuzgan shartli davlatingizda mayjud huquqiy-normativ hujjatlarni O‘zbekiston Respublikasi huquq manbalari bilan solishtirib ko‘ring.

- 1) *Buni, masalan, Konstitutsiya misolida ko‘rib chiqsa bo‘ladi. Siz tuzgan huquqiy-normativ hujjatlarning nomlari O‘zbekiston Respublikasi huquq manbalari nomlaridan farqlanadimi?*
- 2) *Qaysi hujjatlar matni aynan bir xil, qaysilari farq qilishi mumkin?*
- 3) *O‘zbekiston Respublikasi huquq manbalarini o‘zgartirganingizdan keyin o‘zingizning shartli davlatingizning huquq manbalarini qaytariqa o‘zgartirgan bo‘lar edingiz?*

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. O‘zbekistonda huquq manbalari nimalardan iborat?
2. Xalqaro huquqiy manbalar nimalarni o‘z ichiga oladi? Ular nima uchun kerak?
3. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari qanday asosiy guruhlarga bo‘linadi?
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qanday alohida ahamiyati bor? Bunga sabab nima?
5. Konstitutsiyaviy qonunlar va oddiy qonunlar orasida qanday umumiylilik va qanday farqlar bor?
6. Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonunlari qaysi hududda amal qiladi?
7. Qonun qaysi vaqtidan boshlab kuchga kiradi va qaysi hollarda o‘z kuchini yo‘qotadi?
8. Qonun zamonda va makonda amal qiladi deganda nimani tushunasiz?
9. Hamma qonunlar ham O‘zbekiston hududidagi barcha shaxslar uchun majburiymi? Istisnolarga misol keltiring.
10. Siz qonunosti hujjatlari deganda nimalarni tushunasiz? Ularga misollar keltiring.

21- mavzu

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Shavkat Mirziyoyev

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

- Bizning tinch va farovon turmush kechirishimiz, ta'lim olishimiz, o'z iste'dodlarimizni rivojlantirishga sharoit yaratish va kafolatlashda davlatimiz qonunchiligining qanday ahamiyati bor?*

2. *Ushbu qonunchilikni muttasil rivojlantirib borishga qanday ehti-yoj bor deb o'ylaysiz?*
3. *Siz kundalik hayotingizda foydalanib kelayotgan huquq va erkinliklaringizga misollar keltira olasizmi?*
4. *Yuqoridagi iqtibosni sharhlab berishga harakat qiling.*

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlaridagi muvaffaqiyatlar aholining, har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Chunki, bu borada qilinayotgan barcha ishlar inson uchun va bu ishlarni amalga oshirayotgan ham insonlardir.

Xo'sh, huquqiy madaniyat o'zi nima? Bu savolga javob berish va huquqiy madaniyat tushunchasining mohiyatini anglab yetish uchun biz, avvalo, huquqiy ong tushunchasiga ta'rif berishimiz lozim. **Huquqiy ong** insonning o'z ma'rifat va ma'naviyat darajasiga tayangan holda jamiyatda amal qilayotgan huquqiy talab va normalarning mazmunini tushunish va mohiyatini anglashidir.

Demak, jamiyat a'zolarining huquqiy ongi yuksak bo'lishi uchun ular ma'rifatlari va yuksak ma'naviyat egasi bo'lishlari zarurdir. Huquqiy ongning yuksakligi shaxsnинг fuqarolik jamiyatining to'laqonli a'zosi va huquqiy demokratik davlatning haqiqiy fuqarosi bo'lishi uchun kamlik qiladi. Buning uchun inson huquqiy madaniyatli inson bo'lishi zarur.

Shaxsning **huquqiy madaniyati** deganda fuqaroning o'z haq-huquqlarini huquqiy ongiga tayangan holda o'zgalar manfaatiga zid kelmaydigan tarzda amalga oshirishi tushuniladi.

- O'z huquqiy madaniyatini shakllantirish uchun shaxs:
- o'z huquqiy bilimlarini muttasil oshirib borishi;
 - amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan tanish bo'lishi;
 - huquqiy faoliyatda ajdodlarimizdan meros bo'lib kelgan ijtimoiy qoidalarni ham e'tiborga ola bilishi;
 - hokimiyat organlarining funksiyalari va vazifalarini bilishi va ular bilan o'zaro munosabatlarga kirisha olishi;
 - huquq-tartibot sohasining jamiyatdagi o'rnini to'g'ri idrok qilishi va ularning vazifalarini to'g'ri anglashi zarurdir.

Yuksak huquqiy madaniyatga ega insonni tarbiyalash qanday vositalar orqali amalga oshiriladi, insonning huquqiy madaniyatiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi qabilidagi savollarga javob huquqiy ta'lif va ma'rifatni kuchaytirish, huquqiy targ'ibotni yanada yaxshilash zamirida yotadi.

2019- yilning 9- yanvar kuni Prezidentimiz tomonidan "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmonga imzo chekildi.

Unda har bir inson mamlakatimizda istiqomat qilar ekan, uning manfaatlari shu jamiyatning boshqa a'zolari tomonidan hurmat qilinishiga erishish lozimligi ta'kidlanadi. Hozirgi kunda bunday emas. Chunki bunday bo'lishi uchun aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksak darajada bo'lishi talab etiladi. Afsuski fuqarolarning huquqiy savodxonlik darajasini oshirishga, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksak darajaga ko'tarishga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammo va kamchiliklar mavjudligi farmonda qayd etib o'tilgan.

Farmonda fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha ishlar tizimli va uzviy olib borilishi yo'lga qo'yilmaganligi ta'kidlanadi. Aholining, birinchi navbatda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar farmonda belgilab berilgan. Jumladan: jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish; maktabgacha ta'lif tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish; yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini bolaligidan boshlab singdirish; mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish. Davlat organlari, jamoat va fuqarolik jamiyatlari institutlari hamkorlikda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha amalga oshirishlari lozim bo'lgan ishlar ham farmonda belgilab berilgan.

Farmonda keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbiralarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalaridan ekanligi ta'kidlanadi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs – oila – mahalla – ta’lim muassasasi – tashkilot – jamiyat” prinsipi bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etilishi ham farmonda belgilab qo‘yilgan.

Farmonga binoan: Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi va shu Konsepsiyani 2019- yilda samarali amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ham tasdiqlangan

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi davlat organi etib O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi belgilangan.

Farmonda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirish, ishlarni amalga oshiruvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish, zarur tavsiyalarni tayyorlash, zarur takliflar ishlab chiqish bo‘yicha qo‘shimcha vazifalar yuklatilgan.

Farmonda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining O‘zbekiston Respublikasining milliy huquqiy internet portalini yaratish, Advice.uz huquqiy axborot tizimini yaratish, umumta’lim maktablari va akademik litseylarda huquqiy bilimlarga doir o‘quv mashg‘ulotlari ko‘lamini yanada kengaytirish huquqiy qo‘llanmalarini yaratish va aholiga tarqatish, “Huquqiy targ‘ibot ishlari a’lochisi” ko‘krak nishonini ta’sis etish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullangan.

Farmonda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim, Xalq ta’limi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklari, Adliya vazirligi bilan birgalikda tarbiyanuvchilar, o‘quvchilar va talabalarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan mexanizmlar joriy etish borasidagi chora-tadbirlar belgilangan.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish umumxalq ishi, umummilliyl vazifa ekanligini e’tiborga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, qator vazirlik va qo‘mitalar, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyyati organlari, agentliklar, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, boshqa tashkilot va muassasalar korxonalarga farmonda belgilangan vazifalarni, Konsepsiya va “Yo‘l xaritasi”dan kelib chiqadigan masalalarni bajarish bo‘yicha muddatli topshiriqlar keltirilgan.

Huquqiy ta'lif, tarbiya, targ'ibot, tashviqot borasidagi davlat tomonidan yaratilgan shart-sharoitlardan unumli foydalanish va o'z huquqiy ongini o'stirib, huquqiy madaniyatini shakllantirish mamlakatimizning har bir fuqarosining burchidir.

Sharhlang!

Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati, ko'p jihatdan, odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat — demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichidir.

Ijodiy faoliyat

Sizning huquqiy madaniyatingizni oshirishga xizmat qiluvchi omillar ro'yxatini daftaringizga yozing.

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Huquqiy ong nima?
2. Huquqiy madaniyat deganda nimani tushunasiz? Uning inson hayotida qanday ahamiyati bor?
3. Huquqiy madaniyatni shakllantirishda Konstitutsiyamiz qanday rol o'yaydi?
4. Huquqiy madaniyatni oshirishda muhim hisoblangan yana qanday huquqiy hujjalarni bilasiz?
5. "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident farmonida qanday masalalar keltirilgan?
6. Farmonda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha kimlarga, qanday vazifalar yuklatilgan?
7. Farmonga binoan qanday chora-tadbirlar amalga oshirilishi nazarda tutilgan?
8. Farmonda tilga olingan Konsepsiya va "Yo'l xaritasi" nima haqida?
9. Farmonning ahamiyati haqida nima deya olasiz?

Bob bo'yicha umumiylar uchun savollar va topshiriqlar

1. Huquq nima? "Insonning huquqi" deganda nimani tushunamiz?
2. Obyektiv va subyektiv huquqlarning farqlarini aytib bering.
3. Huquqning asosiy funksiyalarini sanab bering va ularni tavsiflang.
4. Axloq bilan huquqning asosiy farqlarini ajratib ko'rsating.
5. Huquq normasi nima?
6. Huquq normalarining tarkibiy qismlarini sanab bering. Misollar keltiring.
7. Huquq normasi belgilarini aytib bering.
8. Huquq tizimi nima?
9. Huquq tizimi qanday bo'linadi?
10. Ichki va tashqi huquq tarmoqlariga nimalar kiradi?
11. Huquqiy munosabat nima va uning ishtirokchilari kim?
12. O'zbekiston Respublikasining qanday huquq manbalari mavjud?
13. Konstitutsiyasimizning huquq manbasi sifatida ahamiyatini izohlang.
14. O'zbekiston Respublikasi qonunlari qanday tasdiqlanadi?
15. Qonunosti hujjalarni deganda nimani tushunasiz?

Atamalarga mos ta'riflarni belgilang.

1. Huquq tizimi 2. Huquq 3. Axloq
4. Huquq me'yorlari (normalari) 5. Huquqiy munosabat

a) davlat tomonidan o'rnatilgan, umummajburiy xulq-atvor qoidalari.

b) kishining jamiyatdagi xulq-atvorini tartibga soluvchi talab va qoidalar yig'indisi.

d) jamiyatdagi mavjud huquq normalari va sohalarining yig'indisi.

e) davlat tomonidan o'rnatilgan va u tomonidan himoya qilinadigan barcha uchun majburiy xulq-atvor qoidalarining tizimi.

f) uning ishtirokchilari o'rtasidagi huquqiy (yuridik) aloqalar bo'lib, ularning o'zaro huquq va majburiyatlarida namoyon bo'ladi.

Bob yuzasidan namunaviy testlar

1. Huquq tizimi — ...

- a) huquq normalarining qonunlar va boshqa muayyan manbalarda ifodalanishi;
- b) bu o'zaro bog'langan, bir turdag'i ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar guruhidan iborat;
- d) davlat tomonidan o'rnatilgan, himoya qilinadigan barcha uchun majburiy xulq-atvor qoidalari;
- e) turli-tuman, lekin o'zaro mustahkam aloqada bo'lgan yuridik normalar yig'indisi.

2. Korxonalar, tashkilotlar va ularning xodimlari o'rtasidagi mehnat munosabatlarini tartibga soladigan huquq sohasini ko'rsating?

- a) Ma'muriy huquq;
- b) Konstitutsiyaviy huquq;
- d) Mehnat huquqi;
- e) Fuqarolik huquqi.

3. Faqat huquqqa taalluqli belgi qaysi?

- a) Shartnomma asosida fuqarolar tomonidan yaratiladi;
- b) Marosim va an'analarni tartibga soladi;
- d) Hamma uchun majburiy bo'ladi;
- e) Axloq-odob qoidalari, milliy qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

4. Axloq qanday vujudga kelgan?

- a) Jamoa a'zolari tomonidan o'rnatilgan;
- b) Davlat tomonidan o'rnatilgan;
- d) Huquq va davlat bilan birga vujudga kelgan;
- e) Davlat apparati tarkibida paydo bo'lgan.

5. Axloq normalarining tushunchalarini aniqlang?

- a) Yaxshilik, vijdon, qonun, norma;
- b) Baxt, burch, davlat, qonun, jinoyat va jazo;
- d) Yaxshilik, vijdon, baxt, burch,adolat, sevgi;
- e) Yaxshilik,adolat, qonun, jazo.

6. Huquq — ...

- a) davlat tomonidan o'rnatiladi, qo'riqlanadi, barcha uchun majburiy;
- b) davlatning yordamida o'z-o'zidan shakllanadi;
- d) ijtimoiy munosabatlarning keng doirasi;

- e) milliy qadriyatlarga asoslangan, davlat tomonidan o‘rnatilgan, bar-cha uchun majburiy xulq-atvor qoidalari.
- 7. Huquqiy ong insonning o‘z ma’rifat va ma’naviyat darajasiga tayangan holda jamiyatda amal qilayotgan ... mazmunini tushunish va mohiyatini anglashdir.**
- a) huquqiy talab va normalarning;
 - b) qonunlarning;
 - c) ahloq qoidalarining;
 - d) Konstitutsiya va qonunlarning.
- 8. Shaxsning huquqiy madaniyati deganda fuqaroning o‘z haq-huquqlarini huquqiy ongiga tayangan holda ... tarzda amalga oshirilishi tushuniladi.**
- a) qonunchilik talablariga zid kelmaydigan;
 - b) o‘zgalar manfaatiga zid kelmaydigan;
 - c) o‘z ehtiyojlarini qondirishda ahloq qoidalariga amal qilgan;
 - d) Konstitutsiya moddalariga rioya qilgan.
- 9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida"gi farmonida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish ... principi bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etilishi belgilab qo‘yilgan.**
- a) "shaxs – jamiyat – davlat";
 - b) "davlat o‘rganlari – nodavlat, notijorat tashkilotlari – xususiy korxonalar";
 - c) "shas – oila – mahalla – ta’lim muassasasi – tashkilot – jamiyat";
 - d) "maktabgacha a’lim muassasasi – o‘rtta umumta’lim maktablari – litsey va kollejlar – oliy o‘quv yurtlari".
- 10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvo-fiqlashiruvchi davlat o‘rgani deb ... belgilangan.**
- a) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi;
 - b) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
 - c) O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi;
 - d) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.

Jamiyatimizda “Qonun va adolat – ustuvor, jinoyatga jazo – muqarrar” degan prinsipni qaror toptirish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Shavkat Mirziyoyev

V BOB

HUQUQBUZARLIK VA YURIDIK JAVOBGARLIK



*Huquqbuzarlik. Yuridik javobgarlik
Huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari
Adliya vazirligi*

*Advokatura va Notarial idoralar
Qurolli kuchlar va yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida
tarbiyalash*



22- mavzu

Huquqbazarlik

Toshkent shahar IIBB xabariga ko‘ra, 2019- yil 4- mayga o‘tar kechasi Toshkent viloyatida yashovchi, muqaddam sudlangan, 24 yoshli S.Sh., 24 yoshli B.T, I.X.lar va Andijon viloyatida yashovchi, 23 yoshli H.O. 100 ming so‘mlik nominaldagи milliy valyuta qalbaki kupyuralarini o‘tkazish maqsadida Chilonzor tumaniga kelishgan.

Ko‘rilgan choralar natijasida yuqorida ko‘rsatilgan yigitlar kelgan avtomobil aniqlandi hamda 4- may kuni soat tahminan 03:30 larda avtomashina topildi va to‘xtatildi. Mashina g‘aladoni tekshirilganda, 100 ming so‘m nominaldagи 51 ta soxta kupyura, chop etilgan milliy valuta kupyuralari tasvirlangan A4 shaklidagi 25 varaq qog‘oz hamda soxta pullarni tayyorlashda foydalananilgan “Canon” printeri aniqlandi.

Sud-kriminalistik ekspertiza xulosasiga ko‘ra, 100 ming so‘mlik 58 ta kupyura soxta bo‘lib chiqdi.

Yuqorida nomlari qayd etilgan yigitlarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 176-moddasi 2-qismi bo‘yicha jinoiy ish qo‘zg‘atildi.

Adolat, 2019- yil, №19

Uychi tumani Alisher Navoiy nomidagi mahallada yashovchi Zokirjon Abdullayev (ism-sharifi o‘zgartirilgan) bu yil yozda endigina 16 yoshga to‘ladi. Otasining bevaqt o‘limi tufayli o‘smir onasi bilan qolgan. Afsuski, ayni balog‘at ostonasiga qadam qo‘yayotgan yigitcha kutilmaganda qing‘ir ishga qo‘l urdi: joriy yil boshida qo‘shni xonadonda tengdoshi bilan birga o‘ynab yurib, qimmatbaho taqinchoqqa ko‘zi tushib qoldi, so‘ng hech kimga sezdirmay ziynatni olib chiqib ketdi. So‘ramasdan, yashirinchcha olingan buyum o‘g‘irlik-da! Natijada bugun o‘zining ham, oilasining ham jamoatchilik, qo‘ni-qo‘shni oldida boshi egildi. Hozirgacha tumanda eng namunali hisoblab kelinayotgan mahalla nomiga dog‘ tushdi.

Mahalla, 2019- yil, №23

O'zbekiston Respublikasi IIV Jamoatchilik va OAV bilan aloqalar boshqarmasi xabarida, 2019- yil 9- may kuni Toshkent shahrining Yakkasaroy tumani II Bga tushgan hujjatga ko'ra, unda shu yil 4- aprel kuni Mirzo Ulug'bek tumanida yashovchi 28 yoshli B.D. Samarqand viloyatida yashovchi 23 yoshli M.R. ni Yaponiyaga ishga jo'natishni aytib, uni aldab, ishonchiga kirib, 6 220 AQSH dollari va 4.500.000 so'm pullarini olib, shu kunga qadar bergan va'dasini bajarmay, pullarni o'z ehtiyoji uchun ishlatis yuborganligi ko'rsatilgan. Ko'rilgan choralar natijasida B.D. ushlangan. Holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilmoqda.

Adolat, 2019- yil, №20

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Parchalarni o'qing va ularga o'z munosabatingizni bildiring.
2. Siz hayotda tez-tez eshitib turadigan huquqbazarlik, huquqqa zid, ijtimoiy xayfli, ayb, jinoyat, jazo, intizom atamalarining qaysi birligi yuqoridagi holatlarning qaysi biriga ishlatgan bo'lar edingiz?
3. Sizningcha, parchalardagi huquqbazarliklarning qaysi biri atrofdagilarga ko'proq xavf tug'diradi?
4. Huquqiy normalar o'zgargan paytda ilgari huquqiy jihatdan to'g'-ri hisoblangan harakat, endilikda noto'g'ri bo'lib qolishi mumkinmi? Yuqoridagi parchalarda bunday holatga misol bormi? Agar yo'q bo'lsa, o'zingiz bilimlaringiz va hayotiy tajribangizdan foydalanib, shunday vaziyatni tasvirlang.

Shaxslar ma'lum huquqiy qoidalarga, huquq normalariga amal qiladilar. Bu qoidalarga amal qilmaslik, o'rnatalgan huquqiy normalarning buzilishiga olib keladi. Bu esa **huquqbazarlik** deb ataladi.

Huquqbazarlik deganda jamiatda o'rnatalgan va qonunchilik orqali belgilangan tartib yoki umuman ijtimoiy yashash qoidalarini buzish tushuniladi.

Huquqbazarlik har xil shakllarda namoyon bo'ladi. Huquqbazarlikning u yoki bu shaklda namoyon bo'lishi uning xususiyatlariga bog'liqdir. Huquqbazarlik shakllariga jinoyat, nojo'ya harakat, intizomni buzish kabi xatt-harakatlarni keltirish mumkin.



Huquqbazarlik – o‘z xatti-harakatini tushunadigan va unga javob bera oladigan shaxsning huquqqa zid xatti-harakatidan kelib chiquvchi aybidir.

Huquqbazarlikning quyidagi belgilari mayjud: ijtimioiy xavfilik; huquqqa zidlik; ayblilik; jazoga loyiqlik.

Ijtimioiy xavfilik shundan iboratki, bunda huquqbazar jamiyatning qadriyatlariga tajovuz qiladi, inson hayotiga suiqasd qiladi, davlat va boshqa insonlarga zarar keltiradi, ularning mol-mulkini nobud qiladi hamda noxush hodisalar keltirib chiqarib, jamiyat a’zolari manfaatiga zarar keltiradi. O‘z oilasi, ota-onasi, jamoasi, yor-u birodarlarini qiyin, uyatli ahvolga solib qo‘yadi. Eng yomoni u o‘z kelajagini barbod qiladi.

Huquqqa zidlik — huquqbuzarning qonun yoki huquq normalari belgilab qo‘yan majburiy talablarini buzishidir.

Ayblilik yuqorida ta’kidlanganidek, o‘z xatti-harakatini tushunadigan va unga javob bera oladigan insonning huquqqa zid, qonun talablariga qarshi xatti-harakatidan kelib chiquvchi aybidir. Ayblilik qasddan yoki ehtiyoitsizlik oqibatida sodir bo‘ladi. Inson inson sifatida dunyoga kelgan ekan, uning oldida doimo ikki yo‘l – huquqiy normalarga, qonun talablariga vijdonan yoki majburiy bo‘ysungan holda o‘z kelajagini yaratish, jamiyat uchun, o‘z xalqi uchun ijtimoiy foyda keltirish. Ikkinchisi yo‘l esa hayoti davomida huquqqa xilof, huquqiy norma va qonun talablarini mensimasdan, bo‘ysunmasdan yashash. Aybli harakat qilish, jamiyatga zarar yetkazishdir.

Jazoga loyiqlik — bu har qanday huquqbazarlik sodir etgan shaxsning vakolatli davlat organi tomonidan **javobgarlikka** tortilishi, **jazo** esa huquqbazarlik sodir etgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan, huquqbuzarni muayan huquq va erkinliklardan mahrum qilishdan iborat majburlov chorasisidir.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, jamiyat uchun xavfli bo‘lgan har qanday qilmish huquqbazarlik deyiladi. Huquq normalari barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Huquqbazarlik odatda 4 guruunga bo‘linadi: intizomiy huquqbazarlik; fuqarolik huquqbazarligi; ma’muriy huquqbazarlik; jinoiy huquqbazarlik.

Intizomiy huquqbazarlik — xizmat burchini bajarib turganda har qanday mehnatda majburiy bo‘lgan mehnat tartib-qoidalarining va rahbar-

likka bo'y sunish tamoyillarining buzilishi. Masalan, ishga, o'qishga kech qolish; ishga yoki o'qishga sababsiz kelmaslik yoki sababsiz ketib qolish; ishga mast holda, spirthi ichimliklar, narkotik moddalar iste'mol qilgan holda kelish va boshqalar.



Jinoyat — jamiyat uchun xayfli bo'lgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik).



Ushbu Kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahlidi bilan jinoyat deb topiladi.

14- moddadan.

Fuqarolik huquqbuzarligi — insonlarning mulkiga yoki shaxsiga qarshi qonunga xilof harakat (yoki harakatsizlik) natijasida yetkazilgan zarar. Masalan, bir shaxsdan qarz olib, uni vaqtida qaytarmaslik; shartnomalarni, majburiyatlarni bajarmaslik va boshqalar.

Jinoiy huquqbuzarlik — jinoyat sodir etish, ya'ni o'g'rilik, talonchilik, odam o'ldirish, ichki ishlar xodimiga qarshilik ko'rsatish va boshqalar.

Ma'muriy huquqbuzarlik — qonunga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, fuqarolarga, tabiiy muhitga nisbatan (qasddan yoki ehtiyyotsizlikdan) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik. Masalan, mayda bezorilik; yo'l harakati va transport vositalaridan foydalanish qoidalari; pasport tizimi va qayd etish qoidasi (harbiy va pasportni ro'yxatdan o'tkazish qoidalari); elektr energiyasidan foydalanish qoidalari buzish, atrof-muhitni, tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish sohasidagi huquqbuzarliklarni olish mumkin.

Huquqbuzarlik tushunchasini chuqurroq o'rganish uchun huquqbuzarlikning obyekti va subyektini farqlay olishga o'rganishimiz lozim.

Huquqbuzarlik obyekti — huquq bilan tartibga solinadigan va muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlar. Ijtimoiy munosabatlar o'zi nima, — degan savolga quyidagicha javob berish mumkin. Odamlar ijtimoiy hayotda o'z xatti-harakatlariga javob berishga majburlar. Ular ijtimoiy hayotda bir-birlari bilan o'zaro munosabatga kirishadilar. Aynan mana shu munosabatlar — ijtimoiy munosabatlar.

Huquqbazarlik subyekti esa, huquqqa zid aybli qilmishni sodir etgan shaxsdir. Aynan shu shaxs **huquqbazar** deb ataladi.

Har qanday shaxs ham huquqbazar deb tan olinavermaydi. Huquqbazarlik subyekti deb tan olinishi uchun shaxs o‘z qilmishiga javob bera oladigan, aqli raso bo‘lishi shart.

Sharhlang!

Qariyb har doim inson oldida huquqqa mos yoki huquqqa zid tarzda harakat qilishni tanlash imkonи bo‘ladi. Agar u ikkinchi yo‘lni tanlasa, bu birinchi navbatda uning o‘ziga, qolaversa, jamiyatga zarar yetkazadi.

Ijodiy faoliyat

Kichik bir hikoya tuzing. Bu hikoyangizda huquqbazarlik tushunchasini, huquqbazarlikning asosiy belgilarini, huquqbazarlik turlarini ifodalovchi holatlarni tasvirlang.

Bunda sinfigizdagи o‘rtoglarингiz bilan to‘rt guruhga bo‘linib, bir guruhingiz intizomiy, ikkinchi guruh fuqarolik, uchinchi guruh jinoiy, to‘rinchi guruh ma’muriy huquqbazarlikka oid holatlarni tasvirlasin.

Hikoyalaringizni sifdoshlarингizga o‘qib bering. Boshqa guruхlar hikoyasini taqdim qilgan guruhga savollar berib munozara qilsin.

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Huquqbazarlik tushunchasiga ta’rif bering.
2. Huquqbazarlikning qanday belgilari mavjud?
3. Ijtimoiy xavflik qanday holatlarda vujudga kelishi mumkin?
4. Huquqqa zidlik atamasini qanday tushunasiz?
5. Ayblilik nima degani?
6. Jazolanish, javobgarlik va jazo tushunchalariga oydinlik kiring.
7. Huquqbazarlikning qanday turlari mavjud?
8. Intizomiy huquqbazarlik bilan fuqarolik huquqbazarligi, ma’muriy huquqbazarlik bilan jinoiy huquqbazarlik o‘rtasidagi farqlarni bayon qiling.
9. Sizning fikringizcha, huquqbazarlikning qaysi turlari eng og og‘ir hisoblanadi? Nima uchun?
10. Huquqbazarliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun qanday choralar ko‘rilishi kerak deb hisoblaysiz?

23- mavzu

Yuridik javobgarlik

Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining kunlik nazorat natijalariga ko'ra, 2017- yil oktabr oyidan 2018- yil oktabr oyigacha bo'lgan davrda Toshkent shahrida qonun talablari buzilgan 14 ming 733 holat aniqlangan. 2017- yilda mansabdar shaxslar tomonidan sanoat chiqindilarini tashish masalasida 48 marta, yo'q qilishda 7 marta qonunbuzarlik holatiga yo'l qo'yilgan. Maishiy chiqindilarni tashishda fuqarolar o'rtasida 90 marta qonunbuzarlik holati vujudga kelgan.

Shuningdek, 2017- yilning dekabr – 2018- yil may oylari oraliq‘ida chiqindilar bilan ishlashda qonun buzilishiga yo'l qo'ygan 517 fuqaro javobgarlikka tortilib, ularga 93,1 million so‘m jarima solingan.

Jamiyat, 2018- yil, №41

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 128- moddasiga ko'ra, haydovchilarning tashqi yoritish asboblaridan foydalanish qoidalarini buzishi, xuddi shuningdek, yo'lovchilarga loyqa sachratishi eng kam ish haqining ikkidan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi (101 365 so‘m).

Xuddi shunday huquqbazarlikni ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin bir yil davomida takror sodir etish – eng kam ish haqining bir baravari miqdorida (202 730 so‘m), shunday huquqbazarlikni ikki marta ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish – eng kam ish haqining uch baravari miqdorida (608 190 so‘m), xuddi shunday huquqbazarlikni uch marta va undan ortiq ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish – eng kam ish haqining to‘rt baravari (810 920 so‘m) miqdorida jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquqidan – olti oy muddatga mahrum etishga sabab bo'ladi.

“Adolat ko‘zgusi”, 2019- yil, №20

Nodir Matnazarov hamda Olim Bozorov (ism-familiyalar o‘zgartirilgan) Uchtepa tumani Lutfiy ko‘chasida joylashgan oshxona atrofida 8 ming AQSH dollarini qonunga xilof ravishda 68.400.000 so‘mga sotayotganida “qopqon”ga tushdi. Xorij valutasi bilan noqonuniy savdo-sotiq qilgancha nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atildi.

“Attang, bunday bo‘lishini bilmabman”, deya afsusda ular.

Aytish kerakki, huquqbuzurlar daromad olish maqsadida qonun talablarini buzgan. Dollar oldi-sotdisidan pul ishlab olaman deganlarning savdosi “pishmadi”. Oqibati esa xunuk bo‘ldi.

Xorij valutasi savdosi bilan shug‘ullanuvchi shaxslarga nisbatan hujjat rasmiylashtirildi. Ularning ikkalasi ham jazoga tortildi.

8 ming AQSH dollari esa davlat hisobiga o‘tkaziladigan bo‘ldi.

Toshkent oqshomi, 2019- yil, №83

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

- Yuqoridagi parchalarda keltirilgan huquqbazarliklar, ko‘rib turganingizdek, har xil sohalarga taalluqli. Lekin, ayting-chi, ularning qanday umumiy jihatlari bor?*
- Keltirilgan parchalardagi huquqbazarliklar uchun qanday jazo choralarini qo‘llash kerak deb o‘ylaysiz?*
- Bu jazo choralarini qo‘llash huquqbazarlikni sodir etgan shaxslarning kelgusida bunday xatti-harakatlar qilmasliklarining oldini ola oladimi? Javobingizni asoslang*
- Parchalarda bir vaqtning o‘zida bir necha turdagи jazoga loyiq huquqbazarlikka misol bormi? Javobingizni asoslang.*

Huquqbazarlik uchun jazoning muqarrarligi, har qanday huquqbazarlik ma’lum bir javobgarlik bilan bo‘g‘langanligi tabiiy hol. Lekin **ijtimoiy javobgarlikning barcha shakllari** ham doimo huquqiy javobgarlik bilan aynan bir xil emas.

Huquqiy normalarga asoslangan va davlat majburlov normalari bilan bog‘liq bo‘lgan javobgarlik yuridik javobgarlikni tashkil qiladi va aynan shu javobgarlikni o‘rganish huquqshunoslik fanining vazifalaridan biridir.

Yuridik javobgarlikka asos bo‘lib huquqbazarlik, ya’ni huquqiy normalarni buzish hisoblanadi.



Yuridik javobgarlik – huquqbazarlikni sodir etgan shaxsning huquq normalariiga asoslangan, o'z qilmishi uchun javob berishi, davlat majburlov choralari ko'rinishidagi oqibatlarga duchor bo'lishi va ularni boshidan kechirishidir.

Huquqbazarlik turlari yuridik javobgarlik turlariga mutanosibdir:

- ♦ fuqarolik huquqbazarligi – fuqaroviy (moddiy) huquqiy javobgarlikni;
- ♦ ma'muriy huquqbazarlik – ma'muriy javobgarlikni;
- ♦ intizomiy huquqbazarlik – intizomiy javobgarlikni;
- ♦ jinoiy huquqbazarlik – jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Yuridik javobgarlik sud tartibida, ma'muriy tartibda yoki intizomiy tartibda amalga oshiriladi.

Yuridik javobgarlikning ikki turi farqlanadi:

- 1) Jarima yoki jazo;
- 2) Huquqni tiklovchi javobgarlik.

Jarima yoki jazo turi o'z navbatida quyidagilardan iborat:

Vakolatli organ qonun assosida huquqbuzarga nisbatan yuridik javobgarlik choralarini qo'llaydi. Bu choralar ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, tartibga solish va muhofaza qilishga qaratilgandir.

Yuridik javobgarlik quyidagi tamoyillarga asoslanadi: qonuniylik; adolatparvarlik; jazoning muqarrarligi; maqsadga muvofiqlik; bag'rikenglik; ayb uchun javobgarlik; huquqbuzarning bitta huquqbazarlik uchun bir necha tomonlama javobgarlikka tortilishiga yo'l qo'yilmasligi.

Intizomiy — O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 181- moddasiga binoan quyidagi turlardan iboratdir:

- ♦ hayfsan; jarima solish; mehnat shartnomasini bekor qilish.

Intizomiy jazolar ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslar (organlar) tomonidan qo'llaniladi.

Fuqaroviy — fuqarolik huquqbazarligi uchun aybdor shaxsning to'liq moddiy va ma'naviy javob berishidir.

Ma'muriy jazolar quyidagilar:

- ♦ jarima; haqini to'lash sharti bilan buyumni olib qo'yish; buyumni musodara qilish; maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum qilish; ma'muriy qamoq: 3 sutkadan 15 sutkagacha, ayrim hollarda 30 sutkagacha.

Jinoiy jazolar — Jinoyat Kodeksining 43- moddasiga binoan, quyidagilar:

- ♦ jarima; muayyan huquqdan mahrum qilish; axloq tuzatish ishlari; xizmat bo'yicha cheklash; qamoq; intizomiy qismga jo'natish; ozodlikdan mahrum qilish.

Mahkumlarga asosiy jazolardan tashqari quyidagi qo'shimcha jazo choralar ham belgilanadi:

- ♦ harbiy yoki maxsus unvonlardan mahrum qilish;
- ♦ huquqni tiklash javobgarligi – nohaq buzilgan huquqlarni tiklash, bajarilmagan majburiyatlarni majburlab bajartirishdan iborat.

Bunda huquqbazarlik sodir etgan shaxs davlat organlarini aralashtirmsadan, o'z tashabbusi bilan, buzilgan huquqlarini o'zi tiklashi mumkin. Lekin, shunda ham unga nisbatan qo'shimcha jazo choralar ko'riliishi mumkin.

Hikmatlar xazinasidan!

Qattiq jazo choralarini qo'llab, jinoyat uchun o'zaro javobgarlik tizimi joriy etilganida odamlar o'zlarida qonun kuchini sinab ko'rishga jur'at qila olishmaydi.

(Shan Yan)

Sharhlang!

Qonunlar davr taqozosi, zamona so'rovi tufayli yuzaga keladi, ehtiyoj va zarurat zamirida yaraladi. Ehtiyoj va zarurat esa sharoit yetilsagina hosil bo'ladi. Ana shu sharoit (zamirida) jinoyatga yarasha jazo tayinlash amaliyoti ham takomillashib borishi tabiiydir.

Ijodiy faoliyat

"Huquqbazarlik tushunchasi" mavzusi oxirida berilgan "Ijodiy faoliyat" rukni ostida tuzgan hikoyangizdagi huquqbazarliklar uchun siz tuzgan Sharqli davlatningiz qonunchiligiga asoslanib jazo choralar belgilang.

Bunda huquqbazarlik uchun jazo muqarrarligi tamoyili bilan bir qatorda "bag'rikenglik" tamoyilini ham yoddan chiqarmang!



2008- yilning 1- yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi bekor qilinib, uning o'rniqa umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosini joriy etish belgilandi.



Jamiyat hayotini idora etishda ma'lum bir huquqiy usullarning mavjudligi shu jamiyatdagi madaniy-ma'naviy ahvol, ijtimoiy adolat darajasidan dalolat beradi. Shu ma'noda tarixiy-madaniy taraqqiyotimiz uchun an'anaviy bo'lmish qonunchilikning tuzukchilik shakli o'sha qadim zamonlardanoq ijtimoiy hayotda o'z o'rmini topgan. Xitoy tarix-chilarining ma'lumotlariga ko'ra xoqonlik alohida muhofazada turadigan "Turkiy tuzuk"lar (qonunlar majmuasi) asosida tartibga solingan va har bir qilingan qonunbazarliklar, jinoyatlar uchun jazolar belgilangan.

Tuzukchilik — qonunchilik amaliy hayotga bog'liq holda shakllanib borgan. Masalan, jinoyatchi biron kimsaning ko'ziga ziyon yetkazgan taqdirda, belgilangan javobgarlikka ko'ra ayblanuvchi jabrlanganga o'z qizini, qizi bo'lmasa, ayolining mol-mulkini berishi shart qilib qo'yilgan. Xullas, jamiyat va davlatni qonunlar asosida boshqarish hamda mamlikat aholisining qonunlarga so'zsiz amal qilish an'anasi o'z davriga xos ravishda davom etgan hamda takomillashib borgan.

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Yuridik javobgarlik deganda nimani tushunasiz?
2. Yuridik javobgarlikning qanday turlari mavjud?
3. Yuridik javobgarlikka nima asos bo'lib xizmat qiladi?
4. Yuridik javobgarlik qanday tartibda amalga oshiriladi?
5. Intizomiy jazo qay holatlarda belgilanadi? Uning qanday turlari mavjud?
6. Fuqaroviylar javobgarlik qanday hollarda qo'llanishini aytинг.
7. Ma'muriy javobjarlikka qanday turdag'i jazolar kiradi?
8. Jinoiy javobgarlikning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Yuridik javobgarlikka tortish kim tomonidan amalga oshiriladi?
10. Yuridik javobgarlik qanday tamoyillarga asoslanadi?

24- mavzu**Huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari**

Prokuratura

Adliya vazirligi

Ichki ishlar vazirligi

Davlat xavfsizlik xizmati

Davlat soliq qo'mitasi

Davlat bojxona qo'mitasi

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

- 1. Nomlari keltirilgan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qaysi biri bo'yicha sizda ma'lumotlar bor? Sinfdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.*
- 2. Agarda siz o'z velosipedingizni o'g'irlatib qo'ysangiz, siz zudlik bilan kimga murojaat qilasiz?*
- 3. Jinoyatchini sudlov paytida kim ayblaydi ("qoralaydi")?*
- 4. Xuddi shu jinoyatchini kim himoya qiladi ("oqlaydi")?*
- 5. Dadangiz avtomashinasini sotmoqchi bo'lsa, qaysi idoraga murojaat qiladi?*
- 6. Nomlari keltirilgan idoralarni nima sababdan umumlashtirib "huquqni muhofaza qiluvchi organlar" deb ataymiz?*

Huquqni muhofaza qiluvchi davlat organi — bu qonun yo'li bilan tashkil etiluvchi, o'z tuzilishiga, ijtimoiy hayotda qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlash bo'yicha aniq belgilangan vakolatga ega bo'lgan davlat organidir.

Qonunga binoan, O'zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari tizimini, asosan, quyidagilar tashkil qiladi:

- ◆ Prokuratura va prokuratura organlari;
- ◆ Adliya vazirligi va adliya organlari;
- ◆ Ichki ishlar vazirligi va ichki ishlar organlari;
- ◆ Davlat xavfsizlik xizmati;
- ◆ Davlat soliq qo'mitasi va soliq organlari;
- ◆ Davlat bojxona qo'mitasi va bojxona organlari.



Prokuratura huquqni muhofaza qilish idoralari tizimida alohida o'rinni egallaydi. Prokuratura organlari va ularning xodimlari hisoblangan prokurorlarning vazifalari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini, Konstitutsiyaviy tizimni himoya qilish;
- jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash;
- huquqbuzarliklarning oldini olish, aniqlash va qarshi kurashish;
- xususiy mulk va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;



"Prokuror" fransuzcha so'z bo'lib, "qoralovchi" degan ma'nini anglatadi. Lekin lotinchada bu so'z "g'amxo'rlik qilish" ma'nosini anglatadi.

Prokuraturaning bosh vazifasi — qonun ustuvorligini qaror toptirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat tuzumini, davlat va fuqarolarning mulklarini turli jinoyatchilar, huquqbuzarlardan himoya qilish. Prokuror nazorati davlat nomidan, davlatning oliv organi bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga nomidan amalga oshiriladi.

O'z yo'naliishlari bo'yicha ish olib borayotgan prokuratura tizimining bugungi kundagi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh prokururasi, Toshkent shahri prokururasi, viloyat prokuraturalari, shaharlar va tumanlar prokuraturalari, boshqa ixtisoslashtirilgan prokuraturalar kiradi.

So'nggi yillarda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar doirasida prokuratura tizimida ham tub yangilanishlar ro'y berdi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan prokuratura organlarining qonunchilikni mustahkamlash, qonunlarga so'zsiz itoat qilinishini ta'minlash, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, demokratik huquqiy davlatni shakllantirish, xususiy mulk va tadbirkorlikning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, himoya qilish bo'yicha mas'ul ekanliklari alohida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 29- maydag'i farmoniga asosan Bosh prokuratura huzurida Majburiy ijro byurosi tashkil etildi va uning zimmasiga energiya resurslari uchun to'lovlarini o'z vaqtida va to'liq undirish, elektr va gaz tarmoqlariga noqonuniy ulanish hamda

talон-tarоjlikning oldini olish, sud xujjalari va boshqa xujjatlarning ijrosini so‘zsiz ta‘minlash vazifalari yuklatildi.

Majburiy ijro byurosi tomonidan undirilgan mablag‘lar elektr va gaz tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlarini ishga tushirish, aholining turmush darjasи va farovonligini oshirish kabi maqsadlarga yo‘naltirilishi nazarda tutilgan.



O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'y sunuvchi prokurorlar amalga oshiradi.

118- modda.

Prokuratura organlarini tashkil etish, ularning faoliyat yuritish tartibi va vakolatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuni asosida belgilanadi.



O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimining muhim bo‘g‘inidir. U O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tizimi, suvereniteti, hududi yaxlitligi manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qiluvchi vakolatli organ sifatida faoliyat yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 14- martdagи “O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatiga aylantirildi. Bunda har qanday, hatto kichik ko‘lamdagi muammo ham mamlakatning milliy xavfsizligiga dahli bordek bu maxsus xizmat masalalari doirasiga kiritilishi va uning vakolatlarini haddan tashqari kengaytirib yuborilishiga yo‘l qo‘ymaslik farmonda nazarda tutilgan muhim jihatlardandir. Davlat xavfsizlik xizmati davlat ahamiyatidagi haqiqiy tahdidlarnigina o‘z vakolat doirasida deb qarashi hamda ularning oldini olish, aniqlash va ularga qarshi kurashishni o‘zining maqsad va vazifasiga aylantirishi bu farmonda belgilab qo‘yilgan. Ya’ni, ushbu farmon xavfsizlik xizmati sohasidagi tub islohotlarga asos soldi deb aytsa bo‘ladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati 2018- yil 5- aprelda qabul qilingan “Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi qonun asosida faoliyat yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- mamlakat davlat xavfsizligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish. Bu sohadagi qonunbuzarliklarning oldini olish, aniqlash va barham berish. Bu borada razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirish;
- mamlakat davlat chegaralarini qo‘riqlash va himoya qilish;
- davlat xavfsizligiga va manfaatlariga tahdid solishi mumkin bo‘lgan millatlararo irqiy va diniy adovatga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan buzg‘unchilik faoliyatining oldini olish, aniqlash va barham berish;
- terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik kabi illatlarning oldini olish, aniqlash va barham berish;
- qurol-yarog‘, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomaliasiga qarshi kurashish;
- davlat siri bilan bog‘liq joylarda bu sirlarning saqlanishi, maxsus aloqa hamda axborot xavfsizligini ta’minalash ustidan nazoratni amalga oshirish;
- davlat manfaatlari va xavfsizligiga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaga qarshi kurash olib borish;
- iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy, tarixiy-madaniy, ma’naviy sohalarda davlat manfaatlari va xavfsizligi bilan bog‘liq hamda o‘z vakolatlari doirasida bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanish.



O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi davlat boshqaruvi organi bo‘lib, soliq sohasidagi qonun xujjalariiga rioya qilinishini, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlari himoyasini ta’minalash bo‘yicha nazoratni yo‘lga qo‘yish uning asosiy faoliyat maqsadlaridandir.

Davlat soliq qo‘mitasining asosiy vazifalari quyidagilardir:

- soliq sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;

- soliqlarning to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisoblanishi, to‘lanishi va davlat budjeti hamda davlat maqsadli jamg‘armalariga tushishini ta’minlash;
- soliq solish obyektlari va subyektlarining to‘liq va aniq hisobini yuritish;
- soliq solinadigan bazani kengaytirish, soliqlarning yig‘iluvchanligini oshirish, soliq sohasidagi huququzarliklarga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Shu va shunga o‘xshash vazifalarni bajarishda Davlat soliq qo‘mitasi Soliq kodeksiga og‘ishmay amal qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari natijasida 2019- yil 1- yanvardan boshlab yangilangan, xalqaro tajribani e’tiborga olgan holda yaratilgan soliq tizimi amalga kiritildi. Bunda soliqlar soni kamaytirildi, soddalashtirildi. Soliq to‘lovchilar uchun soliq yuki birmuncha yengillashtirildi.



O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha bosh-qarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlaridan iborat bo‘lgan bojxona organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlardir. Ular O‘zbekiston Respublikasining yagona bojxona siyosatini amalga oshirishga mas‘uldirlar. Bojxona organlarining asosiy maqsadi mamlakatimiz iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Bojxona organlari o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi qonuniga, boshqa qonun hujjatlariga va xalqaro shartnomalarga amal qilgan holda yuritadilar.

Bojxona organlarining asosiy vazifalaridan bojxona haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish, bojxona to‘lovlarini undirish, bojxona sohasidagi huququzarliklarning oldini olish, aniqlash va ularga chek qo‘yish kabilarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar bojxona sohasini ham chetlab o‘tmadi. Natijada mamlakatimizda tubdan yangilangan, zamonaviy, xalqaro andozalarga mos bojxona tizimi yaratilmoqda.

Hikmatlar xazinasidan!

Dono vazir shuldirkni, o‘z o‘rniga qarab, goh qattiqqo‘llik, gohida esa muloyimlik bilan ish yuritadi. Bunday vazir ortiqcha qattiqqo‘llik ham qilmaydi, ko‘p muloyimlik bilan yumshab ham ketmaydi. Agar ko‘p muloyimlik qilsa, dunyo talab, tamagir odamlar uni yutib yuboradilar. Agar ortiqcha qattiqqo‘llik ishlatsa, undan qochadilar va unga murojaat qilmaydilar. Demak, dono vazir shuldirkni, sultanat korxonasining ishlarini eng to‘g‘ri chora-yu tadbirlar qo‘llab, yaxshi anglagan holda amalga oshirib, davlatni tartib-intizomga keltiradi. *(Amir Temur)*

Ijodiy faoliyat

Tuzgan shartli davlatingizda:

1. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qaysi birlarini zarur deb topsangiz shularni joriy qiling.
2. Prokuraturaga qanday vazifalar yuklaysiz va vakolatlar berasiz?
3. Ichki ishlar organlariga-chi?
4. Davlat xavfsizlik xizmatiga-chi?
5. Davlat soliq organlariga-chi?
6. Davlat bojxona organlariga-chi?

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qanday organlarni biz huquqni muhofaza qiluvchi organlar deb ataymiz?
2. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga qaysi organlar kiradi?
3. Prokuraturaning bu tizimda qanday o‘rnii bor?
4. Davlat tomonidan Prokuraturaga qanday vazifalar yuklatilgan?
5. Ichki ishlar organlari qanday vazifalarni bajaradi?
6. Ichki ishlar organlari qanday vakolatlarga ega?
7. Davlat xavfsizlik xizmati qanday organ?
8. Davlat xavfsizlik xizmati qanday vazifalarni bajaradi?
9. Davlat xavfsizlik xizmati tizimidagi islohotlar haqida nimalarni bilasiz?
10. Davlat soliq tizimidagi islohotlar to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
11. Davlat bojxona organlari to‘g‘risida bilganlaringizni aytинг.

25- mavzu

Adliya vazirligi. Advokatura va Notarial idoralar



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Siz Adliya vazirligi haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
2. Tumaningiz (shahrингиз)da tuman (shahar) adliya bo'limi ochilganligidan xabaringiz bormi? Bu bo'lim qanday faoliyat bilan shug'ullanishini bilasizmi? Bilganlariningizni sinfdoshlariningiz bilan o'rtoqlashing.
3. Davlat xizmatlari markazi haqida nimalarni bilasiz?
4. Bu markazning aholiga yaratgan qulayliklari haqida fikr bildiring.
5. Advokatura yoki advokatlar haqida nimalarni bilasiz?
6. Notarial idoralar yoki notariuslar haqida chi?



Mamlakatimiz huquqini muhofaza qiluvchi o'rganlari tarkibida adliya o'rganlari alohida o'rinn tutadi. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan huquqiy isloxoxtolar natijasida adliya o'rganlarining davlatimiz va jamiyatimizdagi o'rni va mavqeい yanada oshdi.



“Adliya” so‘zi arabchada “adolat, to‘g‘rilik, haqqoniylik” ma’nolarini bildiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya o‘rganlari va mussasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni asosida adliya sohasida vertikal boshqaruvni takomillashtirish maqsadida tumanlar (shaharlar) adliya bo‘limlarining tashkil etilishi belgilab qo‘yildi. Natijada mamlakatimiz adliya o‘rganlari tizimi quyidagicha ko‘rinishni oldi:

- O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi;
- viloyatlar adliya boshqarmalar;
- Toshkent shahar adliya boshqarmasi;
- tuman (shahar) adliya bo‘limlari.

Adliya vazirligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat qurishda davlat siyosatini, qonunlarni ishlab chiqishni sifatli tashkil etish, huquqiy normalarni hayotga to‘g‘ri va bir xil qo‘llashni amalga oshiruvchi davlat organidir.

Adliya organlari faoliyatiga Adliya vaziri rahbarlik qiladi. U O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanib, hukumat a’zosi hisoblanadi.

Adliya vaziri huquqni ishlab chiqish, qabul qilish sifati va huquq normalari (qoidalari)ni hayotga tatbiq qilish to‘g‘risida har yili Oliy Majlisning Senatiga axborot taqdim etiadi.

Adliya organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- qabul qilingan qonunlar, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni, ahamiyatini ijrochilarga yetkazish, “respublika – viloyat – tuman – mahalla” prinsipi bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlari bilan birgalikda huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish va aholining huquqiy savodsizligiga barham berish;
- Konstitutsiya va qonunlar bilan mustahkamlangan insonning huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta’minlash;
- huquqiy muammolarni o‘rganish hamda huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlash;
- siyosiy partiyalarni ro‘yxatga olish;

- jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatishni ta'minlash, notarial idoralarni, notarius lavozimini tashkil etish va tugatish, notariuslar malakasini oshirish, ularni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;
- advokatlik tuzilmalari va O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi faoliyatini tashkil etish, advokatlarga litsenziya berish;
- yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish ishlarni amalga oshirish.

Adliya vazirligi milliy internet portaliga ega bo'lib, unda huquqiy ma'lumotlar, ya'ni yuridik lug'atlar, elektron huquqiy qo'llanmalar, qonun hujjatlari loyihalarining muhokamasining onlayn forumi mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 9- yanvardagi «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi farmonida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi davlat organi qilib belgilangan.

Siz o'quvchilarning huquqiy ta'lim-tarbiyangizni amalga oshirishda ham adliya o'rghanlarining xissasi kattadir. Xususan, o'quvchi va talabalarning huquqiy bilimlarini uzlusiz oshirib borish uchun o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv materiallari tayyorlanishini tashkil etish adliya o'rghanlari tomonidan amalga oshiriladi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilish kerak” degan ulug'vor g'oyani amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy bo'limmalari tashkil etilgan.

“Yagona darcha” tamoyili asosida uy-joylardagi suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti, yakka tartibda uy-joy qurish uchun ruxsatnomalar olish, turar joyi bo'yicha ro'yxatga olish (propiska), ro'yxatdan chiqarish, turli arxiv ma'lumotnomalari (patentlar), guvohnomalar va rasmiy hujjatlar dublikatlarini olish kabi xizmatlar ko'rsatilmoqda. Natijada Davlat xizmatlari markazlari aholining vaqt va xarajatlarini kamaytirish maqsadida yagona joy sifatida tashkil etildi.

Advokatura — huquqiy institut bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim jismoniy shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy

birlashmalarini o'z ichiga oladi. Advokatura O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda "Advokatura to'g'risida"gi qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'limgan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi.



"Advokat" lotincha so'z bo'lib, "himoyachi", "oqlovchi" degan ma'noni bildiradi.

Advokatlar boshqa turdagи yuridik yordam ko'rsatishlari ham mumkin. Ayrim hollarda ular aholiga bepul yordam ko'rsatadilar.



Advokatura – huquqiy institut (alohida guruh) bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ixtiyoriy, kasbiy birlashmasidir.

Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin. Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslarning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Advokat hakamlik sudlarida ham faoliyat yuritadi.

Advokatlik faoliyatini litsenziyalash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Qonunga ko'ra advokatlar quyidagi turdagи yuridik xizmatlarni ko'r-satadilar:

- yuridik masalalar bo'yicha maslahat berish va tushuntirish, qonunlar bo'yicha og'zaki va yozma ma'lumotlar berish;
- fuqarolik hamda ma'muriy huquqbuzarlik ishlari bo'yicha sud va davlat organlarida vakillik vazifasini bajarish;
- dastlabki tergov va sudda jinoyat ishlari bo'yicha himoyachi, jabrlanuvchilar, fuqarolik ishlari bo'yicha davogar va javobgarlarning vakillari sifatida qatnashish va hokazo.

Belgilangan tartibda litsenziya olgan shaxs advokatlik faoliyatini o‘z advokatlik byurosini ochib, yakka tartibda amalga oshirishga yoxud boshqa advokatlar (sheriklar) bilan advokatlik firmasini yoki a’zolikka asoslangan advokatlar hay’atini tuzishga yoxud faoliyat ko‘rsatayotgan shunday advokatlik tuzilmalaridan biriga kirishga yoki yuridik maslahatxonada ishlagan holda advokatlik faoliyatini amalga oshirishga haqli. Advokat o‘z faoliyatini faqat bitta advokatlik tuzilmasida amalga oshirishga haqli.

Advokatura o‘z faoliyatini qonun ustuvorligi, mustaqillik va boshqa demokratik prinsiplar asosida amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida qonunlar, me’yoriy hujjatlar ijrosini ta’minlashda *notarial idoralar* huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yaqindan yordam beradi. O‘zbekistonda notarial harakatlar “Notariat to‘g‘risida”gi qonun va boshqa qonunlarga muvofiq notarial idoralar notariuslari tomonidan amalga oshiriladi.

Notarial idoralar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tashkil etiladi va tugatiladi. Notarius lavozimiga 25 yoshdan kichik bo‘lmagan, oliy yuridik ma’lumotga va uch yillik yuridik stajga ega bo‘lgan, malaka imtihonini topshirgan O‘zbekiston fuqarosi loyiq topiladi.



Notarial idoralarida ishlovchi mansabdon shaxslar notariuslar deb ataladi, ular bajaradigan ishlar notarial ishlar deb yuritiladi.

Notarial idoralari vazifalari quyidagilar:

- bitimlarni va vasiyatnomalarni tasdiqlaydi;
- er-xotinning umumiyligi mol-mulkidagi ulushga mulk huquqi va merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma beradi;
- meros mol-mulkning qo‘riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko‘radi;
- hujjat nusxa va ko‘chirmalarning to‘g‘riligini shahodatlaydi;
- hujjatning to‘g‘ri tarjima qilinganligini shahodatlaydi;
- hujjatlardagi imzoning haqiqiyligini shahodatlaydi;
- ko‘chmas mulk sotib olinganligi haqida guvohnoma beradi;
- fuqaroning tirik ekanligi faktini tasdiqlaydi; fuqaroning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlaydi; fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlaydi; hujjatlar taqdim etilgan vaqtini tasdiqlaydi;

- pul summalarini va qimmatli qog'ozlarni depozitga qabul qilib oladi;
- hujjatlarni saqlash uchun qabul qilib oladi;
- pul to'lash uchun cheklarni taqdim etadi va cheklar bo'yicha pul to'lanmaganligini tasdiqlaydi.

Notarial harakatlarni amalga oshirilayotganda fuqaro va mansabdar shaxslar tomonidan qonuniylik buzilgani aniqlanganida tashkilotlarga, prokurorga xabar qiladi. Taraflar taqdim etgan bitimlarning mazmunini, asl maqsadga mosligi va qonun talablariga zid kelmasligini tekshiradi. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizm va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog'liq notarial harakatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni maxsus davlat organlariga taqdim etadi.

Ko'chmas mulk, uy-joy, meros, ijara, hadya va oldi-sotdi mulkining qiymati haqidagi ma'lumotlarni, avtovositalarni foydalanish, tasarruf etish uchun ishonchnomalarni, ushbu vositalardan boshqa shaxslarga o'tkazish, ijaraga berish kabi shartnomaga ma'lumotlarini ichki ishlar organiga, vasiyat qilinuvchining vafotidan keyin manfaatdor shaxslarga vasiyatnomaga to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Notarius o'z kasbiy majburiyatlarini buzganligi uchun qonuniy javobgar bo'lishi mumkin.

Notariat idoralari avtomatlashtirilgan yagona axborot tizimi orqali notarial harakatlarni bajarish imkoniga ega.

Hikmatlar xazinasidan!

Inson tarbiyasining darajasi boshqaning huquqini hurmat qilish bilan belgilanadi. *(Muhammad Kamol Pilav)*

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston respublikasi Adliya vazirligi qanday organ?
2. Adliya organlari tizimi tarkibini aytинг.
3. Adliya organlarining asosiy vazifalarini sanab bering
4. Davlat xizmatlari markazlari qanday maqsadlarda tashkil qilingan?
5. Advokatura qanday organ? Uning qanday vazifalari bor?
6. Notarial idoralar-chi? Ularning qanday vazifalari bor?
7. Advokatlar qanday xizmatlarni ko'rsatadilar? Notariuslar-chi?

26- mavzu

QUROLLI KUCHLARI VA YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH.



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. *Qurolli Kuchlar deganda nimani tushunasiz?*
2. *Siz yoki sinfdoshlarining akalari harbiy xizmatda bo‘lganmi? Ularning xizmati haqida suhbat quring.*
3. *Askarlik burchi iborasini siz qanday tasavvur qilasiz?*
4. *Armiya atamasining ma’nosini bilasizmi?*
5. *Siz ta’lim olayotgan maktabda harbiy vatanparvarlikka bag‘ishlangan qanday tadbirlar o’tkaziladi?*

O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasi suverenitetini, hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish, urushlar va qurolli mojarolarning oldini olish, zarur bo‘lganda qaytarish uchun davlat tomonidan tashkil etiladi va ushlab turiladi. Qurolli kuchlar o‘z ichiga harbiy birlashmalar, qo’shilmalar va qismlarni o‘z ichiga oladi.

Qurolli Kuchlarning uchta belgisini bilishimiz kerak:

Birinchidan, Qurolli Kuchlar qonunchilikda mustahkamlangan o'z tuzilishi va vazifalariga ega bo'lgan davlat tashkilotidir.

Ikkinchidan, Qurolli Kuchlar harbiy tashkilot bo'lib, harbiylarni birlashtiradi, quroll kuchiga ega bo'ladi.

Uchinchidan, Qurolli Kuchlar taktik tezkorlik va strategik miqyoslarda urush va harbiy harakatlar olib borishga mo'ljallangan maxsus harbiy tashkilotdir.



“Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojarov va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan doimiy ogoh va hushyor bo'lishni talab etmoqda. Shu borada O'zbekiston chegaralarining xavfsizligi va daxlsizligini ta'minlash, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yurtimiz ostonosiga hech qanday balo-qazoni yaqin keltirmaslik kabi hal qiluvchi vazifalar hamisha diqqatimiz markazida bo'ladi”.

Sh.Miziyyoyev

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitiligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi.

Qurolli Kuchlar davlat harbiy tashkilotining va mamlakat mudofaa tizimining negizi bo'lib, harbiy mojarolarni jilovlash hamda ularning oldini olish, shuningdek, davlatning harbiy xavfsizligini ta'minlash uchun tashkil etiladi. Qurolli Kuchlarning faoliyati, vazifalari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Mudofaa doktrinasini to'g'risida”gi qonuni va boshqa huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Qurolli Kuchlar tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Davlat xavfsizlik xizmatining va boshqa idoralarning tegishli boshqaruv organlari, qo'shnilar, harbiy tuzilmalar, shuningdek Milliy gvardiya kiradi.

Mamlakat mudofaasiga va Qurolli Kuchlariga rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning Oliy bosh qo'mondoni, amalga oshiradi.

Harbiy xizmat – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurlli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatini bajarishdagi davlat xizmatining alohida

turidir. Harbiy xizmatga o‘n sakkiz yoshga to‘lgan, salomatligiga ko‘ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o‘tashga yaroqli fuqarolar chaqiriladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy bosh qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan “Armiya va xalq birligi” tamoyiliga tayanib, respublika maktablaridan tortib oliy ta’lim muassasalarigacha o‘ziga xos noyob — uzlusiz harbiy — vatanparvarlik ta’limining yaxlit tizimi yaratildi. Yangi Qurolli Kuchlar akademiyasi shakllantirildi, harbiy bilim yurtlari faolyati takomillashtirildi. Qurolli Kuchlar tizimida Yoshlar Ittifoqi birlamchi bo‘linmalari tuzildi. Bu vazifalarning bajarilishini ta’minlash maqsadida “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tariyalash to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23- fevraldagi qarori qabul qilindi.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasining mazmunini ona Vatanimizni ko‘z qorachig‘idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish, O‘zbekistonning haqiqiy vatanparvar fuqarolarini voyaga yetkazish tashkil etadi. Har bir yosh fuqaro ongida Vatanga sadoqat, Vatan himoyasi sharaflı va muqaddas burch ekani, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan fikrlashish, milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma’nан yetuk yoshlar zarurligi va harbiy xizmat har bir O‘zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekanligini anglash har bir yosh fuqaroning asosiy vazifasidir.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich, 3–17 yoshdagи bolalarga atrofimizdagi olam, Vatan haqidagi dastlabki tushunchalar oilada va maktabgacha ta’lim muassasalarida she‘r, qo‘shiqlar, multfilm, o‘yinlar o‘ynash va rasmlar chizish orqali davlat ramzlariga hurmat va ona yurtiga muhabbat shakllantirilib boriladi.

Ikkinci bosqich, 7–16 yoshdagи o‘quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash. Ularni ona yurti oldidagi farzandlik burchini bajarish uchun tayyorlash. Ularda Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan akalariga havas uyg‘otish. Harbiy xizmatni orzu qilgan har bir yosh bolalikdanoq jismoniy baquvvat bo‘lishi, muntazam sport bilan shug‘ullanishi, maktabdagi barcha fanlarni puxta o‘rganishi, bo‘sh vaqt dan unumli foydalanishi va “Yosh kitobxon” kabi tanlovlarga qatnashish, yutuqlarga erishishga intilishi lozim. O‘quvchilarni “Temurbekning vorislari”, “O‘zbekistonning farzandlari botir bo‘lur” kabi harbiy sport musobaqalarida faol ishtiroy etishlari talab etiladi.

Uchinchi bosqich, 16–18 yoshdagi yoshlarni Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlash. Ularga milliy armiyamiz uchun jismonan baquvvat va ma'nан yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmatning ahamiyati hamda Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar haqida ko'rgazmali vositalar orqali ma'lumotlar berib borish.

To'rtinchi bosqich, 18–30 yoshdagi yoshlarni har tomonlama yetuk, ota-onva Vatanga sadoqatli insonlar etib tarbiyalash, Vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lish va Qurolli Kuchlar safida xizmat burchini o'tayotgan yoshlar bilan faxrlanish, konstitutsion burch va harbiy qasamyodga sodiqlik tuyg'ularini shakllantirib borish.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasida belgilanganidek, o'z tanlagan kasbingizni puxta egallashingiz va etuk mutaxassis bo'lib, etishish uchun bo'sh vaqt ni mazmunli o'tkazishingiz lozim. "Yosh kitobxon" tanlovida qatnashishga harakat qilib, ilmiy va badiiy adabiyotlarni mutolaa qilishingiz sizni vatanparvar, fidoyi, botir va xushyor bo'lishga undaydi.



O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar.

52-modda.

Harbiy vatanparvarlik Vatandan g'ururlanish, porloq kelajakka ishonch ruhini ifoda etadi. "Vatan" atamasi aslida arabcha so'z bo'lib, "ona yurt" ma'nosini bildiradi. Vatan tushunchasi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng ma'nodagi tushunchadir. Kishi tug'ilib o'sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor ma'nodagi tushunchadir. "Vatan" va "vatanparvarlik" tushunchalari hamisha yonma-yon keluvchi ajralmas tushunchalardir. Vatanparvarlik shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, Vatanidan g'ururlanishi, bugungi kuni haqida qayg'urishi, o'z Vatanining porloq kelajagiga ishonchini ifoda etuvchi yuksak fazilat sanaladi. Biz ishonamizki, siz buyuk jasur ajdodlarimizga munosib voris va Vatanning haqiqiy himoyachilari bo'lib ulg'ayasiz.

Sharhang!

“Harbiy xizmat jarayonida har bir yosh askar bilan alohida ish olib borishimiz, ularni avvalo, Jalolliddin Manguberdi va Amir Temur kabi buyuk, jasur ajdodlarimizni munosib vorislari, ona Vatanni haqiqiy himoyachilari etib tarbiyalashimiz darkordir”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Ijodiy faoliyat

“Cherik” (qo‘sish, harbiy tuzilma) navkar olmakda uch qoidaga amal qildim:

- *birinchidan, yigitning kuch-quvvatiga;*
- *ikkinchidan, qilichning o‘ynata olishiga;*
- *uchinchidan, aql-zakovatiyu kamolotiga.*

Shu uch fazilat jamuljam bo‘lsa, navkarlik xizmatiga oldim. Negaki, kuch-qudratli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azob-uqubatlarga chidamli bo‘ladi, qilich o‘ynata oladigan kishi raqibini mag‘lub eta oladi, oqil navkar har joyda aql-idrokini ishga solib, mushkulotini bartaraf etmog‘i mumkin.

Amir Temur

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qurolli Kuchlar qanday davlat tashkiloti hisoblanadi?
2. Qurolli Kuchlar tarkibi nimalardan iborat?
3. Qurolli Kuchlarga rahbarlikni kim amalga oshiradi?
4. Kimlar harbiy xizmatga chaqiriladi?
5. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiysi nima maqsadda qabul qilindi?
6. Konsepsiyaning bosqichlari va vazifalarini izohlab bering.
7. Amir Temur qaysi shartlar asosida yigitlarni navkarlikka tanlab olgan?
8. Siz Vatanni himoya qilish va haqiqiy askar bo‘lish uchun o‘zingizni qanday tayyorlashingiz kerak?

Bob bo'yicha umumiylar uchun savollar va topshiriqlar

1. Huquqbazarlik tushunchasiga ta'rif bering.
2. Mamlakatimiz qonunchiligidagi huquqiy javobgarlik nechta va qanday turlarga ajratilgan?
3. Prokuraturaning huquq tizimidagi o'rni qanday?
4. Jinoyat sodir etilganida surishtiruv ishlarini olib borish bo'yicha qanday organlar vakolatga ega?
5. Adliya vazirligining qanday organlari mavjud?
6. Ijtimoiy xavfllik qanday holatlarda vujudga kelishi mumkin?
7. Huquqqa ziddlik atamasini qanday tushunasiz?
8. Ma'muriy javobjarlikka qanday turdag'i jazolar kiradi?
9. Jinoiy javobgarlik nima? U qanday huquqbazarlik hollarida qo'llanadi va uning eng asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
10. Notarial idoralar qanday vazifalarni bajaradi? Notarius deganda nimani tushunasiz?

Atamalarga mos ta'riflarni belgilang.

1. Prokurator

2. Huquqbazarlik

3. Jinoyat

4. Advokatlar kollegiasi

5. Advokat

a) – lotincha so'z bo'lib, "himoyachi", "oqlovchi" degan ma'noni bildiradi.

b) – jamiyat uchun xayfli bo'lgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik).

d) – fransuzcha so'z bo'lib, "qoralovchi" degan ma'noni anglatadi.

e) – o'z xatti-harakatini tushunadigan va unga javob bera oladigan shaxsning huquqqa zid xatti-harakatidan kelib chiquvchi aybi.

f) huquqiy institut (alohida guruh) bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ixtiyoriy, kasbiy birlashmasi.

Bob yuzasidan namunaviy testlar

- 1. Prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimiga O‘zbekiston Respublikasining qaysi vakolatli fuqarosi boshchilik qiladi?**
 - Bosh prokuror;
 - Prokuratura kollegiyasi raisi;
 - Viloyat prokurorlari tomonidan saylangan shaxs;
 - O‘zbekiston Respublikasi prokurori.
 - 2. Qaysi qatordagi javob g‘amxo‘rlik qilish ma’nosini anglatadi?**
 - Advokat;
 - Adliya vazirligi;
 - Prokuror;
 - Sudya.
 - 3. Prokuror nimani nazorat qiladi?**
 - Tergov ishlarini;
 - Sudlov ishlarini;
 - Qonunlarning aniq bajarilishini;
 - Hukm ijrosini.
 - 4. O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni kim va qaysi davlat organi amalga oshiradi?**
 - Adliya vazirligi;
 - Notarial idoralar;
 - O‘zbekiston Respublikasi bosh Prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar;
 - Sud organlari.
 - 5. Himoyachi bu ...**
 - Jinoiy ishlar sudda ko‘rilishi jarayonida fuqarolarni himoya qiluvchi shaxs;
 - Sudda qatnashuvchi va davlat manfaatlarini himoya qiluvchi shaxs;
 - Ayblanuvchi tomonidan taklif qilingan shaxs ;
 - Ayblanuvchining qonuniy vakili.
 - 6. Huquqbazarlikning qaysi turida davlat tomonidan eng og‘ir jazolar qo‘llaniladi?**
 - ma’muriy;
 - jinoiy;
 - intizomiy;
 - fuqaroviy.
 - 7. Ma’muriy javobgarlik necha yoshdan belgilanadi?**
 - 16 yoshdan;
 - 14 yoshdan;
 - 15 yoshdan;
 - 17 yoshdan.

Davlat organlarining kundalik faoliyatida inson huquq va erkinliklari ustuvorligiga oid konstitutsiyaviy tamoyil so'zsiz ta'minlanishi shart.

Shavkat Mirziyoyev

VI BOB

VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQLARI, BURCHHLARI



*Fuqarolik qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquqlari
Jinoyat qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquq va
majburiyatları*

*Oila qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatları
Mehnat qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquqlari*



27- mavzu

Fuqarolik qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquqlari



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Rasmlardagi insonlarning yoshlarini taxminan aniqlang.
2. Ularning huquqiy maqomlari bo'yicha guruhlay olasizmi (ya'ni huquqlari bir-biriga o'xshashlarini bitta guruh qilib)?
3. Ajratgan guruhlarining odamlarning huquqlari orasida qanday farqlar bo'lishi mumkin deb o'ylaysiz? Javobingizni asoslang.
4. Qilgan nojo'ya xatti-harakatlari uchun ularning javobgarligida ham farq bo'lishi mumkinmi?
5. Mamlakatimizda inson necha yoshdan boshlab voyaga yetgan deb hisoblanishini bilasizmi?

6. Nima uchun aynan shu yoshda u voyaga yetgan hisoblanadi deb o'ylaysiz?

O'zbekiston Respublikasidagi barcha shaxslar (jismoniy va yuridik) mulkka oid va oid bo'limgan munosabatlarini hamda tovar-pul munosabatlarini tartibga solib turuvchi huquqiy normalarini o'zida jamlagan soha bu — fuqarolik huquqi sohasidir.

Fuqarolik qonunchiligiga binoan, fuqaro egalik qilishi mumkin bo'lgan huquq va majburiyatlar majmui fuqaroning huquqiy layoqatini tashkil qiladi.



Fuqarolik huquqi dastlab qadimgi Rimda vujudga kelgan va bu huquq fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solgan. Bugungi kunga kelib ko'pgina mamlakatlarda fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan milliy huquq tizimlari yaratilgan. Mamlakatimizda fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi orqali tartibga solinadi.

Fuqaroning huquq layoqati u tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.

Fuqaroning muomala layoqati esa fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati bo'lib, bu layoqat fuqaro voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi.

Fuqarolik huquq va burchlari quyidagilardan vujudga keladi:

1) qonunda nazarda tutilgan shartnomalar va boshqa bitimlardan, shuningdek garchi qonunda nazarda tutilgan bo'lmasa-da, lekin unga zid bo'limgan shartnomalar va boshqa bitimlardan;

2) qonunda fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining asosi sisatida nazarda tutilgan davlat organlarining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hujjalardan;

3) sudning fuqarolik huquq va burchlarini belgilagan qaroridan;

4) qonun yo'l qo'yadigan asoslarda mol-mulk olish natijasida;

5) fan, adabiyot, san'at asarlarini yaratish, ixtirolar va boshqa intellektual faoliyat natijasida;

- 6) boshqa shaxsga zarar yetkazish natijasida;
- 7) asossiz boyib ketish natijasida;
- 8) fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa harakatlari natijasida;
- 9) qonun hujjatlari fuqarolik-huquqiy oqibatlarning kelib chiqishi bilan bog‘laydigan hodisalar natijasida.

Voyaga yetmaganlarning muomala layoqatini belgilashda yosh insonning tanasi, bo‘yi, muskullari va aqliy qobilyatlarining rivojlanish darajasi e’tiborga olingan.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga binoan insonning to‘la hajmdagi muomala layoqati **18 yoshga** kirganda vujudga keladi.



**“Fuqaroning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlari-
ga ega bo‘lish va ularni amalga oshirish, o‘zi uchun fuqaro-
lik burchclarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati
(muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya’ni 18 yoshga to‘l-
gach to‘la hajmda vujudga keladi”.**

22- modda.

14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar:

- 1) o‘z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish;
- 2) har xil mualliflik huquqlarini amalga oshirish;
- 3) qonunga muvofiq banklarga omonat qo‘yish va ularni tasarruf etish;
- 4) har xil maishiy bitimlarni tuzish huquqiga ega.

6 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan kichik yoshdagi bolalar:

- 1) mayda maishiy bitimlarni;
- 2) tekin manfaat ko‘rishga qaratilgan bitimlarni;

3) qonuniy ravishda muayyan maqsadda yoki o‘zi xohlagan tartibda erkin foydalanish uchun berilgan mablag‘larni tasarruf etish borasidagi bitimlarni tuzishga haqlidir.

16 yoshga to‘lgan voyaga yetmagan shaxs qonunda ko‘rsatilgan shartlar asosida ishlayotgan yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan bo‘lsa, u sud qarori bilan to‘la muomalaga layoqatli deb e’lon qilinishi mumkin. Buni fuqaroviylar huquqda **emansipatsiya** deb yuritiladi. Bunday holda ota-onalarda, farzandlikka oluvchilar va homiy emansipatsiya qilingan voyaga yetmaganning majburiyatlar bo‘yicha, xususan, u yetkazgan zarar oqibatida kelib chiqqan majburiyatlar bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar.



Emansipatsiya – lotincha “emancipatio” so‘zidan olingan bo‘lib, huquqlarda tenglashish degan ma’noni anglatadi.

Voyaga yetgunga qadar qonuniy asosda nikohdan o‘tgan fuqaro nikohdan o‘tgan vaqtidan e’tiboran to‘la hajmda muomala layoqatiga ega bo‘ladi. Nikoh tuzish natijasida ega bo‘lingan muomala layoqati o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan turib nikoh bekor qilingan taqdirda ham to‘la saqlanib qoladi.

Nikoh haqiqiy emas deb topilganida sud voyaga yetmagan er (xotin) sud belgilagan paytdan boshlab to‘la muomala layoqatini yo‘qotganligi haqida qaror qabul qilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqolpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, tuman, shahar hokimliklari huzurida Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar tuzilgan. Bu komissiyalarning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- voyaga yetmaganlarning nazoratsiz va qarovsiz qolishlari, huquqbazarliklarining oldini olish;
- voyaga yetmaganlarning noqonuniy xatti-harakatlari va huquqbazarliklariga imkon tug‘diruvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash va bartaraf qilish;
- voyaga yetmaganlarning huquqlari va manfaatlarining himoya qilinishi;
- ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlar bilan tarbiaviy ish olib borishni tashkil qilish.

Komissiyalar tomonidan qabul qilingan, ularning vakolatlari doirasidagi qarorlar davlat organlari, boshqa tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan bajarilishi majburiydir.



15 yoshli Nozim yozgi ta’til vaqtida ota-onasining roziligi bilan qahvaxonaga mineral suv sotuvchisi bo‘lib ishga yollandi. Qahvaxona xo‘jayini uni haftasiga 48 soat ishlatib kattalar bilan bir xil maosh to‘ladi.

- 1) *Qahvaxona xo‘jayini Nozimning huquqini buzgan bo‘lishi mumkinmi?*
- 2) *Ushbu harakat ishtirokchilaridan qaysi biri qonunni buzdi deb o‘ylaysiz?*
- 3) *Ularni huquqiy savodxon deyish mumkinmi?*

Sharhang!

Voyaga yetmagan shaxslar yetkazgan zarar uchun ularning ota-onalari yoki homiylari yohud ularni nazorat qiluvchi o‘quv, tarbiya yoki davolash muassasalari javobgar bo‘ladilar.

Ijodiy faoliyat

1. 5 yoshlik Dilshodning rasm solishga qobiliyati bor. Uning chizgan rasmlaridan ish jarayonida foydalanish uchun bog‘cha opasi albom tayyorladi.

- Dilshodning huquqlari buzilganmi?
- Dilshodning huquqini kim himoya qiladi?

2. Yozgi ta’til kunlarida 14 yoshli Nabijon firmaga usta yordamchisi bo‘lib ishga kirdi. Oyilik maoshlarini yig‘ib, planshet sotib oldi. U bunday qilishga haqlimi? fikringizni asoslang.

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Huquqiy layoqat nima?
2. Muomala layoqati deganda nimani tushundingiz?
3. Huquqiy layoqat va muomala layoqatiga misollar keltiring.
4. Fuqarolik huquq va burchlari qaysi hollarda vujudga keladi? Ularni sanab bering.
5. Emansipatsiya nima?
6. Quyidagi jadvalni daftaringizga chizing va O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga binoan voyaga yetmaganlarning muomala layoqatilari asosida to‘ldiring:

6 yoshdan 14 yoshga-cha bo‘lgan kichik yosh-dagi bolalar:	14 yoshdan 18 yosh-gacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar:	16 yoshga to‘lgan voya-ga yetmaganlar
		<i>Namuna:</i> <i>Mayda maishiy bitim-larni tuzadilar .</i>

28- mavzu

Jinoyat qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlar



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. 1-3- rasmlardagi tasvirlarni tavsiflang.
2. Ushbu rasmlardagi bolalar kelajakda qanday insonlar bo'lib yetishishlari mumkin deb o'ylaysiz. Ularning porloq kelajaklari uchun qanday kafolatlar mavjud?
3. 4- rasmdagi bolaning g'ayriqonuniy xatti-harakatlarining oqibati qanday bo'lishi mumkinligi haqida nimalar deya olasiz?
4. 6- rasmdagi bola nima sababdan bunday holatga tushgan?
5. 4- va 6- rasmlardagi bolalarni jazolash zarur ekanligini asoslashga harakat qiling. Bunda ularni qilmishlari uchun jazolamaslik qanday oqibalarga olib kelishi mumkin ekanligidan kelib chiqing.
6. Voyaga yetmaganlar va kattalarning jinoiy javobgarliklari o'rtasida farq bo'lishi kerakmi yoki yoqmi? Fikringizni asoslab berishga harakat qiling.

Huquq buzish harakatlari turli-tuman bo'lib, ular huquq sohasining turli tarmoqlari bilan ta'qib qilinadi.

Huquqbazarliklarning xususiyati va belgilariga qarab to‘rtta guruhga ajratib olish mumkin. Bular: jinoiy, ma’muriy, intizomiy va fuqaroviylar huquqbazarliklardir. Ana shu huquqbazarliklar ichida bir-biriga nisbatan o‘xshashroq bo‘lgani jinoiy va ma’muriy huquqbazarliklardir. Ularning tajovuz qilish obyektlari ham ko‘p hollarda bir xil. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2- moddasida jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan obyektlar ko‘rsatilgan bo‘lib, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzdan qo‘riqlash nazarda tutilsa, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 10- moddasida shaxsga, fuqarolarning huquqlariga va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi qonuniy aybli qilmishlar nazarda tutiladi.

Jinoiy javobgarlik Jinoyat kodeksida taqiqlangan qilmish sodir etilgan taqdirdagina qo‘llanadigan javobgarlikning eng og‘ir turidi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi 16- moddasida, jinoyat uchun javobgarlik — jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir, deb yozilgan.

Jinoyat sodir qilish paytida qonunda belgilangan yoshga yetgan shaxslarga jinoyatning sub’ekti bo‘ladilar. Qonunda belgilangan yoshga yetmagan kichik yoshdagilar o‘zlarining yoshi, ruhiy va jismoniy rivojlanishi jihatidan o‘z qilmishlari uchun hali to‘la javob bera olmaydilar, o‘z harakat (yoki harakatsizlik)larini to‘la boshqara olmaydilar.

O‘n to‘rt yoshga to‘limganlar kichik yoshdagilar hisoblanib, o‘z harakatlarining ijtimoiy xavflilagini, jinoyat ekanligini (javobgarlikni og‘irlash-tiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish bundan mustasno) hali to‘la anglab yeta olmaydi. O‘n to‘rt yoshga to‘lganlar esa ayrim qilmishlarning jinoyat ekanligini anglaydi, o‘z harakatlarini to‘la boshqara oladi. Shuning uchun JKning 17-moddasida o‘n to‘rt yoshdan jinoyat sub’ekti bo‘lishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning ro‘yxati berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida o‘n sakkiz yoshga to‘imasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga jarima axloq tuzatish ishlari, qamoq, ozodlikdan mahrum qilish kabi asosiy jazolar qo‘llanilishi mumkin.



Voyaga yetmaganlarga qo'shimcha jazolar tayinlanishi mumkin emas.

Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishi jazoning yengillashtiruvchi holati (55- modda), yosh bola shaxsiga nisbatan jinoyat sodir etish, jinoyatni og'irlashtiruvchi holat deb belgilanadi.

Endi har bir jazo chorasi haqida alohida to'xtalib o'tsak:

Jarima — bu jinoyat qilgan insondan davlat hisobiga pul undirishdir. Jarima faqat 16 yoshga to'lgan voyaga yetmaganlargagina eng kam oylik ish haqining ikki baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda tayinlanadi.

Axloq tuzatish ishlari jazosi — mehnatga qodir, voyaga yetmaganni mehnatga majburan jalb qilishdan iborat.

Voyaga yetmaganlarga bu jazo turi bir oydan bir yilgacha muddatga tayinlanadi.

Ozodlikni cheklash — bu jazo voyaga etmagan maxbuslarga nisbatan asosiy jazo chorasi sifatida 6 oydan 2 yilgacha muddatga belgilanadi.

Majburiy jamoat ishlari — faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan 60 soatdan 240 soatgacha bo'lgan muddatga tayinlanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish — bu jazo turi voyaga yetmaganlarga nisbatan 6 oydan 10 yilgacha muddatga tayinlanadi.

Umuman, ozodlikdan mahrum qilish 13 yoshdan boshlab qo'llaniladi. Bunda jazolanuvchilarining jinsi ham e'tiborga olinadi. 18 yoshga to'lmagan erkaklarga ozodlikdan mahrum qilish jazosini umumiyligi yoki kuchaytirilgan tartibli tarbiya koloniyalarda o'tash tayinlanadi. Qizlarga nisbatan esa, jazoni umumiyligi tartibli tarbiya koloniyalarda o'tash tayinlanadi.

Sud voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashda, voyaga yetmaganlarning rivojlanganlik darajasi, turmush sharoiti va tarbiyasini, sog'lig'ini, katta yoshdagilarning ta'sirini, o'z xatti-harakati ahamiyatini to'liq anglamasligini aniqlasa, jazo majburiy chora bilan almashtiriladi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan kattalarning (18 yoshdan oshgan) mas'uliyatlari ham oshirilgan. Xususan, kattalar voyaga yetmaganlarni tilanchilikka, spirtli ichimliklar ichishga jalb qilsa 3 yilgacha, giyohvand moddalar

iste'mol qilishga jalg qilsa 3 yildan 5 yilgacha, jinoyat sodir etishga jalg qilsa, 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadilar.

Muayyan shaxsni, ayniqsa, voyaga yetmagan shaxsni, jinoiy javobgarlikka tortish uchun sodir qilgan jinoyatini isbotlovchi hujjatlar yetarli, asoslantirilgan, yuridik jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan bo'lishi kerak.

Jinoyat qilgunga qadar o'n sakkiz yoshga to'lмаган shaxsning jinoyati haqidagi ishlar bo'yicha quyidagilar ham aniqlanishi lozim:

- 1) ayblanuvchining aniq yoshi (tug'ilgan yili, oyi, kuni);
- 2) uning shaxsiga xos xususiyatlari va salomatligi holati;
- 3) uning turmush va tarbiyalanish sharoitlari;
- 4) katta yoshli dalolatchilar va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo'qligi.

Voyaga yetmaganning jinoyatlari haqidagi ishni yuritishda qonuniy vakilning yoki vasiylik va homiylik organining vakilining qatnashishi shart. Shu bilan birga voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishda himoyachi ham ishtirok etishi lozim. Voyaga yetmagan guman qilinuvchini, ayblanuvchini so'roq qilishga ketgan umumiy vaqt, kun davomida dam olish va ovqatlanish uchun bir soatlik tanaffusni hisobga olmaganda, olti soatdan oshmasligi kerak.

Sud voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar ko'rildigan vaqt va joy haqida ularning ota-onasini, ota-onasi o'rnini bosuvchi shaxslarni, voyaga yetmaganlar o'qigan yoki ishlagan korxonani, muassasani, tashkilotni, voyaga yetmaganlarning ishi bilan shug'ullanuvchi komissiya'ni, zarur bo'lsa, boshqa tashkilotlarni ham xabardor qiladi. Sud bu tashkilotlarning vakillarini, sudlanuvchining vasiy yoki homiysini sud majlisiga chaqirishga haqlidir.

Voyaga yetmagan ayblanuvchiga nisbatan qo'llaniladigan ehtirot choralari Jinoyat protsessual Kodeksining 236-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'lgan taqdirda ehtirot chorasi sifatida qamoqqa olish voyaga yetmagan shaxsga nisbatan faqat unga besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanishi mumkin bo'lgan qasddan jinoyat sodir etganlikda ayb e'lon qilingan hamda ayblanuvchining munosib xulqatvorda bo'lishini boshqa ehtirot choralari ta'minlay olmaydigan taqdirda qo'llanilishi mumkin.



Voyaga yetmagan shaxsga ayblov e'lon qilish vaqtida himoyachi bilan bir qatorda voyaga yetmagan shaxsning qonuniy vakili ham ishtirok etishi mumkin.

Voyaga yetmagan ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot choralari qo'llanilgani to'g'risida uning qonuniy vakiliga, agar bunday vakil bo'lmasa, boshqa qarindoshlariga xabar qilinadi. Voyaga yetmagan shaxs ota-onasining, homiyalar, vasiylarning qaroviga yoki, basharti u bolalar muassasasida tarbiyalanayotgan bo'lsa, shu muassasa rahbarlarining qaroviga ham berilishi mumkin.

Ijodiy faoliyat

Voyaga yetmagan bolalarning huquqbazarligi to'g'risida kichik hikoya yozing. Bu hikoyada bitta huquqbazarlik holatini keltiring. Mana shu hikoyadagi huquqbazarlikni sodir etgan shaxs 6 yoshdan 14 yoshgacha, 14 yoshdan 16 yoshgacha, 16 yoshdan 18 yoshgacha va 18 yoshdan katta bo'lsa, qanday jazolanishi mumkinligini aniqlang. (Bunda Fuqarolik, Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslardan foydalaning.)

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Jinoyat qonunchiligi nima?
2. Voyaga yetmaganlik nima?
3. Voyaga yetmaganlik tushunchasining jinoyat sub'ekti yoshi tushunchasidan farqi nima?
4. Voyaga yetmaganlar necha yoshdan boshlab jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin?
5. O'zbekiston Pespublikasining Jinoyat Kodeksining 17-moddasidan foydalanib quyidagi jadvalni to'ldiring.

Jinoyat sodir etgunga qadar 13 yoshga to'lgan shaxslarning javobgarliklari	Jinoyat sodir etgunga qadar 14 yoshga to'lgan shaxslarning javobgarliklari	Jinoyat sodir etgunga qadar 18 yoshga to'lgan shaxslarning javobgarliklari

29- mavzu

Oila qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatları

13 yoshli G‘anijonga buvasidan avtomashina meros bo‘lib o‘tdi. G‘anijon o‘gay ota-onasi bilan birga yashaydi. G‘anijonning otasi mashinani sotib, shartnomani rasmiylashtirish maqsadida hujjatlarni tasdiqlash uchun davlat idorasi (notarius) ga murojaat qildi. Ammo notarius shartnomani rasmiylashtirishdan bosh tortdi.

Kasb-hunar kollejining o‘quvchisi Dilshodbek 80000 so‘mlik DVD playerni kreditga oldi. Dilshodbek 16 yoshda bo‘lib, har oyda kollejning maxsus stipendiyasini olar edi. Uning otasi Olim akaga o‘g‘lining xaridi ma’qul kelmadidi. U o‘g‘lining DVD playerga qiziqib, o‘qishga e’tibori kamayib ketishidan xavotirda edi. Shu sababli, Olim aka, o‘g‘li bu shartnomani tuzganidan bexabar ekanligini nazarda tutib, uni haqiqiy emas deb tan olinishini so‘rab sudga murojaat qildi.

Halimaning hech kimi yo‘q, u qarindoshlarining tarbiyasida bo‘lib, ota-onasidan meros uyi bor. U 16 yoshida tuman hokimining ruhsati bilan tur mushga chiqdi. Erining uyiga ko‘chib o‘tishi munosabati bilan o‘ziga meros bo‘lib qolgan shaxsiy mulki bo‘lmish uyini sotishga qaror qildi. Shu maqsadda oldi-sotdi ishlarini rasmiylashtirish maqsadida qishloq fuqarolar yig‘ini raisiga yordam so‘rab murojaat qilgan edi, yig‘in raisi Halimani to‘la muomala layoqatiga yetmagan deb, shartnomani rasmiylashtirishga ruxsat etmadidi. Bundan xafa bo‘lgan Halima qishloq fuqarolar yig‘ini raisining qaroridan norozi holda sudga murojaat etmoqchi.

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Agar G‘anijonning o‘gay otasi sudga shikoyat qilsa, sud qanday qaror chiqarishi mumkin deb o‘ylaysiz?
2. Sizning fikringizcha, G‘anijonning o‘gay otasi unga meros qolgan avtomashinani sotish huquqiga egami?
3. Sizningcha, Halimaning QFYi raisidan xafa bo‘lishi o‘rinlimi?
4. Agar Halima sudga murojaat qilsa, uning shikoyati bo‘yicha sud qanday qaror chiqarishi mumkin deb o‘ylaysiz? Halimaning ota-onasi bor bo‘lsa, qanday vaziyat yuzaga kelishi mumkin? Yo‘q bo‘lsa-chi?
5. Dilshodbekning qilgan ishini huquqbazarlik deb atasa bo‘ladimi? Nima uchun?

6. Sizningcha, Olim akaning shikoyati yuzasidan sud qanday qarorga kelishi mumkin? Siz Olim akaning o'rniда bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz? Dilshodbekning o'rniда bo'lganingizda-chi?
7. Yuqoridagi muammolarni hal qilishda siz qanday yo'l tutgan bo'-lardingiz?
8. Oilangizdagi qaysi buyumlarni mustaqil tasarruf etishingiz mumkin?
9. O'zingizga shaxsan tegishli bo'lgan buyumlarining bormi?
10. O'zingizga tegishli bo'lgan buyumingizni o'rtog'ingiz bilan almashtirish uchun ota-onangizdan ruxsat so'raysizmi? Nima uchun?



“Ota-onalar o‘z farzandalarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi”.

64- modda.

1. Bolalarning voyaga yetgunga qadar ota-onalar tomonidan boqilishi va tarbiyalanishi shartligi konstitutsiyaviy huquq darajasiga chiqarilishining sababi nimada deb o'ylaysiz? Bu hol bizning milliy qadriyatlarimizga mosmi?

2. Davlatning boquvchisiz va qarovsiz qolgan bolalarga e'tiborini konstitutsiya orqali mustahkam majburiyatga aylantirilishidan jamiyat qanday nafko'radi? Bunda joriy va kelajakda ko'rildigan nafni alohida ajratib ko'rsatishga harakat qiling.

Bola manfaatlariga zid bo'lgan holatlardan tashqari, har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o‘z ota-onasini bilish, ularning g‘amxo'rлигидан foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega.

Ayrim sabablarga ko‘ra bolaning ota-onasi bo'lmaganda uning oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi.

Voyaga yetmagan bola o‘z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega. Bolaning huquqi va qonuniy manfaatlari uning ota-onasi, ota-onasi yo‘q bo‘lsa, ota-onasining o‘rnini bosuvchilar, vasiylik va homiylik idoralari, prokuratura, sud tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bolaning hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf tug‘ilganligidan, uning huquqi va qonuniy manfaatlari buzilganligidan xabardor bo‘lgan shaxslar bu haqda bola ayni paytda yashab turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga ma’lum qilishi shart. Shunday ma’lumotlarni olgach, vasiylik va homiylik organi bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan zarur choralar ko‘rishi shart bo‘ladi. Ota-onasi o‘z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanadilar hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo‘ladigan munosabatlarda, shu jumladan, sudda alohida vakolatlarsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar.

Oilada voyaga yetmagan bolaning manfaatlariiga taalluqli har qanday masala hal qilinayotganda bola o‘z fikrini ifoda qilishga, shuningdek, har qanday sud muhokamasi yoki ma’muriy muhokama davrida so‘zlashga haqlidir.

Har qanday ota-onasi o‘z farzandlariga o‘zar kelishib, yoki yaqin qarin-dosh-urug‘lari maslahati bilan ota-onasining ismiga ko‘ra, yoki o‘zlarini xohlagan ismni qo‘yishlari mumkin. Odatta, bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga qarab belgilanadi. Agar ota-onasi turli familiyalarda bo‘lsa, ularning kelishuviga binoan bolaga otasining yoki onasining familiyasi berilishi mumkin. Ota-onaning xohishiga ko‘ra, bolaga milliy an‘analarga ko‘ra ota yoki ona tomonidan boboning ismi bo‘yicha familiya berilishi mumkin.



“Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar”.

66- modda.

1. Konstitutsiyaning ushbu moddasining talablari bo‘yicha fikringizni bildiring.
2. Bu modda talablari bizning milliy qadriyatlarimizga, urf-odatlarga nechog‘lik mos tushishi bo‘yicha o‘z fikringizni bildiring.
3. Ushbu modda talablarini 64- modda talablari bilan taqqoslang.

O‘n olti yoshga to‘lguncha, voyaga yetmagan bolaning familiyasi ma’lum maqsadda ota-onasi birgalikda qabul qilgan qarori bilan o‘zgar-

tirilishi mumkin. Agar u o'n olti yoshga to'lgan bo'lsa, uning ismi yoki familiyasini o'zgartirish faqat uning roziligi bilan amalga oshiriladi.

Ota-onaloyi hayotligida bolalar ularning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo'lish huquqiga ega emas.

Shuningdek, ota-onaloyi hayotiga yetmagan bolalarning mol-mulkiga egalik qilish huquqiga ega emas. Voyaga yetmagan bola o'z ota-onasidan yoki boshqa insonlardan qonun doirasida ta'minot olishga haqli. Bunda bolaga tegishli har qanday mablag', xoh u pensiya bo'lsin, xoh boshqa turdag'i nafaqa bo'lsin, uning ota yoki onasi tomonidan uning ta'minoti, ta'lim-tarbiya olishi uchungina sarflanishi kerak bo'ladi.

Qolaversa, ota-onaloyi hayotiga yetmagan bolalarning alohida-alohida mulki bo'lishi ham mumkin. Birga yashab turganda ular bir-birlarining roziligi bilan bunday mulkka egalik qilishlari va ulardan foydalanishlari mumkin.

Va niyoyat, voyaga yetmagan bolalar qonunda belgilangan tartibda hadya, meros tariqasida olgan mol-mulki, shuningdek, shaxsiy mehnati va tadbirkorlik faoliyat natijasida orttirgan mol-mulki ularning xususiy mulki hisoblanadi.

Xuddi shu tariqa, voyaga yetmaganlarning shaxsiy foydalanishdagi buyumlari (kiyim-kechak, turli ish qurollari, o'quv anjomlari va boshqalar) ularning xususiy mulki hisoblanadi.



Amerikalik bir do'stining uyiga mehmonga bordim. Do'stim bilan hol-ahvol so'rashib turgandim, uning o'g'li o'qishdan keldi.

– Ota men keldim. “Salom” dedida (inglizchada) yuqori qavatdag'i o'z xonasiga chiqib ketdi. Biroz vaqt o'tib, allaqanday rok guruhining musiqasi uyni to'ldirib yangray boshladi. Men do'stimga, – hozir bosh og'rig'idan shikoyat qilayotgan eding, o'g'lingga aystsang bo'lmaydim, sal pasaytirsin, – dedim. Do'stim menga: “Bu o'g'limning huquqi, men unga pasaytir deya olmayman, u dam olyapti”, – deb javob berdi.

1. *Bizning milliy qadriyatlarimiz nuqtai nazaridan ushbu oiladagi huquqiy munosabatlarni ijobjiy baholash mumkinmi?*

2. *Bola o'z huquqidan foydalanar ekan, boshqalarning qanday huquqlarini buzzdi?*

Sharhang!

Ota-onaya yetmagan farzandlarining qonuniy vakili hisoblanadi. Bunga sabab ular o‘z huquq va majburiyatlarini mustaqil himoya qila olmasligidandir.

Ota va ona bolalarini moddiy jihatdan ta’minlash, jismonan, ruhan va axloqan sog‘lom qilib tarbiyalash, ularni mustaqil hayotga tayyorlash borasida bir hil majburiyatga egadir. Ota-onaning huquqi bolaning manfaatiga xizmat qilishi kerak. Bola o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega.

Ijodiy faoliyat

O‘z oilangizni yozma tavsiflang. Oilangizda o‘zingizning va boshqa voyaga yetmagan aka, uka, opa, singillaringizni sanab yozing. Ularni muhimlik darajasiga qarab tasvirlang.

O‘zingizni oiladagi burchlaringizni ham yozing.

Siz uchun oiladagi huquqlaringizning saqlanishi muhimroqmi yoki burchlaringizning bajarilishimi? Bunda siz va oila nuqtai nazaridan yondoshishga harakat qiling. Javobingizni yozing.

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Har qanday bolaning o‘z oilasida qanday huquqlari mavjud?
2. Agar voyaga yetmagan bolaning ota-onasi bo‘lmasa, uning huquqlari bajarilishi kim tomonidan ta’milanadi?
3. Oilada voyaga yetmagan bolaning manfaatlariga taalluqli masala hal qilinadigan holda bolaning qanday huquqlari borligini ayting.
4. Bolaga ism qanday va kim tomonidan beriladi?
5. Necha yoshga to‘lgandan keyin voyaga yetmagan bolaning ismi va familiyasi o‘zgartirilishi uchun uning roziligi so‘raladi?
6. Ota-onaya yetmagan bolasingining yoki bola ota-onasining mulkiga egalik qilishga haqlimi?
7. Agar voyaga yetmagan bola va uning ota-onasi alohida mulklarga egalik qilishsa, ular bir-birlarining mulklaridan foydalana oladilarmi?
8. Qanday buyumlar voyaga yetmaganlarning xususiy mulki hisoblanadi?

30- mavzu


Mehnat qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquqlari



Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir.
37- moddadan.



“O'n sakkiz yoshga to'limgan shaxslar mehnatga oid huquqiy munosabatlarda katta yoshdagi xodimlar bilan teng huquqda bo'ladilar, mehnatni muhofaza qilish, ish vaqt, ta'tillar va boshqa mehnat shartlari sohasida ular uchun mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda belgilangan qo'shimcha imtiyozlardan foydalanadilar”.
240- moddadan.



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Yuqoridagi rasmlarda tasvirlangan bolalar qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanmoqda?
2. Konstitutsiyada keltirilgan moddalari bilan tanishgan holda, sizning tengdoshingiz mana shu kasblardan qaysi birlarida ishlashi

mumkinligi to ‘g‘risida o ‘z fikringizni bildiring. Fikringizni asoslashga harakat qiling.

3. *Mabodo tengdoshlarining shu kasblardan qaysidir biri bo‘yicha ishga kirsa, unga qanday sharoitlar yaratib berish lozim bo‘ladi deb o‘ylaysiz?*
4. *Bolalarning yoshligidan mehnat faoliyatiga jalb qilinishi jamiyatga foyda keltirishi mumkinmi? Buning ijobiy va salbiy tomonlarini sanab berishga harakat qiling.*
5. *Maktabdagi o‘qishga halaqit bermagan holda mehnat bilan shug‘ullanib o‘zingiz mustaqil pul topishga imkoniyatingiz bor deb o‘ylaysizmi?*
6. *Haq to‘lanadigan vazifada ishlashingiz uchun ota-onangizning roziligi shart deb hisoblaysizmi?*
7. *Sizning fikringizcha, ishlab topilgan pulingizni kim tasarruf qilishi lozim? Sizmi yoki ota-onangizmi? Nima uchun?*

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash huquqiga ega bo‘lsa-da, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 77- moddasiga binoan, ishga qabul qilishga o‘n olti yoshdan ruxsat beriladi. O‘n besh yoshga to‘lgan bolalar ota-onasidan birining yoki ularning o‘rnini bosuvchi odamning yozma ravishdagi roziligi bilan, tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, ishga qabul qilinadi.

Shunda ham bu ish ularning sog‘lig‘iga va axloq odobiga ziyon qilmaydigan, o‘qishlariga xalaqit bermaydigan, yengil bo‘lishi lozim.

Voyaga yetmaganlarni mehnat faoliyatiga jalb qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad yoshlarni mehnatga tayyorlash va ularni kasb tanlashlariga turki bo‘lishi lozimligini e’tiborga ilish kerak.



Mehnat qonunchiligiga ko‘ra ish vaqtি 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga haftasiga 36 soatdan, 15 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar uchun haftasiga 24 soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlarda esa o‘n sakkiz yoshga to‘limgan bolalar katta yoshdagilar bilan teng huquqda bo‘ladilar. Ular ish vaqtি, ta’til-

lar va boshqa mehnat shartlari bo'yicha ular uchun mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda belgilangan qo'shimcha va imtiyozlardan foydalanadilar. Ularga belgilangan me'yordan ortiq yuk ko'tarish va tashishlariga yo'l qo'yilmaydi.



Nodir ota-onasining, vasiylik va homiylik organining roziligi bilan kichik korxonaga ishga joylashdi. Biroz vaqt ishlaganidan so'ng u ishdan bo'shash to'g'risida korxona rahbarini ogohlantirdi va yozma ariza berdi. Korxona rahbari Nodirning arizasini rad qildi va ota-onasining yozma roziligini olib kelishini so'radi.

Sizning munosabatingiz. Korxona rahbari to'g'ri yo'l tutdimi?

Shuningdek, o'qishdan bo'sh vaqtlarida ishlayotgan o'quvchilarning ish vaqtini muddati o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalar ish vaqtini eng ko'p muddatining yarmidan ortib ketishi mumkin emas. Qolaversa, bolalar tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga va dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilinmasligi lozim.

Bundan tashqari, ishni o'qishlari bilan birga olib borayotgan voyaga yetmaganlarga ish beruvchilar zarur shart-sharoitlarni yaratib berishi kerak bo'ladi.

Shu o'rinda, ham o'qib, ham mehnat qilishni xohlovchi voyaga yetmagan bolalarga mamlakatimizning mehnat qonunchiligidagi bir qancha imtiyozlar berilganligini aytib o'tish lozim. Bularдан, qo'shimcha ta'tilga chiqish, qisqartirilgan ish haftasi kabilarni misol qilish mumkin.

Agar umumta'lim maktabalarida o'qiyotgan bolalar haftasiga olti kun ishlasalar, ularga o'quv yili davomida kamida o'ttiz olti ish kuni miqdorida ta'til berilishi kerak bo'ladi.

Ishdan ozod qilingan vaqt uchun o'quvchilarga ish joyida oladigan o'rtacha oylik ish haqining kamida ellik foizidan kam bo'limgan miqdorda haq to'lanadi.

O'quvchilar uchun ish haqi saqlangan holda kasb-hunar kollejlariada davlat imtihonlarini topshirish paytida yigirma ish kunidan kam bo'limgan ta'til beriladi.



Ustaxona ma'muriyati o'n besh yarim yoshli o'smirni gaz payvandchisi shogirdi qilib mustaqil ravishda ishga qabul qiladi. Tibbiy tekshiruvda shifokor (kasbni ko'r-satmagan holda) ushbu o'smir ishlab chiqarish amaliyotini o'tishi mumkin degan ma'lumot-noma beradi. Uning uchun 6 soatlik ish kuni belgilanadi (maxsus qo'shimcha to'lovsiz). Biroz muddatdan keyin prokuror yordamchisi mehnat qonunchiligiga rioya qilinishini umumiylaz qilish tartibida tekshirish o'tkazib, tuman prokuraturasi orqali ustaxona mudiriga yozma bayonnomaga yuboradi va unda shogirdini boshqa ishga o'tkazishni hamda o'smirlar mehnatini muhofaza qilish bo'yicha qonunchilikning bir qator buzilish hollarini tugatishni talab qiladi.



- 1. Prokurorning talabi asoslimi?*
- 2. Ustaxona ma'muriyati tomonidan mehnat qonunchiligi buzilishining qanday hollari sodir bo'ldi?*
- 3. Shunga o'xshash holatlarda qonunchiligidan sud tomonidan huquqiy javobgarlikning qanday turlari ko'zda tutilgan?*

Maktabning sinfdan sinfga ko'chirish imtihonlarini topshirish vaqtida, ishlayotgan o'quvchiga, o'rtacha ish haqi saqlangan holda to'rt kundan olti kungacha ishdan ozod qilish belgilab qo'yilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi voyaga yetmaganlarni mehnatga jalg qilishni tartibga solish va bolalar mehnatidan foydalanishni cheklash bo'yicha ko'pgina xalqaro huquqiy hujjatlarga qo'shilgan O'zbekiston Respublikasi, jumladan, 2008- yil 4- apreldagi O'RQ – 140- son Qonun bilan "Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risida"gi Konvensiyani (Jeneva, 1973- yil, 26- iyun), 2008- yil 8- apreldagi O'RQ – 144- son Qonuni bilan esa, "Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risida"gi Konvensiyani (Jeneva, 1999- yil, 17- iyun) ratifikatsiya qilgan.

Hikmatlar xazinasidan!

Oltin va kumushi bo'lmagan odam kambag'al emas, balki es-xushi va kasb-hunari bo'lmagan kishi kambag'aldir. (Majididdin Xavofiy)

Sharhang!

Har qanday mehnat insondan shaxsiy irodaviy faoliyatni talab qiladi va inson tomonidan shaxsan amalgalashiriladi, shu sababdan har qanday mehnatga layoqatli shaxs bir vaqtning o'zida huquqiy layoqatga va muomala layoqatiga ega bo'lishi mumkin.

Ijodiy faoliyat

Faraz qiling, siz korxona rahbarisiz. Sizga 14 yoshli va 16 yoshli ikkita bola ishga joylashish uchun murojaat qildi.

Sizning xatti-harakatlaringiz qanday bo'lishi lozim? Siz ularga qanday ishlarni taklif qila olasiz? Ularga qanday shart-sharoitlar yaratib bergen bo'lar edingiz? Ularga qanday imtiyozlar bergen bo'lar edingiz? Agar ular ishdan bo'shash bo'yicha ariza berishsa, qanday hujjatlar talab qilgan bo'lar edingiz?

Mustahkamlash va takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Mamlakatimiz qonunchiligiga asosan voyaga yetmagan bolalarni necha yoshdan ishga olish mumkin?
2. O'n besh yoshga to'lgan bolalar ishga qay tarzda joylashadilar?
3. Bolalarning qay sharoitlarda mehnat qilishlariga yo'l qo'yilmaydi?
4. Mehnat qonunchiligiga asosan 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga ish vaqtini haftasiga necha soat, 14 dan 16 yoshgacha bolalarga necha soat qilib belgilanadi?
5. Ham o'qib, ham mehnat qiluvchi voyaga yetmaganlarga qonunchiligidizda qanday imtiyozlar ko'zda tutilgan?
6. Bu imtiyozlar qay tarzda belgilanishi lozimligini tushuntiring.
7. O'zbekiston Respublikasi voyaga yetmaganlarni mehnatga jalgan qilishni tartibga solish va bolalar mehnatidan foydalanishni cheklash bo'yicha qanday xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilgan?

Bob bo'yicha umumiylar uchun savollar va topshiriqlar

1. Ozbekiston Respublikasi qonunchiligi voyaga yetmaganlarga nisbatan qanday tamoyilga asosan yondashadi?
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi insонning to'la layoqatga yetishini necha yoshdan belgilagan?
3. Voyaga yetmaganlarni yosh jihatidan muomala layoqatiga mansubligini aniqlashda nimalarga e'tibor berilgan?
4. Agar voyaga yetmagan bola va uning ota-onasi alohida mulklarga egalik qilishsa, ular bir-birlarining mulklaridan foydalana oladilarmi?
5. Qanday buyumlar voyaga yetmaganlarning xususiy mulki hisoblanadi?
6. Voyaga yetmagan bolalarning qay sharoitlarda mehnat qilishlariga yo'l qo'yilmaydi?
7. Mehnat qonunchiligiga asosan 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga ish vaqtiga haftasiga necha soat, 14 dan 16 yoshgacha bolalarga necha soat qilib belgilanadi?

Atamalarga mos ta'riflarni belgilang.

- | | |
|---|---|
| <ol style="list-style-type: none"> <u>1. Voyaga yetmaganlarga</u> <u>2. Voyaga yetgan va mehnatga
layoqatlari farzandlar</u> <u>3. Fuqarolik huquqi sohasi</u> <u>4. Qamoq jazosi</u> | <ol style="list-style-type: none"> <u>5. Jarima,</u> <u>6. Axloq tuzatish ishlari,</u> <u>7. Ozodlikdan mahrum qilish</u> <u>8. Voyaga yetmaganlarga nisbatan</u> |
|---|---|

a) quyidagi asosiy jazolar qo'llanilishi mumkin: jarima, axloq tuzatish ishlari, qamoq, ozodlikdan mahrum qilish.

b) jismoniy va yuridik shaxslar mulkka oid va oid bo'lmagan munosabatlarni va tovar-pul munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normalarni o'zida jamlagan soha.

d) bu 16 yoshga to'lgan, mehnatga qodir voyaga yetmaganlarni mehnatga majburan jalb qilishdir.

e) 16 yoshga to'lgan, voyaga yetmaganlarga bir oydan uch oygacha muddatga tayinlanadi.

f) qo'shimcha jazolar va o'lim jazosi tayinlanishi mumkin emas.

g) o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

h) bu jinoyat qilgan insondon davlat hisobiga pul undirishdir

i) jazo turi voyaga yetmaganlarga nisbatan 6 oydan 10 yilgacha muddatga tayinlanadi.

Bob yuzasidan namunaviy testlar

- 1. 14 yoshga to'lgan voyaga yetmaganlar quyidagi qaysi jinoyatlar-ning subyekti bo'lishi mumkin?**
 1. O'z xizmat vazifasini suiiste'mol qilish;
 2. Odam o'g'irlash;
 3. Buyruq yoki boshqa farmoyishni bajarish;
 4. Ozodlikdan mahrum qilish joylaridan qochish;
 5. Transpot vositasini olib qochish.

a) 1, 2, 3, 4, 5; b) 1, 3, 4, 5; d) 3, 4, 5; e) 2, 4, 5.
- 2. Emansipatsiya nimani anglatadi?**
 - a) Lotinchadan olingan bo'lib, teng huquqlilikka erishish, qaramlikdan qutilish degan ma'noni anglatadi;
 - b) Bu javobgarlikning bir turi bo'lib 16 yoshga to'lgan shaxslar tortiladi;
 - d) Lotinchadan tarjima qilinganida "himoyachi", "oqlovchi" degan ma'noni bildiradi;
 - e) Fransuzchadan tarjima qilinganida "qoralovchi" degan ma'noni anglatadi.
- 3. Voyaga yetmagan shaxslar qanday hollarda to'la muomala layoqatiga ega bo'ladilar?**
 - 1) Sudning qarori bilan emansipatsiya qilingach;
 - 2) Voyaga yetmaganlar to'la muomala layoqatiga ega bo'lmaydilar;
 - 3) 18 yoshga to'lmasdan qonuniy nikohdan o'tgan fuqaro, nikohdan o'tgan vaqtidan boshlab to'la muomala layoqatiga ega bo'ladi;
 - 4) Voyaga yetmagan shaxslar biror bir tashkilot bilan mehnat shartnomasi tuzganlaridan so'ng.

a) 1, 2; b) 1, 2, 3; d) 1, 3; e) 1, 4.
- 4. Mehnat daftarchasi ishga birinchi marotaba kirishda ish boshlaniganidan necha kun kechiktirmay to'ldirilishi lozim?**

a) 1 kun; b) 3 kun; d) 5 kun; e) 7 kun.
- 5. Quyidagilardan kimlarga sinov muddati berish mumkin emas?**
 - 1) Homilador ayollarga;
 - 2) Farzandi 3 yoshgacha bo'lgan ayollarga;
 - 3) Muqobil xizmatni o'tayotganlarga;

e) Mehnat qonunchiligiga ko'ra direktor voyaga yetmagan shaxsni ish-dan bo'shatishi uchun ota-onasining yoki ularning o'rinalarini bosuvchilarning roziliklarini olishi kerak.

9. Quyidagilardan ma'muriy javobgarlik turini ko'rsating.

- a) Jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, haqini to'lash sharti bilan ashyni olib qo'yish;
- b) Jarima, muayan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, xizmat vazifasini cheklash;
- d) Hayfsan;
- e) Jarima, ozodlikdan mahrum qilish.

10. "Ov qilish huquqidan mahrum qilish" qaysi javobgarlik turiga kiradi?

- a) Ma'muriy;
- b) Intizomiy;
- d) Jinoiy-intizomiy;
- e) Fuqaroviylar.

11. Agar 14 yoshli voyaga yetmagan shaxs ishga yuk tashuvchi bo'lib qabul qilingan bo'lsa, u bir vaqtning o'zida qancha og'irlilikdagi yukni ko'tarishi mumkin?

- a) 10 kg;
- b) 5 kg;
- d) 4,1 kg;
- e) 7 kg.

12. Ma'muriy ushlab turish necha soatgacha bo'lishi mumkin?

- a) ko'pi bilan 1 soat;
- b) ko'pi bilan 3 soat;
- d) ko'pi bilan 24 soat;
- e) ko'pi bilan 3 sutka.

13. Agar 16 yoshli yoki 18 yoshga to'limagan voyaga yetmagan shaxs o'ta og'ir jinoyat sodir etsa, unda necha yilga ozodlikdan mahrum qilish mumkin?

- a) 12 yil;
- b) 15 yil;
- d) 10 yil;
- e) Umrbod ozodlikdan mahrum qilish.

14. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha fuqarolarning mehnat qilishga majburliklari qayd etilgan muddani ko'rsating.

- a) 6- modda;
- b) 37- modda;
- d) 41- modda;
- e) bunday modda yo'q.

15. Qonunga xi洛ij timoiy harakat yoki harakatsizlik qanday ataladi?

- a) Jinoyat;
- b) Ma'muriy harakat;
- d) Intizomiy harakat;
- e) Fuqaroviylar harakat.

VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQLARI VA BURCHLARI

- 14 yoshga to‘lما gan voyaga yetmaganlarning (kichik yoshdagi bolalar-ning) yoki vasiylikda bo‘lgan fuqarolarning qonuniy vakillari – ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari yashaydigan joy voyaga yetmaganlar yoki vasiylikda bo‘lgan fuqarolarning yashash joyi hisoblanadi.
- Fuqarolarning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo‘lish va ularni amalga oshirish, o‘zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya’ni 18 yoshga to‘lgach, to‘la hajmda vujudga keladi.
- 18 yoshga to‘lmasdan nikoh buzilsa ham muomala layoqati to‘la saqlanib qoladi. Lekin nikoh haqiqiy emas deb topilganda, sud voyaga yetmagan er (xotin) sud belgilagan paytdan boshlab to‘la muomala layoqatini yo‘-qotganligi haqida qaror qabul qilishi mumkin.
- 18 yoshga to‘lما gan voyaga yetmaganlar bitimlarni o‘z ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining yozma roziliklarisiz quyidagi-larni mustaqil amalga oshirishga haqli:
 - o‘z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish;
 - fan, adabiyot yoki san‘at asarining, ixtironing yohud o‘z intellektual faoliyatining qonun bilan qo‘riqlanadigan (boshqa natijasi) mualliflik huquqini amalga oshirish;
 - qonunga muvofiq kredit muassasalariga omonatlar qo‘yish va ularni tasarruf etish;
 - mayda maishiy bitimlarni, tekin manfaat ko‘rishga qaratilgan, notarial tasdiqlanishni yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni talab qilmaydigan bitimlar, qonuniy vakil yoki uning roziliği bilan uchinchi shaxs tomo-nidan biror bir maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag‘larni tasarruf etish borasidagi bitimlar.
- 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar yuqorida gilarga muvofiq o‘zlarini tuzgan bitimlar bo‘yicha mustaqil ravishda mulkiy ja-vobgar bo‘ladilar.

- Sud ota-onalarning, farzandlikka oluvchilar yoki homiylarning asosli il-timoslari mavjud bo'lganda, ularning iltimosiga muvofiq 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning o'z ish haqi, stipendiyasi yoki boshqa daromadlarini mustaqil ravishda tasarruf etish huquqini cheklab qo'yishi yoki bu huquqdan mahrum etishi mumkin.
- 16 yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan bo'lsa yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki homiylarning roziligidagi binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, u to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi mumkin.
- Voyaga yetmaganning to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi – emansipatsiya – sudning qarori bilan amalga oshiriladi. Bunday voyaga yetmagan shaxsning majburiyatları bo'yicha, xususan u yetkazgan zarar oqibatida kelib chiqqan majburiyatlar bo'yicha ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchilar emas, balki uning o'zi to'liq javobgar bo'ladi.
- Bola manfaatlariga zid bo'lgan holatlardan tashqari, har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega.
- Bola o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega. Bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini uning ota-onasi, ota-onasi yo'q bo'lsa, ota-onasining o'rnini bosuvchilar, vasiylik va homiylik idoralari, prokuror yoki sud tomonidan amalga oshiriladi.
- Oilada bolaning manfaatlariga taalluqli har qanday masala hal qilinayotganda bola o'z fikrini ifoda qilishga, shuningdek, har qanday sud muhogamasi yoki ma'muriy muhokama davrida so'zlashga haqlidir.
- Bolaga ism ota-onaning kelishuviga binoan, ota-ismi – otasining ismiga ko'ra beriladi. Bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga qarab belgilanadi. Ota-ona turli familiyalarda bo'lganda ota-onaning kelishuviga binoan bolaga otasining yoki onasining familiyasi beriladi. Ota-onaning xohishiga ko'ra. Bolaga ota yoki ona tomonidan milliy an'analarga ko'ra boboning ismi bo'yicha familiya berilishi mumkin.
- Bolaning ismi va familiyasi ota-onaning birgalikdagi arizasiga binoan bola 16 yoshga to'lganicha bola manfaatlarini e'tiborga olgan holda (otasi yoki onasining familiyasiga) o'zgartirilishi mumkin. 16 yoshga

to‘lgan bolaning ismi yoki familiyasini o‘zgartirish faqat uning roziligi bilan amalga oshiriladi.

- Voyaga yetmagan bolalar qonunda belgilangan tartibda hadya, meros tariqasida olgan mol-mulki, shuningdek, shaxsiy mehnati va tadbirkorlik faoliyatni natijasida orttirgan mol-mulki ularning xususiy mulki hisoblanadi.
- Voyaga yetmaganlarning shaxsiy foydalanishdagi buyumlari (kiyim-kechak, ishlab chiqarish qurollari, o‘quv anjomlari va boshqalar) ularning xususiy mulki hisoblanadi.
- 18 yoshga to‘lмаган shaxslar mehnatga oid huquqiy munosabatlarda katta yoshdagi xodimlar bilan teng huquqda bo‘ладilar.
- 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan xodimlarga haftasiga o‘ttiz olti soatdan ish kuni qilib belgilanadi.
- 15-16 yoshgacha bo‘lgan (ta‘til davrida ishlayotgan 14 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar uchun) shaxslar uchun haftasiga yigirma to‘rt soatdan oshmaydigan ish kuni qilib belgilanadi.
- Ma’muriy javobgarlikka ma’muriy huquqbazarlik sodir etilgan paytda 16 yoshga to‘lgan shaxslar tortiladilar.
- Jinoyat sodir etilgunga qadar 13 yoshga to‘lgan shaxslar javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda – qasddan odam o‘ldirganliklari (JK 97 muddasining 2- qismi) uchungina jinoiy javobgarlikka tortiladilar.
- Jinoyat sodir etilgunga qadar 14 yoshga to‘lgan shaxslar quyidagi jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar:
 - qasddan odam o‘ldirganliklari;
 - qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazganliklari;
 - nomusga tegish;
 - ehtiyojni zo‘rlik ishlatib g‘ayri tabiiy usulda qondirish;
 - odam o‘g‘irlash;
 - bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik;
 - mulkni qasddan nobud qilish yoki unga tuzatib bo‘lmas zarar yetkazish;
 - ozodlikdan mahrum etish joylaridan qochish;
 - o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi muddalar yoki portlatish qurilmalarini, radiaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallash;
 - temiryo‘l, dengiz, daryo, havo transporti vositasi yoki aloqa yo‘llarini yaroqsiz holatga keltirish;

- transport vositasini olib qochish;
- giyohvandlik yoki psixotrop moddalarini qonunga xilof ravishda egallash;
- aybni og'irlashtiruvchi holatlarda bezorilik qilish.

"O'ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI ASOSLARI" DAN MASALALAR

1. Maktabni radio mutaxassisligini egallash bilan birga bitirgan o'quvchi: "Zavodga ishga kirishdan oldin zavod unga necha soat ish vaqtি belgilashi lozim", – degan savolni yechish uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga murojaat qildi, lekin Konstitutsiyadan savoliga javob topa olmadi. Yosh ishchi qaysi qonundan javob topishi mumkin? Konstitutsiya nega asosiy qonun deyiladi?

2. O'zbekiston Konstitutsiyasining 9- moddasida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendum)ga qo'yiladi, deb ko'rsatilgan.

Aytingchi, nimalar umumxalq ovozi bilan hal qilinadi?

3. O'zbekiston Respublikasi terma jamoasining a'zosi N. endi 18 yoshga to'lib, hayotida birinchi marotaba saylovga qatnashishi kerak edi. Lekin, musobaqa uchun boshqa shaharga ketishi tufayli N. saylovga qatnasha olmayman, deb achindi.

Aytingchi, N. saylovga qatnashadimi? Agar qatnashsa, qanday turda o'z huquqini amalga oshiradi?

4. Respublika Konstitutsiyasi va "Mulk to'g'risida"gi qonun fuqarolarning xususiy mulkka egaligini bildirdi, turar joylar ham xususiyashtirildi. Bu qonundan foydalanib, fuqaro M. uyining xonalarini o'ziga yoqadigan shaklda o'zgartirish ishlarini boshladi, ayrim devorlarni olib tashladi, ikki xonadan katta bir uy tuzdi, oshxonani balkonga ko'chirdi. Uy boshqarmasi xodimlari M. ga tanbeh berib, hamma xonalarni eski holatga keltirishni buyurdi. Bu uyda boshqalar ham istiqomat qilishini unga uqtirishdi.

Aytingchi, kim haq?

5. M. ismli fuqaro, Yakkasaroy tuman prokuraturasiga qo'shnisi S. o'z sherigi bilan birgalikda jinoyat qilishga tayyorgarlik ko'rayotganligini ma'lum qiladi. Prokuror tergovchiga S. ni hibsga olishni buyurdi.

Aytingchi, prokuror to'g'ri buyruq berdimi?

Tergovchi Konstitutsiyaning qaysi moddasiga qarshi harakat qildi?

6. O. ismli fuqaro ishdan qaytib uyiga kelganda ayrim buyumlari o'g'irlanganligini ko'rdi, o'g'ri shu mahallada yashovchi M. ekanligiga ishonch hosil qilib, uning eshigini buzib, uyidan mol-mulkini olib chiqib ketdi.

Aytingchi, O. Konstitutsiyaning qaysi moddasiga xilof harakat qildi? U qanday ish ko'rmog'i qonuniy?

7. 15 yoshli kollej talabalarini kursdoshlari Shuhrat va A'zam tug'ilgan kunlariga chaqirishgan edi. Stol ustida 1 shisha spirtli ichimlik paydo bo'lganligini ko'rgan Botir: "Nega spirtli ichimlik qo'ydinglar, bizga ichish mumkin emas. Buning uchun jarima solishadi", – dedi.

— Qo'ysangchi, agar biz ko'chada, jamoat joyida ichsak jarima solishadi, biz esa o'z uyimizdamiz, — dedi Bahodir.

— Ikkovlaring ham nohaqsanlar, — dedi Bahrom. Bizga spirtli ichimliklar ichish mumkin emas. Qayerda ichilmasin, baribir buning uchun ota-onalarimizga jarima solishadi.

Kim haq?

8. Alisher o'rmonga ov miltig'ini olib ketdi. O'rmon yaqinida u ikkita g'ozni ko'rib, ularni otib o'ldirdi. Shu zahoti tartib buzuvchini o'rmon nazoratchisi ushlab oldi va tegishli organga topshirdi.

O'rmon nazorati inspeksiyasi Alisherga o'rmon xo'jaligi ov qilish qoidalarini buzganligi uchun quyidagi choralarни ko'rdi:

jarima 10000 so'm, miltig'ini va otilgan g'ozlarni musodara qilish.

Alisher qanday turdag'i jazoga tortildi?

9. Maktab o'quvchilarining bir guruhi tabiatni muhofaza qilish ishi bilan shug'ullanar edilar. Maktab atrofidagi suvda zararli narsalar oqishini ko'rib, baliqchilik nazorat inspeksiyasiga ma'lum qildilar.

Og‘ir oqibatning oldini olish choralar tes aniqlanganini e’tiborga olib, zararlangan moddalarni suvgaga oqizgan korxonaning lavozimli shaxslariga ma’muriy jazo qo’llash bilan cheklanishdi.

Quyidagi ma’muriy jazoning qaysi birini bu misolda qo’llash mumkin? Agar ayrim fuqarolar tomonidan bunday tartibbuzarlik bo’lsa, qanday choralar qo’llaniladi?

Agar ko‘p miqdorda baliqlar nobud bo‘lganida, korxona rahbarlariga qanday choralar qo’llanilar edi?

- A) jarima;
- B) axloq tuzatish ishlari;
- D) musodara qilish.

10. A. ismli xizmatchi ishdan bo‘sash to‘g‘risida “o‘z roziligi” bilan deb ariza yozdi. Bir qancha vaqt o‘tgach rahbar chaqirib arizani qayta yozishni va ishdan bo‘sash sababini ko‘rsatishni talab qildi. A. rozilik bildirmadi.

Bu vaziyatda kim haq?

11. T. ismli haydovchi o‘z vazifasigasov uqqonlik bilan qaraganligi tufayli qimmatbaho asbobni ishdan chiqarib qo‘ydi. Korxona rahbari unga hayfsan berish bilan bir qatorda keltirilgan zararni qoplash, jarima to‘lash choralarini ko‘rdi. T. rozi bo‘lmadi.

Ma’muriyat harakati qonuniymi?

12. Ish vaqtin tugashiga bir soat qolganda 17 yoshli M. ishdan qaytish uchun eshik oldiga kelganida, bo‘lim boshlig‘i “Hali erta emasmi?” deb so‘rab qoldi.

Bo‘lim boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining qaysi moddasini bilishi shart?

13. 16 yoshli xodim S. 6 oy ishlaganidan so‘ng unga mehnat ta’tili berishni rahbaridan so‘radi. Rahbari hali ishlaganiga 6 oy to‘limganligini hisobga olib ta’til bermadi.

Rahbarning xatti-harakati mehnat qonuniga zidmi yoki yo‘qmi?

14. Quyida ko‘rsatilgan xizmatchilarga qaysi turdag'i ish vaqtin qo‘llanilishi Mehnat kodeksida ko‘rsatilgan (qisqartirilgan, to‘liqsiz)?

- A) kasal onasiga qaragan xodimga;
- B) 16 yoshli xodimga;
- C) yosh bolali xodimga;
- D) zararli ishda ishlaydigan xodimga;
- E) ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o‘qiydigan xodimga.

15. Sex boshlig‘i 16 yoshli ishchini ishdan tashqari ishlashi to‘g‘risida buyruq berib, ikki hafta ishlashini so‘radi. Lekin ishchi rozilik bildirmadi. Sex boshlig‘i unga hayfsan e‘lon qildi.

- a) Bu vaziyatda sex boshlig‘ining harakati qonuniymi?
- b) Qonuni bo‘lmasa, ishchi qayerga murojaat qilishi mumkin?

16. F. ismli fuqaro bir necha kun o‘z uyining oynasidan ikki o‘spirin qo‘shnisining mashinasini atrofida yurganini ko‘rdi. Kunlardan bir kun qo‘shnisining mashinasining ikki g‘ildiragi o‘g‘irlanganligini bilib qoldi. Qo‘shnisining: “Kim o‘g‘irladi?”—degan dod-voyiga F.: “Kim o‘g‘irlar edi, ana shu ikki o‘spirin o‘g‘irlagan”,—deb aytdi.

F. haqmi? Agar u shubhalansa, kimga murojaat qilishi kerak edi?

17. Shavkatning otasi muntazam ravishda aroq ichadigan bo‘lib qoldi. Kunlarning birida u 8-sinfda o‘qiydigan o‘g‘liga majbur qilib aroq quyib berdi. Shavkat ko‘zi tinib, og‘zi achib, chidamasdan ko‘chaga qochib ketdi. Uni ko‘rgan ichki ishlar xodimi tartib buzilganligini yozma ravishda qayd etdi. Ertalab Shavkatning otasini ichki ishlar bo‘limiga chaqirib, jazolashlarini aytishdi.

Shavkatning otasiga qanday jazo chorasi qo‘llaniladi?

Qanday tartib buzilishi sodir bo‘ldi?

18. Buvisi boshqa mamlakatga ko‘chib ketishi munosabati bilan 12 yoshli nevarasiga turar joyini hadya qildi. Nevarasi u uyni biror narsaga almashtirmoqchi. Almashtirishga haqqi bormi? Fuqarolik qonuni bu huquqiy munosabatni qonuniy deb biladimi?

- A) ha, haqli, u mulk egasi;
- B) yo‘q, hali u 18 yoshda emas.

AYRIM YURIDIK ATAMALARING IZOHLI LUG'ATI

ADLIYA — arabcha "adolat, to‘g‘rilik, haqqoniylik" ma’nolarini bildiradigan tushuncha bo‘lib, muayyan o‘rganning huquqini muhofaza qilish bo‘yicha faoliyatini anglatadi.

ADVOKAT (lotin) — ayblanuvchining himoyachisi, sudda biror shaxsning ishini olib boruvchi, huquqiy masalalar bo‘yicha maslahatlar beruvchi yurist.

ALIMENT — mehnatga yaroqsiz bo‘lib, alohida ro‘zg‘or yuritayotgan oila a’zolariga yaqin kishilar tomonidan to‘lab turiladigan nafaqa.

AMNISTIYA — sudlanganlarning bir qismini qonun asosida to‘la yoki qisman ozodlikka chiqarish.

APELLATSIYA — shikoyat qilish, norozilik bildirish.

AUDITOR — tijorat banklari yoki boshqa kompaniyalarning faoliyatini tekshirish vakolatiga ega bo‘lgan maxsus shaxs.

AYB — jamoat tartib-qoidalari va axloq normalariga xilof nojo‘ya xatti-harakat.

AYBLANUVCHI — jinoiy javobgarlikka daxldor shaxs.

BEZORILIK — jamoat tartib-qoidalari qasddan hurmatsizlik bildirib – urish, do‘ppslash, badanga shikast yetkazish.

BOSQINCHILIK — o‘zganing mulkini talon-toroj qilish maqsadida hujum uyushtirib, badaniga shikast yetkazish.

DALOLATNOMA — biror voqeа, hodisa yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishilar tomonidan tuzilgan hujjat.

DAM OLISH VAQTI — xodim mehnat vazifalarini bajarishdan xoli bo‘lgan va bundan u o‘z ixtiyoriga ko‘ra foydalanishi mumkin bo‘lgan vaqtdir.

DA’VO — o‘zining fuqarolik huquqini himoya qilish haqida sud orqali qilingan arznama.

DEKLARATSIYA (lotin) — bayonot, daromadi va boyliklari haqida soliq to‘lashga tortilgan shaxsning arizasi.

EKSPERTIZA — muayyan masalalarni ekspertlar tomonidan tekshirib o‘rganilishi.

EKSTERNAT (lotin) — tashqi, begona, o‘quv yurtida bevosita o‘qimagan shaxslar uchun o‘quv kursi bo‘yicha imtihonlarni topshirish uchun belgilangan tartib.

EMANSIPATSIYA (lotin) — jabr-zulmdan, qaramlikdan, xurofotdan qutulish, teng huquqlikka erishish, ozodlikka chiqish.

FARMON — davlat boshlig‘i tomonidan chiqariladigan hujjat.

FARMOYISH — davlatni boshqarish hujjatlari turlaridan biri.

FARZ (arab) — burch, majburiyat, hamma musulmonlar bajarishi shart bo‘lgan talablar va normalarni anglatuvchi diniy-huquqiy kategoriya.

FIRIBGARLIK — aldash va boshqa yo‘llar bilan o‘zgalar mulkini g‘arazgo‘ylik maqsadida egallah.

GUVOH — ro‘y bergan hodisani shaxsan o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, bilganlarini aytib berish uchun sudga chaqirilgan kishi.

HADYA — shaxsning o‘zga shaxs foydasiga o‘z mulkini bepul berish haqidagi shartnoma.

HAKAM — taraflar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni sudsiz bartaraf etuvchi, kelishtiruvchi, xolis vositachi.

HUKM — ayblanuvchiga jazo berish yoki uni oqlash to‘g‘risida chiqarilgan sud qarori.

HUQUQ — davlat tomonidan belgilangan va muhofaza etiladigan qonun-qoidalar tizimi.

HUQUQIY MUNOSABAT — ishtirokchilarning huquq va burchlarini belgilaydigan, qonun normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabat.

JABRLANUVCHI — jinoiy harakati natijasida zarar ko‘rgan shaxs.

JARIMA — aybdordan davlat daromadiga qonunda belgilangan miqdorda pul undirishdir.

JAVOBGARLIK — nojo‘ya harakati uchun javob berishni talab qiladigan holat.

JAZO — huquqbuzar deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo‘llaniladigan, muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilishdan iborat majburlov chorasisidir.

JINOYAT — qonun bilan taqiqlangan, jazoga loyiq, ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jinoyat deb topiladi.

KODEKS (lotin) — huquqning biror tarmog‘iga oid qonun-qoidalar to‘plami.

KONSTITUTSIYA (lotin) — tuzilish, davlatning asosiy qonuni. U davlatning ijtimoiy-siyosiy, davlat tuzilishi, organlari sistemasi, fuqarolarning asosiy huquq va burchlarini ifodalaydi.

KONTRABANDA — (kontr va bando) mollarni davlatga g‘ayriqonuniy yo‘l bilan olib o‘tish.

KONVENTSIYA (lotin) — bitim, ko‘p tomonlama xalqaro shartnoma turlaridan biri.

LITSENZIYA (lotin) — ozodlik, huquq, ruxsat berish. Masalan, ixtiro uchun beriladigan texnik hujjat, savdo-sotiq bilan shug‘ullanish uchun beriladigan ruxsatnoma.

MEROS — vafot etgan shaxsnинг mulkni o‘z qarindoshlari va boshqa yaqin kishilari ixtiyoriga o‘tishi.

NOTARIUS — notarial harakatlarni amalga oshiruvchi mansabdar shaxs, davlat vakili.

OBLIGATSIYA — qimmatbaho qog‘ozning turi bo‘lib, uning egasi ilgari belgilangan miqdorlarda yillik daromad olib turadi.

PARITET (lotin) — tenglik, turli davlatlarning pul birligi yoki og‘irlik o‘lchovlaridagi mutanosiblik.

PATENT — ma’lum muddat mobaynida qandaydir faoliyat bilan shug‘ullanish uchun berilgan mutlaq hujjat.

PENYA — majburiyatni o‘z vaqtida bajarmagani uchun beriladigan sanksiya, to‘lanadigan summa.

POSHLINA — davlat va boshqa organlar tomonidan bajarilgan muammolar uchun undiriladigan pul yig‘imi.

QASAMYOD — ont ichish, biror narsani bajarishga rasmiy yoki tantanali ravishda va’da berish, sadoqatli bo‘lish.

QASD — aybning shakllaridan biri. Bunda jinoyatchi o‘z qilmishining ijtimoiy xavfli ekanligini anglaydi, zararli oqibatlarini ko‘radi va unga ongli ravishda qo‘l uradi.

QIDIRUV — tergov, surishtiruv organi va ichki ishlar organlari tomonidan yashirinib yurgan aybdorni, jazodan qochgan mahbusni, bedarak yoqolgan shaxsni topishga qaratilgan tadbirlar majmuasi.

QONUN — davlat hokimiyyati oliy organi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinadigan normativ akt.

REPLIKA (lotin) — takrorlayman, javob beraman. Luqma, qisqa mulohaza, e’tiroz, javob. Masalan, sud jarayonida oqlovchi bilan qoralovchi o‘rtasidagi e’tirozlar.

SANKSIYA — huquqbuzarga nisbatan davlat tomonidan qo‘llaniladigan ehtiyoj chorasi.

SESSIYA (lotin) — majlis, kengash, vakolatli organlarning tashkiliy-huquqiy faoliyat shakli.

SUBSIDIYA (lotin. subsidium) — yordam, davlat budgeti hisobidan mahalliy hokimiyyat organlari, yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan yordam.

SO‘ROQ — tergovda, surishtiruv va sud majlisida shaxsdan ko‘rsatma hamda tushuntirish olish vositasi.

TA'MAGIRLIK — moddiy manfaatdorlik, ochko‘zlik, dunyo orttirish yo‘lida qilingan jinoiy harakat.

TERGOV — biror voqeanning sababi va aybdorini aniqlashga qaratilgan faoliyat.

TERRORISTIK AKT — davlat xavfsizligiga qarshi, konstitutsion tuzum asoslariga qarshi qaratilgan jinoyat.

UMUMIY MULK — qonunchilikka ko‘ra ikki yoki undan ortiq shaxsga tegishli mulk.

UMUMIY SAYLOV HUQUQI — qonunda belgilangan yoshga yetgan barcha fuqarolar hokimiyatning vakolat organlariga bo‘ladigan saylovlarda qatnashish huquqini beradigan saylov huquqi sistemasi.

VASIYATNOMA — mol-mulkini merosxo‘rlariga o‘tkazish haqidagi vasiyat matni yozilgan hujjat.

VIJDON ERKINLIGI — bu fuqarolarning har qanday dinga e’tiqod qilish yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslik huquqidir.

XUSUSIY AJRIM — sud muhokamasi davrida hukm bilan bir vaqtda chiqariladigan qaror.

YURIDIK (HUQUQIY) AKT — davlat organlari, mansabdor shaxslar tomonidan o‘z vakolatlari doirasida chiqariladigan farmoyish.

YURIDIK (HUQUQIY) JAVOBGARLIK — jazoga tortish, yuridik majburiyatlarni buzgan shaxs, aybdorga nisbatan qonunda ko‘zda tutilgan sanksiyalarni qo‘llash.

YURIDIK (HUQUQIY) FAKTLAR — huquq va majburiyatlarni vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish bilan bog‘liq holatlar.

YURIDIK (HUQUQIY) SHAXS — fuqarolik huquqlari va majburiyatlarining konkret subyekti.

YURISKONSULT (lotin) — huquqshunos, korxona va muassasalarda yuridik masalalar yuzasidan konsultant sifatida ishlaydigan mutaxassis, yurist.

O'RINDOSHLIK — korxonalarda asosiy ish bilan birgalikda boshqa pulli lavozimda ishslash.

SHARTNOMA — ikki yoki bir necha shaxs o‘rtasidagi o‘zaro majburiyatlarni belgilash, ularni o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi bitim.

SHAXS DAXLSIZLIGI — fuqarolarning konstitutsion shaxsiy huquq va erkinliklaridan biri.

SHIRKAT — biror ishni birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashgan kishilar hamkorligi, o‘rtoqlik uyushmasi.

MUNDARIJA

Darslikdan foydalanish bo'yicha umumiy ko'rsatmalar	3
1- mavzu. O'zbekiston Respublikasi – mustaqil davlat	4

I BOB SHAXS, JAMIYAT VA DAVLAT

2- mavzu. Shaxs	10
3- mavzu. Jamiyat.....	15
4- mavzu. Davlat	20
5- mavzu. Davlatning funksiyalari	25
6- mavzu. Davlatning boshqaruv shakli	30
7- mavzu. Davlatning tuzilish shakli...	35
8- mavzu. Siyosiy tartibot (rejim). Davlat organlari. Davlat mexanizmi.....	40
<i>Bob yuzasidan namunaviy testlar</i>	46

II BOB FUQAROLIK JAMIYATI VA HUQUQIY DAVLAT

9- mavzu. Fuqarolik jamiyatı	48
10- mavzu. Huquqiy davlat	53
<i>Bob yuzasidan namunaviy testlar</i>	58

III BOB O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOSHQARUVINING TASHKIL ETILISHI

11- mavzu. O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi	60
12- mavzu. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti	65
13- mavzu. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi organ	70
14- mavzu. O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlari.....	75
15- mavzu. O'zbekiston Respublikasi sud tizimi	80
<i>Bob yuzasidan namunaviy testlar</i> .. .	86

IV BOB**AXLOQ VA HUQUQ. HUQUQIY MUNOSABATLAR**

16- mavzu. Ahloq va huquq	90
17- mavzu. Huquq normalari.....	95
18- mavzu. Huquq sohalari	100
19- mavzu. Huquqiy munosabatlar	105
20- mavzu. O‘zbekiston Respublikasining qonun manbalari.....	110
21- mavzu. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat	115
<i>Bob yuzasidan namunaviy testlar</i>	121

V BOB**HUQUQBUZARLIK VA YURIDIK JAVOBGARLIK**

22- mavzu. Huquqbazarlik	124
23- mavzu. Yuridik javobgarlik	129
24- mavzu. Huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari.....	134
25- mavzu. Adliya vazirligi. Advokatura va Notarial idoralar	140
26- mavzu. Qurolli kuchlar va yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ..	146
<i>Bob yuzasidan namunaviy testlar</i>	152

VI BOB**VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQLARI,
BURCHLARI**

27- mavzu. Fuqarolik qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquqlari.....	154
28- mavzu. Jinoyat qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari	159
29- mavzu. Oila qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari	164
30- mavzu. Mehnat qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquqlari	169
<i>Bob yuzasidan namunaviy testlar ..</i>	175
 Illova: Voyaga yetmaganlarning huquqlari va burchlari	178
“O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari”dan masalalar	181
Ayrim yuridik atamalarning izohli lug‘ati	185

K-21

O'zbekiston davlati va huquqi asoslari: 8-sinf
uchun/Mualliflar guruhı; Mas'ul muharrirlar:
— T.; 2019 — 192 b.

ISBN 978-9943-5874-2-7

**OMINA ABDURAHIMOVNA KARIMOVA
NARGIZA QAMARITDINOVNA ISMATOVA
SHUHRATBEK ERGASHEVICH SARIQOV
OMINA ERGASHEVNA AMANOVA**

O'ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI ASOSLARI

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
umumiyy o'rta ta'lim maktablarining 8- sinf o'quvchilari
uchun darslik sifatida tavsiya etgan*

"Huquq va Jamiyat" nashriyoti, 2019,
Toshkent, Yunusobod 6, Jumamasjid ko'chasi

Muharrir	Sh. Dadasheva
Texnik muharrir	A. Umarova
Bosh dizayner	"H&J" jamoasi
Sahifalovchi	D. Iskandarbekov

Litsenziya AI №022, 27.10.2018 yil.

Bosishga ruxsat etildi 10.07.2019 y. Bichimi 70×90^{1/16}. «Tayms» garniturasi. Kegli 11. Ofset
usulida bosildi. Bosma tabog'i 12.
Adadi 60 700 nusxa. 19-38 sonli buyurtma.
Shartnoma 21/02

"Huquq va Jamiyat" nashriyoti matbaa bo'limi.
Toshkent, Yunusobod 6, Jumamasjid ko'chasi.
Guvohnoma №10-2750, 13.06.2017 yil

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijara berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezligan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismdan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.